

BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

TAHRIR HAY'ATI

Baxtiyor SAIDOV
G'ayrat SHOUMAROV
Rustem REMOV
Risboy JO'RAYEV
Shaxnoza XALILOVA
Boris BLYAXER
Iroda ABDULLAYEVA
Ayubxon RADJIYEV
Sharibboy ERGASHEV
Feruza QODIROVA

Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva
Adabiy muharrir
Sayyora Alimxodjayeva
Kompyuterda sahifalovchi va dizayn
Mirtohir Xoliqov

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqrib qilinmaydi.

Muallifning familyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassislar:

O'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi
«MAKTAB VA HAYOT» M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda «MAKTAB VA HAYOT»dan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan chiqa boshlagan.

MANZIL:

100095, Toshkent sh.,
Olmazor t., Ziya ko'chasi, 6A uy.
Tel: (0371) 246-21-02
E-mail: maktavahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI – 1019

Mundarija

D.S.Abdullajanova.	
Xalq ta'limi tizimida boshqaruv kadrlerini tanlashning ijtimoiy-psixologik mezonlari (ayol kadrler zaxirasini shakllantirish misolida).....	2
D.Q.Sulaymanova.	
Ota-onha qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan psixologik ishlarning ahamiyati	4
I.Q.Sayfullayeva.	
Logopedik mashg'ulotlarda didaktik o'yinlarnitashkil etishda art texnologiyalarning o'rnmi	5
R.O.Begmatov.	
Maktab o'quvchilarida tajovuzkorlik hissi shakllanishining yosh dinamikasi	7
M.Mamatova.	
Og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda nutq nuqsonini bartaraf etishda mayda qo'l motorikaning roli.....	9
D.S.Nabiyeva.	
Motor alaliyani bartaraf etishda noan'anaviy artikulyatsion gimnastikadan foydalanish....	10
S.J.Achilova.	
Dizartriya nutq kamchiligiga ega bolalar bilan ishslashning pedagogik-psixologik xususiyatlari	12
Sh.R.Axmedova, Z.I.Agzamova.	
Umumiy o'rta ta'limga maktablarida tashkil etilgan logopediya shoxobchalarining maqsad va vazifalari	14
O.F.Haydarova.	
Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga to'liq jalb qilishda ta'limga muassasalari o'qituvchilari faoliyatining mazmuni	15
D.R.Babayeva, M.A.Abdullayeva.	
Maktabgacha ta'limga tashkilotlarida bolalarni atrof-olamni kuzatishga o'rgatish usullari	17
M.Badalova, T.Xalilov.	
Xorijiy tajribalar asosida ta'limga sohasi boshqaruv tizimini takomillashtirishning mohiyati	29
M.Sh.Mansurov.	
Umumta'limga maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning andijon viloyatidagi tahlili	21
D.F.Hamroqulova.	
Bolalarda tabiatga oid tasavvur va tushunchalarni shakllantirishda uzyviylikni ta'minlash	24
N.K.Mamanazarova.	
Istiqlolga ega bo'lgan haqiqiy kasblari	26
D.M.Maxmudova, A.A.Artikbayeva	
Maktabgacha katta yoshdagilari bolalarni ertaklarni sahnalaشتirishga o'rgatish	27
B.K.Muhamedsaidov, J.E.Pardaboev, R.B.Daminova.	
Texnologiya darslarida o'quvchilar texnik tafakkurini rivojlantirish texnologiyasi	29
X.Sh.Yunusova.	
Pedagogik ta'limga innovatsion klasteri rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar	32
G.T.Yadgarova.	
O'qituvchi kommunikativ kompetensiyasi – ta'limga tarbiyaning muhim psixologik omili sifatida	33
Д.И.Илхамова.	
Особенности взаимодействия в семье и школе – как факторы сохранения психологического благополучия детей	35
M.X.Karamyan.	
Социально-психологическая адаптация – как фактор здорового поведения в подростковом и юношеском возрасте	37
A.B.Turdimuratova.	
Intellekt testlarni standartlashtirish va eksperimental jarayon	39
M.T.Axmedova, Z.U.Musratova.	
Bo'lajak o'qituvchilarini kasbga tayyorlashda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning integratsion pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	41
M.R.Vohidova.	
Amaldagi o'quv dasturining fanlar kesimida tahlili	43



XALQ TA'LIMI TIZIMIDA BOSHQARUV KADRLARINI TANLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEZONLARI (AYOL KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISH MISOLIDA)

D.S.Abdullajanova, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti, "Ijtimoiy fanlar" fakulteti, "Psixologiya" kafedrasi dotsenti v.b., psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

В данной статье рассматривается подбор управлеченческих кадров в системе народного образования, социально-психологические механизмы подбора и расстановки кадров в системе и критерии их реализации. В качестве механизма выделена реализация критериев через формирование человеческих ресурсов.

Ключевые слова и понятия: система народного образования, кадры, резервная активность, социально-психологические критерии, механизмы, система управления, социально-психологический механизм.

This article discusses the selection of managerial personnel in the system of public education, the socio-psychological mechanisms for the selection and placement of personnel in the system and the criteria for their implementation. As a mechanism, the implementation of criteria through the formation of human resources is highlighted.

Key words and concepts: public education system, personnel, reserve activity, socio-psychological criteria, mechanisms, management system, socio-psychological mechanism.

Avvalo, kadr shaxslararo munosabat orqali tashqi muhitni, jamiyatni rivojlantirishga bevosita ta'sir etuvchi kuch hisoblanib, xalq xo'jaligiga oid barcha sohalarining asosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiysi, 2019 yil 2 sentyabrdagi PQ-562-sonli "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qarori, Xalq ta'limi tizimining qator qarorlari asosida kadrlar zaxirasini shakllantirish mezonlarini ishlab chiqish, shakllantirish va amaliyotga joriy etilishini tashkil etish masalalarining ilgari surilishi davrni o'zi talab etmoqda. Ayniqsa, xalq ta'limi tizimida rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish, jamiyatni ijtimoiy, iqtisodiy boshqaruvi uchun munosib kadrlarni tayyorlashning asosini tashkil etish bilan birga ularni tanlash, joy-joyiga qo'yish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Kadrlarni mas'uliyatli vazifalarga tanlashda, xususan, xalq ta'limi tizimida ularning nomzodini ilgari surishda shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hamda mezonlari to'g'risidagi strategiyaning aniq shakllanganligi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Avvalo, kadrlar zaxirasiga ayollarning tanlanishi, rahbarlikka nisbatan ko'nikma, malaka va nazariy jihatdan tajribaning mujassam bo'lishi nomzodni tavakkalchilikka qanchalik tayyorligi hamda qaysi tipga xosligini oldindan aniqlash, ishonchli nomzodni tayinlanishda muhim rol o'ynaydi.

Ayol kadrlar zaxirasini shakllantirish bilan birga resursdan oqilona foydalanish katta tajriba va ilmiy salohiyatni talab etadi. Tadqiqotlarimizdan shu narsa ayon bo'ldiki, kadrlarni tanlash jarayonida bevosita psixologning ishtiroki muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Birinchidan, lavozimgatanlangan, tavsuya etiladigan nomzodning o'ziga xos, individual ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini bilish. Ikkinchidan, uning ijtimoiy holati bilan birga psixologik portretini aniqlash va shu asosda psixologik tavsifnomasi tayyorlashni maqsadga muvofiqligini hisobga olish kerak.

Ijtimoiy psixologiyada "kadrlar zaxirasi" boshqaruva faoliyatini amalga oshiradigan, muayyan darajadagi mansab (lavozim) talablariga javob beradigan, maqsadli tayyorlovdan o'tgan rahbarlar, mutaxassislar jamoasini anglatadi. Kadrlar zaxirasini shakllantirish huquqiy, tashkiliy, psixologik asosga ega.

Aslida kadrlar zaxirasini shakllantirish institutini qo'llash, birinchidan, tashkilotlarda kadrlar yetishmovchiligi muammosini baratraf etish, sun'iy bo'shilq paydo bo'lishini oldini olish. Ikkinchidan, jamoa motivatsiyasi. Buxodimning kasbiy rivojlanishiga hamda mansabda o'sishiga nisbatan motivatsiya berish imkoniyatini oshiradi. Kadrlar zaxirasini shakllantirishning to'g'ri tashkil etilishi

tashkilotlarda kadrlar qo'nimsizligi muammosi yuzaga kelishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Uchinchidan, kadrlar zaxirasi bilan ishlashda kadrlar malakasini oshirish, qayta tayyorlashni tashkil etish tajribali mutaxassislar bilimlarini o'zlashtirish, maslahatlarini olish va albatta, yosh mutaxassislarda o'ziga ishonch hissini oshirish imkoniyatini yaratish. To'rtinchi, bu diagnostika masalasi. Bunda yangi iste'dodlarni topish, kashf etish va o'z-o'zini noadekvat baholashga moyil xodimlarni aniqlash. Beshinchidan, kadrlarni qayta tayyorlash uchun sarf etiladigan vaqtini tejash masalasi. Bunda yangi xodim topish va uni rahbariyat bilan o'zaro adaptatsiya jarayonlariga ketadigan vaqt nazarda tutiladi. Zaxiraga kiritilgan kadr salohiyatidan foydalanishda esa, tashkilotning ichki imkoniyatlarini bilgan holda harakat qilish, ish unumdarligini oshirish, mehnat samaradorligini saqlab qolish imkoniyati mayjud [53, 132].

Tadqiqotchi G.V.Demeshkin fikriga ko'ra, tashkilotlarda kadrlar zaxirasi bilan ishlash va zaxirani shakllantirishning asosiy jihatlar qo'yidagilardan iborat:

kadrlar zaxirasini tashkil etish maqsadli, tizimli, rejali xarakterga egaligi;

- professional darajada kadr saralashda xodim va kadrlarni tanlash komissiyasi salohiyatini o'rganish;

- xodimning mansabda o'sishiga va salohiyatiga ilmiy yondashuv orqali kadrlar zaxirasiga kiritishni tashkilotning ichki va tashqi imkoniyatlaridan kelib chiqib amalga oshirishdir.

Natijada, rahbariyat tashkilotdag'i xodim imkoniyatlari to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'ladi. Shu bilan birga, kadrlar zaxirasiga kiritilgan xodimning tashkilot uchun qanchalik manfaatli ekanligi, uni mansabda ko'tarish yoki boshqa lavozimga tavsija etish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, kadrlar zaxirasi rahbariyat uchun tashkilot jamoaviy motivatsiyasini oshirish, aniq uslublarni qo'llash orqali xodimlarda ishga bo'lgan rag'bat va qiziqishini oshirish imkonini beradi [53, 134].

Bugungi kunda mamlakatimizda kadrlar zaxirasini raqobatbardoshlik prinsiplari bo'yicha tayyorlashning xorij tajribasini o'rganish, uning huquqiy asoslari bilan birga ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyatini va psixologik ta'siri doirasida ko'plab hamkorlik ishlari amalgalga oshirilmoqda.

Bu borada Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi elchisi Szyan Yan xonimning intellektual mulk himoyasi, ilmiy va texnik boshqaruva tizimini rivojlantirish jarayonlari hamda kadrlar zahirasini tayyorlash to'g'risidagi fikrlari o'rindirid. U: "Yuqori salohiyatlari kadr bu – innovatsiyaning asosidir. Xitoy tajribasiga ko'ra, kadrlar zaxirasini tayyorlashda kuchli salohiyatga ega kadrlarni hamkorlikka chaqirish, ilmiy xodimlar



faolligini oshirish maqsadida iste'dodlarni jalb etishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, ilmiy faoliyatdagi yutuqlari uchun tadqiqotchilarни mukofotlash ishlari tashkil etilgan", - deb ta'kidlab o'tadi[18].

Darhaqiqat, kadrlar zaxirasini tayyorlash va salohiyatidan oqilona foydalanishda manfaatlar to'qnashuvni amalga oshishi zarur. Shu nuqtai nazardan ham zaxira kadrdan ko'rildigan manfaat albatta, kadr ehtiyojlari va motivlariga mos kelishi juda ham muhim jihat hisoblanadi.

Kadrlar zaxirasining shakllantirilishi boshqaruvga nomzodni ilgari surishda muhim baza sifatida xizmat qilishi bilan birga kadrning kasbiga, lavozimiga munosibligini o'rganish fanda turli usullarni qo'llashni taqozo etadi.

Ma'lumki, fanda professiogramma tushunchasi mavjud bo'lib, biror kasbning ijtimoiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish, texnik, sanitariya-gigiena, psixologik va boshqa xususiyatlarini bayon etish tushuniladi. Professiogramma faqatgina kasb yoki mutaxassislikka qo'yiluvchi talablarnigina emas, balki ish joylariga bo'lgan talablarni ishlab chiqishga ham imkon beradi. Professiogrammani yaratish juda mashaqqatli ish bo'lib, bu tadbirga sarflanadigan vaqt, harajatlar olinadigan natija, maqsad qanchalik muhimligi bilan belgilanadi [61, 58].

Tadqiqotchilar fikricha, bunday professiogrammalardan mavjud ish o'rnlari, xususan, boshqaruvga kadrlarni tanlashda, mehnat sharoitlarining sanitariya-gigiena jihatlarini mukammallashtirishda, mehnat va dam olishni to'g'ri rejalashtirishda, mehnat xavfsizligini yaxshilashda, kadrlar turg'unligini ta'minlashda, jamoadagi ijtimoiy-psixologik muammolarni hal etishda, mehnat sifatini oshirishda foydalanish mumkin.

Professiogramma – u yoki bu kasbga qo'yiladigan talablardan kelib chiquvchi shaxsga xos bilim, malaka va ko'nikmalarning uyg'unlashgan yig'indisidir[159, 148].

Kasb talablari asosida ishlab chiqilgan professiogramma nomzodni ishga qabul qilishda asos bo'lib xizmat qiladi. Odatda, nomzodning professiogramma talablariga qanchalik mos kelishimi aniqlash maqsadida turli xil psixologik va kasbiy testlardan foydalilanadi, suhbat o'tkaziladi hamda nomzod shaxsi haqida ma'lumotlar yig'iladi.

Har bir olinayotgan ma'lumot asosida, avvalo, professiogramma mezonlari yotadi va ushbu ma'lumotlar shu mezonlarga maksimal mos kelishi - nomzodni ishga qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Hozirga kelib, tashkilotlarda deyarli hamma mavjud mutaxassisliklar bo'yicha xizmat talablari, lavozimdan kelib chiquvchi vazifalar majmuasi va yo'rionomalar ishlab chiqilgan hamda yangi xodim shu talablarga mos kelishi asosida ishga qabul qilinadi[61,59].

Professiogrammalar maqsadi birinchi navbatda, yangi xodimni ishga qabul qilishda uning kasb yoki mutaxassislikka qanchalik mosligini aniqlashga qaratilgan.

Bizningcha, kadrlarni tanlash, ayniqsa, ayollarni lavozimga tayinlashda kadrlar zaxirasiga kiritishni tashkil etish, kadrni oldindan qat'iy talablar asosida standartlashtirilgan mezonlarga moslashtirish emas, balki har bir shaxsnинг individualligini hisobga oлган holda tashkilot talabi emas, takliflarini ilgari surishni kuchaytirish zarur.

Takliflarning qanchalik ijtimoiy muhitga mosligi, ta'lim standartlaridan kelib chiqib joriy etilishi – kadrlarning erkin tanlovini o'tkazishda o'ziga xos qulaylikni yaratishini hisobga olish zarur.

Aslida bugungi kunda tashkilotlarda yangi xodimni ishga qabul qilishda, xorijiy standartlar, innovatsion prinsiplar asosida "samoviy" talablar o'rnatilganligi yosh kadrni tashkilot muhitiga moslashib ketishida anchayin noqulayliklarni keltirib chiqarishi ham inobatga olinishi kerak.

Zero, ilmiy jihatdan isbotlangan muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi bevosita korxona, tashkilotda mehnat qilish, jamoada faoliyat yuritishda oldiga

qo'yiladigan maqsadlar ortidan shakllanishi, rivojlanishi, vaqt o'tishi bilan orttirilishi ham mumkinligi yuqoridaqgi fikrlarimizga asos bo'lib xizmat qiladi.

Kasbga moslik yoki nomunosiblik bilan kadrlar zaxirasini amaliyotda faol qo'llash institutini joriy etishda ishtirok etuvchi shaxslar o'rtasida juda katta farq mavjud.

Avvalo, tashkilotda oliv o'quv yurtini tugatib, yangi ish boshlagan yosh mutaxassislar, tashkilotda ikki yildan ko'p bo'lmagan muddatda faoliyat yuritayotgan xodimlar kadrlar zaxirasiga kiritilmasligi zaxira bilan ishslash qoidasining muhim jihat hisoblanadi.

Kadrlar zaxirasini shakllantirishning ham o'ziga xos maqsadi, mezon, talabi, imkoniyati va qonun-qoidalari bo'lishi tabiiy. Biroq, bu talablarga kadr moslashtirilmaydi, balki kadr salohiyati nuqtai nazaridan shaxs portreti shakllantiriladi.

Shu nuqtai nazardan kadrlar zaxirasini shakllantirishda tadqiqotchi M.V. Vinchenkoning kadrlar zaxirasini shakllantirishning asosiy mezonlari to'g'risidagi yondashuvni ham o'rinni bo'ladi. Bular:

- yuqori kasbiy bilim;
- boshqaruv faoliyatida ma'lum bir tajribaga egalik;
- tashkilotchilik, ishchanlik va shaxsiy sifatga egalik;
- innovatsion faoliyatga ijodiy yondashuv motivatsiyasining mavjudligi;
- ijtimoiy-psixologik yetuklikning aniq sifatlari va albatta, xodimning kadrlar zaxirasiga kiritilishiga roziligi, xohishi hisobga olinishi bilan belgilanadi[48, 17].

Kadrlar zaxirasini shakllantirishda kasbiy bilim – faoliyat yo'nalishiga mos ravishdagi ta'lim, tajriba, bilim, ko'nikmaga ega bo'lish; ma'lumotlar va hujjatlarni tahlil eta olish qobiliyati; asoslangan qarorlar qabul qilish va ularni bajarishga erisha olish qobiliyatiga ega ekanligi hisobga olinadi [64, 57].

Tashkilotchilik qobiliyati – bu o'z bo'y sunuvudagi, qo'lostidagi jamoani boshqara olish, ular faoliyatini yo'naltirish va nazorat qilish, boshqaruvning zamonaliviy usullari va texnikasi bo'yicha bilimga ega bo'lish, lavozim vakolatlari doirasidagi majburiyatlarini amalga oshirish qobiliyati, tashabbuskorlik xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Mas'uliyatlilik – o'zi va qo'lostidagi xodimga, jamoaga nisbatan talabchanlik; o'zi va jamoa ishini ob'ektiv tanqidiy baholash va majburiyatni tan olishdir.

Odob-axloq sifatlari – vijdoniylit, mehnatsevarlik, ob'ektivlik, ijtimoiy-psixologik va axloqiy yetuklik, jamoa bilan muloqotda do'stona munosabatda bo'lish; kommunikativ qibiliyatlar, xushmuomalalik, to'g'rilik va atrofidagilarga e'tiborlilik xususiyatlari talab sifatida qo'yilishi kerak [48, 17].

Shu o'rinda Sharq mutafakkirlari, davlat va jamoat arboblari Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy asarlarida kadr tanlash, boshqaruvni shakllantirish, davlat va jamiyat boshqaruvi, adolatli rahbarlik ishlarni tashkil etish borasidagi fikrleri o'rindlidir.

Xususan, Amir Temur davlatni boshqarish vositalari haqida to'xtalib shunday yozadi: "Saltanat ishlarni tashkil etish narsaga amal qilish lozim: 1) kengash, 2) mashvarat maslahat, 3) qat'iy qaror, tadbirkorlik, hushyorlik, 4) ehtiyyotkorlik".

Bundan tashqari, o'rta bo'g'in rahbarlarini tanlash, ulardan hukumatni boshqarish ishlarni samarali foydalanishda uni nafaqat sinab ko'rish lozimligi, balki rahbarning individual-psixologik xususiyatlari, shaxsiy yo'nalgaligini, e'tiqodi, ehtiyoji, motivi kabilarni inobatga olish, bu rahbarlarni rag'batlanish, yuqori lavozimlarga ko'tarish yoki jazolash usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi ham Amir Temur tuzuklarida bayon etib berilgan [61, 11].

U sarkardalarni saralash va lavozimlarga qo'yishda ularning nasl-nasabiga, aql-farosatiga, xalqparvarligiga, tinchliksevarlik, sabr-toqatlilik,adolatparvarlik, ko'tarinkи ruhiy holatiga, ziyrakligiga, malakasi va odamlar bilan murosa qilish fazilatlariga alohida e'tibor bergen [187, 6].

Shuningdek, jadid ma'rifatparvarlari Ahmad Donish, Abdulla



Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpox ijodida ham jamiyatni yangicha boshqarish, ta'limdi yangi uslublarini o'rghanish, xalqni ozod etish, erkin fikrlashga chorlash bilan birga ayollarni ma'rifatli qilishning oilaga, umuman ijtimoiy hayotga bo'lgan foydasi xususida fikr yuritiladi.

Jumladan, jadidlar o'z qarashlarida: "Xotin-qizlarni jamiyatning to'laqonli a'zolari sifatida qabul qilmasdan, oila masalasini to'g'ri hal etmasdan, yosh avlodni to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas. Oxir oqibatda millat taqdiri uning ayollarini va oilasining holatiga bog'liq bo'ladi", – deb hisoblashgan [157, 375].

Bizningcha, ta'lim tizimida, xusan, xalq ta'limi tizimida boshqaruvni amalga oshirish hamda boshqaruvga kadrlar zaxirasini shakllantirishda, tashkilot va xodim manfaatlari birlashishi, xodim va rahbar o'rtasida adaptatsiya uchun sarflanadigan vaqt tejalishi, noadekvat xodimni aniqlash yoki iste'doli kadrnini tanlash diagnostikasini amalga oshirish, ayollar faolligini boshqaruvda namoyon etishda bilim va ko'nikmalarini oshirish, kasbiy nuqtai nazardan ma'lum bir tajribaga ega bo'lish, ma'lum bir maqsad, qoida, mezon va talabdan kelib chiqib zarur xususiyatlarni birlashtirishni talab etiladi.

Adabiyotlar

1. Abdullaeva Ya.A.Qoraqalpog'iston xotin-qizlari kecha va bugun. (XIX asr oxiri va XX boshi) – T.: Ijod dunyosi. 2004.
2. Abduraxmonov O.Boshqaruvi tizimi va rahbar. – T.: Akademika. 2004.
3. Aionova C.I. Организаторские способности как фактор эффективности управленческой деятельности. Вестник Бурятского Государственного университета. 2009.
4. Asmolov A.G. Психология личности: Учебник // А.Г.Асмолов. – М.: Изд-во МГУ. 1990.
5. Basakova M.E. Содействие в достижении равенства мужчин и женщин и расширение прав и возможностей женщин // Демоскоп. 2005.
6. Bizukova I.V. Кадры управления: подбор и оценка. – М.: ОАО. Изд-во: «Экономика». 1998.
7. Bobojanova D.B. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. – T.: Sharq. 1999.
8. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. Yangi asr avlod. –T.: 2016. ISBN 978-9943-08-164-2.

OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN PSIXOLOGIK ISHLARNING AHAMIYATI

D.Q.Sulaymanova, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi o'qituvchisi

Статья посвящена особенностям личности и интеллектуального развития детей, оставшимся без попечения родителей, роли психологических мероприятий в детских домах и интернатах, которая направлена на обеспечение полноценного психологического развития детей в этих учреждениях.

Ключевые слова и понятия: воспитание, приют, психокоррекция, обучение, арт-терапия, тимбилдинг, общение, игра, индивидуальность.

The article is devoted to the personality and intellectual development of children left without parental care, the role of psychological measures in orphanages and boarding schools, which is aimed at ensuring the full psychological development of children in these institutions.

Key words and concepts: education, shelter, psychocorrection, training, art therapy, teambuilding, communication, game, individuality.

So'nggi yillarda mamlakatda ijtimoiy yetimlikning oldini olish, aholi va yoshlar orasida sog'lom oila qurishga mas'uliyat bilan yondashishni targ'ib qilish, oilaviy qadriyatlarga ma'naviy-axloqiy munosabatni shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. UNICEF tomonidan rasmiy ma'lumotlarni global darajada o'rganish shuni ko'rsatadi, Sharqiye yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarida turli muassasalarda yashayotgan bolalar soni hamon yuqori bo'lib qolmoqda.

Ekspertlarning fikriga ko'ra, internat hamda Mehrbonlik uylari shaklidagi muassasalardagi bolalar sonini qisqartirish muhimdir. Buning uchun bolaning oilasiga yordam berish yoki zarur hollarda, muqobil oila vasiyligini ta'minlash kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4185-son "yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va tegishli rejada hukumat bolaning mehrbon va g'amxo'r oila sharoitida o'sish huquqini ta'minlashga sodiqligini yaqqol namoyish etadi.

yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy psixologik himoyasi bugungi kunda butun dunyonni tashvishga solayotgan muammoga aylanib bormoqda. Maxsus muassasalarda bolaning shaxsiy xususiyatlari va xulq-atvori shakllanish muammosi bilan bog'liq bolani joylashtirishning qulay sharoitlari va to'liq rivojlanishidagi imkoniyatlarining samarali shaklini ishlab

chiqish, ularning hayotini yaxshilash, shu bilan birga har tomonlama me'yorda rivojlanishi uchun zarur imkoniyatlarni yaratib berish, bolalarni barcha huquq va manfaatlarini himoyalashga, shuningdek, ularning psixologik sog'lom shakllanishlariga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlash masalasi keng amaliy ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Nafaqat O'zbekiston, balki hamdo'stlik davlatlarida qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan bolalarni umumtarbiyaviy muassasalarga topshirish va u yerda bolalarni jamoatchilik tarzida tarbiyalash, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib berish an'anasi keng joriy qilib kelinadi. Shunga muvofiq, jahon ilmiy dunyosi namoyondalari aynan mazkur muassasalarda bolalar yashaydigan sharoit va hayot tarzining ular ruhiyatiga nechog'lik ta'siri mavjudligini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlari natijasi yetim va ota-ona qarovisiz qolgan bolalarning o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi haqidagi ilmiy tasdiqlangan xulosalarning paydo bo'lishiga asos bo'lgan. Jumladan, mehrbonlik uyi kabi muassasalarda tarbiyalanayotgan bolalar va ularning to'liq oila tarkibida o'sib-ulg'ayib kelayotgan tengdoshlari to'liq rivojlanishi uchun olib borilayotgan pedagogik, psixokorreksion tadbirlarning salmog'i orasida katta tafovutlar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Ijtimoiy, otalik va onalik depravatsiyasi sharoitlarda ilmiy-uslubiy yondashuvlarning qay darajada sifatlari bo'lishidan qat'iy nazar mazkur tarbiya muassasalarini bitirib chiqayotgan bolalarning



hayotga moslashuvi va jamiyatga samarali integratsiyalashuvi jarayonida o‘ziga xos kemtiklikni yuzaga keltirayotgani bejiz emas. Chunki to‘liq va axloqan, ma’nан yetuk oilada o‘sayotgan bola uning zaminida mavjud bo‘lgan axloqiy me’yorlarni, ijtimoiy rol va munosabatlarni, xo‘jalik yuritish ko‘nikmalarini, kelgusi avlodni tarbiyalash malakalarini egallab boradi.

Jumladan, mamlakatimizda Mehrbonlik uylaridan tashqari alohida xalqaro tashkilot “SOS bolalalar mahallalari”, ya’ni “Balolarni muqobil parvarish qilish xizmatlari” ham faoliyat yuritmoqda. Balolarni muqobil parvarish qilish xizmatlari – balolarni oilaga o‘xshash muhitda aqliy, ruhiy va jismoniy jihatdan rivojanish, ularni milliy urf-odatlar asosida vatanga muhabbat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish ruhidagi tarbiyalashga shart-sharoitlar yaratadi. Xizmatlar bolalar hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish, ularni ijtimoiy himoya qilish, jamiyatga moslashuvini ta’minalash, mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘z kasblarini o‘zlarini tanlashlari va umumiyyi o‘ta ta’lim olishlarini ta’minalashga yordam beradi.

Muassasada bolalarga psixologik yordam berish, ularni ruhan sog‘lomlashtirish juda muhimdir. Chunki muassasa tarbiyalanuvchilar yetim, chin yetim, og‘ir nosog‘lom muhitda tarbiyalangan bolalardir. Ular bilan tizimli ishslash, ruhiyatini o‘rganish, psixologik jihatdan to‘laqonli rivojanishini ta’minalash, shaxs sifatida va intellektual rivojanish xususiyatlarini, ta’lim tarbiya jarayonidagi buzilishlarning psixologik sabablarni diagnostika qilish va unday buzilishlarni bartaraf etish uchun profilaktik tadbirlar o‘tkazish lozim. Muassasa psixologi bola hayotidagi ro‘y bergen fojianing bola psixik rivojanishiga ta’sir etishini susaytirish va tegishli psixologik metodlarni o‘tkazish orqali bola shaxsi progressiv shakllanishini ta’minalashi kerak. Muassasaga endigina qabul qilingan bolalar bilan psixolog doimiy, individual tarzda ish olib borishi talab etiladi. Shuningdek, tarbiyalanuvchilar orasidagi ijtimoiy muhitni yaxshilash hamda bolalarni psixologik sog‘lomlashtirish maqsadida turli trening mashg‘ulotlari hamda tadbirlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Chunki bunday tadbirlar tarbiyalanuvchilar ruhiy xolatiga o‘z ijobjiy ta’sirini ko‘rsatmay golmaydi. Bunday tadbirlar doirasiga:

- “Jamoani shakllantirish”. Jamoani shakllantirish treningi orqali muassasaga kelgan yangi tarbiyalanuvchilarining jamoaga va muassasaga moslashuv jarayoni nisbatan tezroq amalga oshadi.

- “Kim bo‘lmoqchiman”. Bunday trening bolalarda kelajakka bo‘lgan umid, shuningdek o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantiradi.

- “Stressni boshqarish”. Bunday trening “SOS ona” lar uchun amalga oshiriladi va ular hamda tarbiyalanuvchilarining stressli holatlardan chiqish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

- “Emotsional intellekt” treningi orqali bolalarda o‘z emotsiyalarini baholash hamda boshqarish shakllantiriladi.

- “Liderlik sifatlarini shakllantirish”. Ushbu trening orqali muassasa tarbiyalanuvchilar liderlik sifatlarini shakllantirish, o‘ziga nisbatan ishonchni uyg‘otish usullari bilan qurollantiriladi.

- “Quvnoq bellashuv”. Bunday bellashuvlarda tarbiyalanuvchilarning bilim darajasi oshadi, jamoa bo‘lib ishslash ko‘nikmasi shakllanadi, hamda bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi.

- “Art terapiya” usulidan tarbiyalanuvchilarining psixologik va ruhiy xolatlarini bilib olish hamda ulardagagi agressiya va stressni bartaraf etishda foydalanish mumkin.

Bundan tashqari bolalar bilan “ertak terapiya” (3-6 yosh), “musiqa terapiya”, tabiat qo‘yniga sayohat kabi mashg‘ulotlarni turli yosh davrlari bolalari hamda o‘smirlarga psixologik muammolarni yengishida amaliy yordam sifatida qo‘llash mumkin.

“SOS bolalar mahallalarida”gi muhit mehrbonlik uylariga qaraganda biroz farqlanadi. Chunki “SOS bolalar mahallalari”da har bir bola uchun alohida “SOS ona”lar va “SOS xola”lar shuningdek , har bir bolaning o‘z uyi va o‘z xonasi ajratilgan bo‘lib, bunday muhit bolaga deyarli uydagidek sharoitlar yaratilishiga asos bo‘ladi. Bundan tashqari, har bir uyda alohida bolalarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda “SOS ona”lar tomonidan nonushta, tushlik hamda kechki ovqatlar tayyorlanadi. Bunday muhit bolalarda oila, ona, opa-singil, aka-uka kabi rishtalarining hamda bolalarning oilaviy munosabatlarga kirishish ko‘nikmalarini shakllanishiga sabab bo‘ladi, kelajakda ijtimoiylashuviga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, yetim hamda ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ular bilan muntazam ravishda tizimli ishslash lozimdir. Zero, muassasa yetim va ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar bilan ijtimoiy hayot o‘rtasidagi ko‘prikdir. Muassasalarda yaxshi tarbiyalangan va katta hayotga tayyorlangan bolalar albatta ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnilarini topishlari shubhasizdir.

Adabiyotlar

1. Акимова М.Н. Организация работы с приёмными семьями. – Самара: 1998.
2. Asqarova U. Mehrbonlik uyi o‘smirlarida milliy g‘urumi tarbiyalashning pedagogik asoslari. Ped.fan.nomz. ...dis. – T.: 2001.
3. Axmedov D.K. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy himoyasi: huquqiy asoslari va takomillashtirish muammolari. Yur.fan.dok. ...dis. – T.: TDYuI, 2007.
4. Дзенушкайтэ С.А. Наш дом. – М.: 1987.
5. Ganieva M.X.Ijtimoiy ish asoslari. Metodik qo‘llanma.–T.: “CHASHMA PRINT”, 2010.
6. Иванова Н.П., Заводилкина О.В. Дети в приёмной семье: Советы начинающим родителям. – М.: 1993.
7. Котли П. Новые приёмные родители (первый опыт). – Новосибирск: 2000.

LOGOPEDIK MASHG‘ULOTLARDA DIDAKTIK O‘YINLARNI TASHKIL ETISHDA ART TEKNOLOGIYALARNING O‘RNI

I.Q.Sayfullayeva, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Maxsus pedagogika” kafedrasini o‘qituvchisi

В статье описаны виды художественных технологий, способы подхода логопеда к детям через дидактические игры, которые служат развитию речи детей.

Ключевые слова и понятия: арт технология, песочная технология, изотехнология, ребенок с дефектами речи, логопед, дидактическая игра, виды игр.

The article describes the types of artistic technologies, ways of approaching a speech therapist to children through didactic games that serve the development of children’s speech.

Key words and concepts: art technology, sand technology, isotechnology, child with speech defects, speech therapist, didactic game, types of games.



Defektologik xizmat

“Art texnologiya” atamasi ikkita so‘zning qo‘shilmasidan hosil bo‘lgan. “Art” inglizcha -“san’at”, “texnologiya” esa yunoncha - “thexnos” so‘zidan olingen bo‘lib, san’at, mahorat degan ma’noni anglatadi. Art texnologiya -bu bolalarni san’at orqali rivojlantirish demakdir. Art texnologiya -bu san’at va ijodkorlikka asoslangan psixoterapiyaning eng yosh va jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biridir. Bu diagnostika, tuzatish va shaxsning psixologik muammolarini davolashni o‘z ichiga oladi.

Art texnologiya – bu ijodkorlik va turli xil badiiy texnikalarni o‘z ichiga olgan psixoterapiyaning eng samarali usullaridan biridir. Art texnologiya yordamida tuzatish eng yumshoq va samarali hisoblanadi. Bu sizga ijtimoiy moslashuv muammolaridan tortib, bolalarning salohiyatini rivojlantirish bilan yakunlangan turli xil muammolarni hal qilishga imkon beradi. Art texnologiyaning asosiy maqsadi bolada o‘zini-o‘zi anglash va uning o‘zini namoyon qilish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

- Izotexnologiya - tasviriy san’at yordamida terapevtik ta’sir: rasm, modellashtirish, badiiy hunarmandchilik va hokazolar;

- musiqiy texnologiya - musiqani idrok etish orqali ta’sir o‘tkazish;

- ertaktexnologiya - ertak, masal, afsona orqali nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning nutqiga ta’sir o‘tkazish;

- dramatexnologiya- imkoniyati cheklangan bolalar o‘rtasida teatr pyesasini sahnalashtirishga o‘rgatish;

- qum texnologiya- qum orqali imkoniyati cheklangan bolalarning nutqi hamda bilish jarayonlarini rivojlantirishdan iborat;

- fototexnologiya- rasmga tushirish orqali imkoniyati cheklangan bolalarning psixologik holatini barqarorlashtirish, bolalarning diqqatini, nutqini rivojlantirish.

Yuqoridaq art-texnologiyalar imkoniyati cheklangan bolalarni ta’lim va ijtimoiy hayotga tayyorlashda korreksion ahamiyatga ega. Har bir turi bolani san’atga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Imkoniyati cheklangan bolalarni kasb tanlash haqidagi tushunchalarini kengaytiradi. Bolalarni eng asosiyi bilish jarayonlarni, ya’ni xotirasini, diqqatini, tasavvurini, tafakkurini shakllantirishga yordam beradi.

Logopedik mashg‘ulotlar jarayonida didaktik logopedik o‘yinlar orqali art-texnologiyalarni qo‘llash nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarning mustaqil faoliyati sifatida namoyon bo‘ladi va bu narsa unda ijodkorlik qobiliyatini belgilaydi. Logoped logopedik mashg‘ulotlar jarayonida tarbiyaviy vazifalar va bolalarning nutqini rivojlantirishda ularning imkoniyatlariga mos keladigan didaktik o‘yin va o‘yinchoqlarni tanlaydi, ularni o‘yinni o‘tkazishning turli usullari, qoidalari bilan tanishtiradi va bu qoidalarning bajarilishini nazorat qiladi.

Buyumlar haqidagi tasavvurlarni aniqlashtirish, taqqoslash malakalarini rivojlantirish uchun mashqlardan foydalaniлади. Logopedik mashg‘ulotlar jarayonida o‘yin va o‘yinchoqlar bolalarga erkin va mustaqil foydalanish uchun beriladi. Turli xil ranglar orqali bolalarning rang haqidagi tasavvurlari kengayadi, qum texnologiyasi orqali esa bolalarning mayda barmoqlar harakatchanligini rivojlantirishimiz mumkin. Logoped ularni turli harakat vositalari va logopedik o‘yin qoidalari bilan tanishtiradi.

Logopedik mashg‘ulotlarda didaktik o‘yinlarning har bir nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar uchun motor, sensor fikrlash kabi qator o‘yin vazifalarini keltirib chiqaradi. Masalan, bola halqlardan minora yasar ekan, ularning kichrayuvchi va kattalashuvchi ko‘lamini farqlay olishi yoki tuza olishi lozim.

Biroq nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar kattalar ko‘rsatgan harakat usullarini darhol o‘zlashtira olmaydilar, shuning uchun texnologik o‘yin topshiriqlarini sekin-astalik bilan berish, tarkib toptiriladigan ko‘nikmalarni esa uzoq muddat mashqlantirib

va mustahkamlab borish lozim. Logopedik mashg‘ulotlar jarayonida nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarni logopedik o‘yinlarga o‘rgatish o‘yining o‘zida kechadi. Logoped o‘yin davomida o‘yin qoidalarni tushuntiradi. Takroriy o‘yinlarda u qoidalarning har bir bola tomonidan bajarilishiga erishishi kerak. Logoped o‘yin mazmuni va qoidalarning o‘zlashtirilishi darajasiga qarab, nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarga mustaqil tarzda o‘ynashga imkon beradi, o‘zi esa o‘yinni kuzatib boradi, qiyinchilik tug‘ilgandagina unga aralashadi. Logoped logopedik mashg‘ulotlarda bolalarni o‘yin bilan tanishtirar ekan, ularga bir-ikki muhim qoidanining mohiyatini ochib beradi. Qolgan qoidalarni va o‘yin harakatlarini o‘yin davomida aniqlashtiradi.

Logopedik mashg‘ulotlarda barcha mashg‘ulotlar kabi o‘yin faoliyati ham bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgandir. Shu bilan birga nutq nuqsonlarini bartaraf etishga qaratilgan korreksion maqsadlarni ko‘zlaydi. Logopedik mashg‘ulotlarda logopedik o‘yinlar nutqi o‘quv bilish, mehnat, tasviriy faoliyatining yuzaga kelishiga ta’sir eta borib, bola shaxsini har tomonlama tarbiya etishning muhim vositasiga aylanadi. Logopedik o‘yinlarning bolalarning kundalik hayoti, mehnati, bilim olishi bilan o‘zaro uzviy aloqasi maxsus bog‘chalarda tarbiyalashning o‘ziga hos jihatni sifatida namoyon bo‘ladi. Logopedik o‘yinlarni tashkil etishda ko‘rgazmalilik prinsipi samaralidir, bu mashg‘ulotlar jarayonida maktabgacha ta’lim yoshidagi nutqi to‘liq rivojlanmagan bolaning ko‘rgazmali-harakat va ko‘rgazmali-obrazli tafakkurini belgilaydi. Uning ahamiyati maktabgacha ta’lim yoshidagi bolaning asosiy mazmuni o‘yin faoliyati orqali bilimga ega bo‘lish, ijtimoiy hayot hamda tabiat hodisalarini bevosita idrok etish, kattalar harakatlarini kuzatishdan iborat. Vozelikning o‘zi asosiy ko‘rgazmalilik materiali sifatida xizmat qiladi. Ko‘rgazmalilik asosida o‘yin jarayonida foydalaniladigan buyumlar (hayvonchalar, rasmlar va boshqalar) yangi predmentlar haqida batafsil aniq tasavvurni shakllantirishga imkon beradi..

O‘yin jarayonida logoped bolalar faolligi va mustaqilligining nisbiy tabiatlilagini ham ta’kidlab o‘tishi lozim: ular o‘qitishning, tarbiya berishning metodi va usullari hamda mazmuni bilan ta’minlanadilar. Logoped ularga shakllantiruvchi ta’sir o‘tkazib turadi. Logopedik mashg‘ulotlar jarayonida logopedik o‘yinlarni tashkil etishda bolalarning kundalik hayoti va faoliyati bilan bevosita bog‘liqligi (mehnat, muloqot, ta’lim bilan) mustaqillik prinsipini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, logopedik mashg‘ulotlar jarayonida logopedik o‘yinlarni tashkil etishdan asosiy maqsad bolalarning nutqini, tafakkurini, idrokini, diqqatini, bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish uchun mashq qilishidir.

Bolalar faoliyklari, nutqi, idrok va xotiralarining tezkorligi, umumiy ish qobiliyati darajasiga ko‘ra ham farqlanadilar. Logoped buni hisobga olgan holda o‘z diqqatini tortinchoq, sekin o‘zlashtiradigan bolalar harakatini o‘yin jarayonida oshirishga va ularga dalda berishga qaratadi. Buning uchun u bunday bolalar bilan yo‘llanma berish ishlarni olib boradi. O‘yin qoidalarni tushuntirib beradi, o‘yin yo‘llarini qayta ko‘rsatib berib va ularning eng kichik muvaffaqiyatini ham maqtab qo‘yadi, izohli baholaydi. Logoped asta-sekin bunday bolalarning vazifalarini umumiy tarzda hal etishga – ularni faol ishtiroy etishga o‘rgatadi. Vazifalar hajmini turli bolalar uchun turlicha taqsimlashi ham mumkin. Turlicha rivojlanish sur‘atiga ega bo‘lgan bolalarga alohida individual yondashish kundalik hayotidagi alohida-alohida logopedik korreksion ishlarni bilan to‘ldirilib boriladi.

Logopedik mashg‘ulotlar jarayonida nutqi to‘liq rivojlanmagan maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar uchun quyidagi logopedik o‘yin turlaridan foydalanish mumkin.

1. Hayvonlar, qushlar va ularning harakatini ifodalovchi



- o'yinlar.
2. Meva va sabzavotlarni o'rganishga oid o'yinlar.
 3. Mevalarni umumlashtirishni o'rganishga doir o'yinlar.
 4. Idish tovoqlar va oziq-ovqatlar mahsulotlarini o'rganishga doir o'yinlar.
 5. Oila a'zolarini o'rganishga oid o'yinlar.
 6. Tana a'zolari bilan tanishishga oid o'yinlar.
 7. O'z uylari, manzillarini o'rganishga oid o'yinlar.
 8. Hisoblash malakalarini oshirishga oid o'yinlar.
 9. Yil fasillarini o'rganishga doir o'yinlar.
 10. Ranglarni ajratishga doir o'yinlar.

"Qu-mdagi shakllarni top"

Maqsad: Teri taktik analizatoriga ta'sir qilib sezgini kuchaytirish, geometrik shakllar yordamida mayda motorikani rivojlantirish, shakllarni yodlash.

Kerakli jihozlar: Maxsus qum solingan idish, geometrik shakllar

Bajarilish tartibi:

1. Bolajonlarga mashg'ulotni qay tartibda bajarish kerakligini tushuntirib o'tamiz.

2. Qum solingan idishga geometrik shakllarni yashirib qo'yamiz, bolajonlar qum idishga qo'llarini solib shakllarni izlaydi.

3. Topgan shakllarini nomini aytib chiqadi: uchburchak, to'rburchak, doira, kubik, oval, silindr.

"Qorbobo" rasmini chizish

Kerakli jihozlar: Oq qog'oz, qalam, rangli bo'yoqlardan: guash, akvarel bo'yog'i, rangli qalamlar, o'chirg'ich va qorbobo rasmisi


Bajarilish tartibi:

1. Bolajonlarga qorbobo rasmini qanday ketma-ketlikda tartib bilan chizishni o'rgatamiz.

2. Qorbobo rasmini chizishda qanday bo'yoqlar ranglar kerakligini tushuntiramiz.

3. Qorbobo haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tamiz.

4. Qorbobo rasmini oddiy shakl orqali ketma-ketlikda birgalikda chizamiz.



5. Qorbobo mavzusiga oid so'zlarni bolaning lug'atiga kiritib, ular yordamida gap tuzamiz.

Qorbobo rasmini chizish vaqtida bolajonlar mayda qo'l motorikasi rivojlantiriladi va so'z boyligi oshadi.

Адабиётлар

1. Картушина М.Ю. Логоритмические занятия в детском саду. – М.: 2004.

2. Филичёва Т.Б. Особенности формирования речи детей дошкольного возраста. – М.: 2000.

3. Медведева Е.А. Артпедагогика и арттерапия в специальном и инклюзивном образовании: учебник для академического бакалавриата – М.: Издательство Юрайт, 2018.

МАКТАВ О'QUVCHILARIDA TAJOVUZKORLIK HISSI SHAKLLANISHINING YOSH DINAMIKASI

R.O.Begmatov, Navoiy davlat pedagogika instituti, "Umumiy psixologiya va pedagogika" kafedrasи katta o'qituvchisi

В данной статье раскрываются психологические особенности формирования чувства агрессии у школьников с помощью современных психологических подходов. Анализируется влияние возраста и индивидуально-психологических факторов на формирование чувства агрессии у школьников, также подробно описывается взаимосвязь между чувством агрессии и эмоциональными состояниями.

Ключевые слова и понятия: агрессия, читатель, психологическая черта, влияние, эмоциональное состояние, индивидуальность.

This article reveals the psychological features of the formation of a sense of aggression in schoolchildren with the help of modern psychological approaches. The influence of age and individual psychological factors on the formation of a sense of aggression in schoolchildren is analyzed, and the relationship between a sense of aggression and emotional states is also described in detail.

Key words and concepts: aggression, reader, psychological trait, influence, emotional state, individuality.

Respublikamizda zamonaviy ta'lim sharoitida o'quvchilar jamoasi o'quv faoliyatini diagnostika qilish mexanizmlari va hamkorlikka asoslangan o'zaro munosabatlardan tizimini yanada takomillashtirish, ularda kommunikativ ko'nigmalar va shaxslararo munosabatlarga bo'lgan kompetensiyalarni rivojlantirish, o'quvchilar guruhida jamoaviy faoliyatga qadriyatli munosabat tarkib topganligini taddiq etish jihatlarini yanada takomillashtirishning huquqiy-me'yoriy asoslarini

yangicha tus oldi va uning moddiy-texnik bazasi boyitildi.

Zamonaviy jamiyat insoniyat uchun ko'plab imkoniyatlar eshidigini ochgan bo'lsada, biroq u insoniy munosabatlardan tizmida o'ziga xos o'zgarishlarga ham sabab bo'lmoqda. Yangi muhit, yangi munosabatlardan, hamkorlikdagi ishlash imkoniyatlari, insonlarning aqliy imkoniyatlari, atrof-muhit ta'sirlari, organizmning tabiiy imkoniyatlari kabilalar kishilar o'rtasida o'ziga xos xulq-atvor shaklini yuzaga keltirmoqda.



Garchi, tajovuzkor xulq hayvonot olamiga xos xulq-atvor shakli bo'lsada, biroq insoniyat ham bu xatti-harakatlardan xoli emasdir.

V.M.Alfimirovning yozishicha, tajovuzkorlik hissi - boshqalarga qaratilgan isyonkor mazmundagi xulq-atvor shakli sanalib, u qator salbiy hissiy kechimmlar, g'azab hissi, nafrat hissi, beqaror kayfiyat, noadekvat g'oyalar, ma'naviy va jismoniy zarar yetkazish kabi jihatlar bilan xarakterlanadi [1]. Shu bois, "tajovuzkorlik" va "agressiya" tushunchalarining ma'nolarini aniqlab olish o'ta muhim hisoblanadi. Tilshunos olim A.Madvaliev tahriri ostida chop etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" kitobida qayd etilishicha, agressiv xulq (aggressio) – bu tajovuzkorlikka asoslangan, hujumkor ruhdagi shaxsning salbiy harakatidir" [2].

Amerikalik tadqiqotchi X.K.Alvarez o'quvchilarda tajovuzkorlik hissi va tajovuzkor xulq-atvor shakllanishining murakkabligi va ko'p qirralilagini hisobga olgan holda tadqiqotchilar ko'plab ta'riflarni taklif qilishlariga qaramay, hozirgi vaqtida ularning hyech biri to'liq va umumiyligi qo'llanilmasligini ta'kidlaydi [3]. A.P.Goldshteynga ko'ra, "tajovuzkorlik" deganda shaxsning harakat yoki harakatsizligi tushuniladi, uning maqsadi atrofdagi dunyoga (odamlarga, hayvonlarga, narsalarga) qasddan zarar yetkazish, ochiq (tajovuzkor xatti-harakatlarda tashqi ifodalangan) yoki yashirin (agressiv kayfiyat, tajovuzkor niyatlar, fantaziyalari) ko'rinishlarda namoyon bo'ladi [4]. F.Rayning fikricha, agressiv xulq-atvor tajovuzkorlikning ochiq tashqi ko'rinishi bo'lib, u atrof-muhit sharoitlariga reaksiya, yetarlicha uzoq yoki davriy ravishda namoyon bo'ladi va tashqi dunyoga zarar yetkazishga qaratilgan bo'ladi. Agressiv xulq-atvor tajovuzkor harakatlar majmuasidan, shuningdek, tajovuzni ifodalovchi yagona xulq-atvor harakatlaridan iboratdir [5].

L.Berkovisning qarashlariga ko'ra, o'quvchilik davridagi tajovuzning xususiyatlarini ko'rib chiqishda, avvalo, tajovuzkorlik shaxsiy xususiyat sifatida e'tiborga olinishi lozim. Har qanday yosh davridagi tajovuzkor xatti-harakatlarning xususiyatlarini rivojlanishning oldindi bosqichlaridan ajratib bo'lmaydi, chunki ular bir kechada paydo bo'lmaydi, balki shaxsiyatning shakllanishi bilan bevosita bog'langan bo'ladi [6]. S.Groffning ta'kidlashicha, tajovuzkor xatti-harakatlarning xususiyatlari bola tug'ilishidan oldin ham shakllana boshlaydi [7]. Homiladorlikning borishi, bolaning ota-onalari, ayniqa ona uchun istalmaganligi - bularning barchasi, perinatal psixologlarning fikriga ko'ra, kelajakda bolada qanday shaxsiy xususiyatlar (shu jumladan tajovuzkorlik) rivojlanishi bilan bog'liq iz qoldiradi. Shuningdek, muallif shaxsning tajovuzkorlik darajasini tug'ilish jarayoni qanday sodir bo'lganligi bilan bevosita bog'laydi. Shaxsda tajovuzkorlik hissining shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash ontogenezinining har bir davrini tahlil qilishni taqozo etadi. J.Xudziakning ta'kidlashicha, bola hayotining dastlabki davrida (3 yoshgacha) tajovuz biologik jihatdan aniqlanadi va rivojlanishning ushbu nozik davriga xos bo'lgan turli xil frustratorlar tomonidan qo'zg'atiladi - mehr, e'tibor, ona bilan tana aloqasi, himoya, bolaning fiziologik ehtiyojlariga e'tibor bermaslik (hayotning birinchi yili) va mustaqillikka intilish, "o'zini o'zi tutish" (hayotning ikkinchi yildan boshlab). Tajovuzkorlik, shuningdek, "istak" va "kerak" o'rtasidagi shaxsiy ziddiyat tufayli ham paydo bo'lishi mumkin. E.Eriksonning epigenetik nazariyasiga ko'ra, insonning dushmanligi hayotning birinchi yilda dunyoga asosiy ishonchning shakllanmaganligi

oqibatidir. 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan tajovuz tabiatan asosan instrumentaldir, ko'pincha u to'g'ridan-to'g'ri va jismoniy bo'ladi. A.L.Trifonovning fikricha, 3-7 yoshli bolalarning tajovuzkorligi ijtimoiy ma'noga ega bo'ladi. Rivojlanishning ushbu bosqichida tajovuzkorlik eksponentlari sifatida quyidagi keltirish mumkin:

- To'liq bo'lmagan yoki begona oila;
- Sovuq munosabatlarga (nosog'lom) ega bo'lgan oila;
- Bolalar jamoasiga qo'shila olmaslik yoki mos kelmaslik;
- Bolaga ijtimoiy-psixologik rag'batning yo'qligi.

Tajovuzkorlik, shuningdek, ma'lum bir yoshga xos bo'lgan frustratorlardan kelib chiqishi mumkin: mustaqillik, erkinlik, sevgi va boshqalarni tan olish ehtiyojidan umidsizlik ta'sir etishi mumkin.

Amerikalik tadqiqotchi S.D.Makmekson, o'smirlik yoshidagi odamlar holatlarning yarmidan ko'pida ekstrapunitiv reaksiyalarni va deyarli ikki baravar kamroq - intrapunitiv va jazosiz reaksiyalarni namoyon etishini aniqlaydi. Frustrasiyaning (tajovuzkorlik) ekstrapunitiv shakli asab tizimi kuchli bo'lgan yigit va qizlarga, intrapunitiv shakli esa kuchsizlarga xosdir [8]. Tadqiqotchi R.Tomas shuningdek, intellektning oshishi bilan reaksiyaning ekstrapunitiv shakllari kamdan-kam uchraydi va jazolash holatlari tez-tez uchraydi, degan xulosaga keladi. Shunday qilib, o'quvchilik davri tajovuzkorligining paydo bo'lishida umidsizlikning rolini qayd etib, uning biologik omillar bilan ham, yigit yoki qizning aql-zakovati bilan ham bog'liqligini qayd etamiz. Bir qator mualliflar talabalik davri tajovuzkorligini hissiyotlar bilan bog'laydilar.

A.O.Proxorovning yozishicha, o'quvchilar qo'rquv va g'azabni tez-tez boshdan kechirishga moyil bo'lib, bu ularning tajovuzkor reaksiyalariga ta'sir qiladi. Ushbu yosh davrini tajovuzning biologik nazariyalari nuqtai nazaridan ko'rib chiqsak, shuni ta'kidlash mumkinki, o'quvchining tajovuzkorligi o'smir yoki bolaning tajovuzkorligiga qaraganda biologik sabablarga ko'ra kamroq aniqlanadi. L.M.Semenyukning qayd etishicha, o'smirlik davrida yuzaga keladigan identifikasiya inqirozi o'spirinlik tajovuzkorligi va tajovuzkor xatti-harakatlarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotchining fikricha, bu inqiroz holatida inson o'zining kimligini tushuna olmaydi. U o'z identifikasiyalarini sanab o'tishi mumkin, ammo ularni birlashtirgan hissiy yadro yetishmaydi.

Umuman olganda turli xil qarashlar, yondashuvlar va konsepsiyalarni tahlil qilish asosida xulosa qilishimiz mumkinki, birinchidan, o'quvchilik davridagi tajovuz psixofiziologik va ijtimoiy sabablarning murakkab majmuasi bilan yuzaga keladi. Biz bu yoshda tajovuzkorlik va tajovuzkor xatti-harakatlarning asosiy sabablarini yangi hayotiy vaziyatga moslashish bilan bog'liq stress-frustrasiya holatida, shuningdek, ijtimoiy moslashuv va noto'g'ri ijtimoiy ko'nikmalarda ko'ramiz. Ikkinchidan, o'g'il va qiz o'quvchilarining tajovuzkorligi va tajovuzkor xatti-harakatlari o'quv va kasbiy faoliyatni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyat bilan chambarchas bog'liq, chunki o'rganilayotgan yosh davrida aynan shu faoliyat turi yetakchi hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Алфимова М.В. Психогенетика агрессивности / М.В. Алфимова, В.И. Трубников // Вопросы психологии. - 2000. - №6.



2. Madvaliev A. O'zbek tilining izohli lug'ati (80 000 ortiq so'z va so'z birikmasi) – T.: 2006 - 2008 yy.
 3. Alvarez H. K. The impact of teacher preparation on responses to student aggression in the classroom //Teaching and Teacher Education. – 2007. – T. 23. – №. 7.
 4. Goldstein A. P., Harootunian B., Conoley J. C. Student aggression: Prevention, management, and replacement training. – Guilford Press, 1994.
 5. Райе Ф. Психология подросткового и юношеского
- возраста // Мастера психологии. – СПб.: Питер, 2000.
6. Берковиц Л. Агрессия: Причины, последствия и контроль. – СПб.: 2001.
 7. Грофф С. За пределами мозга. – М.: Институт трансперсональной психологии, Издательство Института Психотерапии, 2000.
 8. McMahon S. D. et al. Student verbal aggression toward teachers: How do behavioral patterns unfold? // Psychology of violence. – 2020. – T. 10. – №. 2.

OG'IR NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALARDA NUTQ NUQSONINI BARTARAF ETISHDA MAYDA QO'L MOTORIKANING ROLI

M.Mamatova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Дизартрия – тяжелое расстройство речи, при котором она становится невнятной. В данной статье подчеркивается значение мелкой моторики в устраниении дизартрии.

Ключевые слова и понятия: дизартрия, речь, тяжелое расстройство, моторика руки, коррекция, занятия, стертая дизартрия.

Dysarthria is a severe speech disorder in which it becomes slurred. This article emphasizes the importance of fine motor skills in the elimination of dysarthria.

Key words and concepts: dysarthria, speech, severe disorder, hand motility, correction, exercises, erased dysarthria.

Har bir inson farzandining har tomonlama barkamol, sog'lom, el koriga yaraydigan farzand bo'lib voyaga yetishini istaydi. Ma'lumki, bizning millatimiz bolajonligi bilan bir qatorda o'z nasli, farzandlarining kelajagi uchun sidqidildan jon kuydiradigan xalqdir. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, butun dunyoga dong'i ketgan allomalarimiz – Abu Nasr Farobi, Al Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Alisher Navoiy kabi bobolarimizning diqqat markazida ham bola tarbiyasi va uning salomatligiga qayg'urish turganligini ko'rish mumkin. Zero, komil farzand - millat kamolotini belgilaydigan omillardan biri ekanligi haqidagi qarashlar bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmaganligi bilan qimmatlidir. Nutq ham insondonning hayotda o'z o'rnni topishi, ijtimoiylashishini belgilovchi omillardan biri sanaladi. Chunki, aynan nutq orqali inson muloqot qiladi, atrof olamni anglaydi, bilim oladi, o'z fikrlarini bildiradi. Shunday ko'p funksiyalarini o'zida jam qilgan nutqning rivojlanishi insondonning jismoniy va ma'nnaviy tomondan rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq.

Maktabgacha yoshdagi bolalar orasida nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar boshqa nuqsonga ega bo'lgan bolalardan ko'proq. Bugungi kunda nutq nuqsonlarining orasida ayniqsa yengil darajadagi dizartriya keng tarqalganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Dizartriyaning yengil shakli ko'pincha adabiyotlarda dizartriyaning minimal ko'rinishlari sifatida namoyon bo'ladi. So'nggi paytlarda mutaxassislar, ko'pgina bolalarda besh yoshga kelib ona tilidagi tovushlar talaffuzi tovushlar me'yoriga mos kelmasligini ko'rsatishmoqda. Tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar qo'pol ifodalanmagan bo'lishiga qaramasdan, lug'at va grammatic qurilma me'yordan pastdir, bunday bolalarning nutqiy anamnezi o'ziga xosligi bilan xarakterlanadi hamda maktabda o'qish va yozishida qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Birinchi so'zlar bir qancha orqada qolish bilan ifodalanadi, maktabgacha yoshida nutqning grammatic qurilishida xatolar kuzatiladi.

Bunday bolalarda og'zaki nutqning prosodik tomoni sust rivojlanishi xarakterlidir. Hikoya qilishda, matn va she'rlarni

o'qish davomida intonatsiya deyarli ifodalanmaydi, bu esa alohida iboralarni qo'shilib ketishiga olib keladi hamda bunda ifodalashning intonatsion yakuni yo'q bo'lib ketadi. Bu guruh bolalarga og'zaki nutqning tempo-ritmik buzilishi xosdir [1].

Nutqining tovush jihatidan me'yordan qo'pol orqada qolishlari kuzatilmasligiga qaramasdan, puxta o'tkazilgan logopedik tekshirish ushbu nuqsonlarni dizartrik xarakterini o'rnatishga imkon beradi hamda ularni markaziy nerv tizimining organik jarohatlanishi bilan bog'laydi.

Yengil dizartriyali bolalar anamnezi homila vaqtida hamda tug'ruq vaqtida qandaydir asoratlar borligini ko'rsatadi. Birinchi bor yig'lab qichqirishi ko'pincha qisqa va jarangsiz bo'ladi. Gugulash davri ko'pgina bolalarda o'z vaqtida sodir bo'ladi. Biroq tovushlarning repertuari hamda ularning intonatsiyasi chegaralangan. Artikulyasion, mimik va qo'l muskullaridagi mushaklar tonusi tabiiyki bir qancha past bo'ladi. Til bo'shashgan, spastik harakatlari sezilarli darajada chegaralangan. Tilning ildiz qismida tortishishlar kuzatiladi, tilning uchi yetarlicha ifodalanmagan. Og'izni ochish vaqtida til bir oz ichkariga tortiladi, bunda bir oz notinchligi ifodalanadi. Ba'zida tilni harakatga keltirishga harakat qilinsa u ingichka bo'lib oladi. Yengil dizartriyaning o'ziga xosligi shundaki, ba'zi bolalarning til muskullarida turli xil tortishishlar kuzatiladi, masalan til ildizi muskullarining yuqori tonusida tilning yon tomoni, bir tomoni yoki uchi tonusining pasayishi kuzatilishi mumkin.

Bolalarning motorikasi ancha sust rivojlanadi, u harakatlarining egiluvchanligi va nozikligini pastligi bilan farqlanadi [2]. Harakatlarning aniqlligi buzilgan bo'ladi, ayniqsa, qo'l harakatlari buzilgan. Tekshiruv davomida turli xil xarakterdagи dispraksiya kuzatiladi.

Nutqning rivojlanishi me'yordan bir qancha orqada qoladi. Birinchi so'zlar bir yarim yoshdan, iboralar esa, uch yoshdan paydo bo'ladi. Yengil dizartriyaning asosiy belgilari korreksiyanı qiyin amalga oshiruvchi tovushlar talaffuzining turg'un buzilishini ko'rsatadi. Dizartriyaning yengil turida tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar xarakterlidir: sirg'aluvchi va



shovqinli tishlararo sigmatizm, sirg‘aluvchi va shovqinli yon tomonlama sigmatizm, rotatizm, lyambdatsizm.

Ko‘pincha til uchining nozik harakatlarini talab etuvchi tovushlar buziladi. Ba’zi bolalarda yengil dizartriya “r” talaffuz etishdagi nuqsonlar bilan ifodalanadi. Sirg‘aluvchi va shovqinli “sh”, “j”, “s”, “z” talaffuz etish murakkab patologik artikulyasiya kombinatsiyalari bilan birqalikda keladi, bu esa sirg‘aluvchi yoki shovqinli tovushlar guruhini tishlararo hamda yon sigmatizm birqalikda kelishiga olib keladi [2].

Fonematik idrokning buzilganligi og‘zaki nutqda tovushlarni buzib talaffuz qilinishi yoki tovushlarni yo‘qligiga taalluqli bo‘ladi. Dizartriyyada fonematik idrokning o‘ziga xosligi shundaki, bolalar o‘zgalar nutqidagi tovushlar talaffuzidagi nuqsonlarni sezadilar, lekin o‘zlarinikini sezmaydilar.

Dizartriyaning dislaliyadan farqli ravishda o‘ziga xos belgilari shundaki, alohida avtomatizatsiyalangan tovushni so‘zga, shuningdek bog‘langan nutqga tez kiritilsa uning talaffuzi yana buzilib chiqadi [3].

Bunday bolalarning ovozi xirillagan, ba’zida bo‘g‘ilgan bo‘lib chiqadi, nutq tempi ko‘pincha tezlashgan. Nutq jarayonida bo‘g‘in va so‘zлarni talaffuz etish ketma-ketligining buzilishi bilan bog‘liq aritmiya kuzatiladi. Nutqiy talaffuz yetarlichcha aniq emas, og‘izda so‘laklar yig‘ilib boradi. Avtomatik yutish kechroq shakllanadi (asosan korreksion yordam orqali).

Nutqda ifoda, iboralar orasida pauzalar kuzatilmaydi. Nutqiy nafas rivojlanishi orqada qolgan. Bog‘langan nutqda qo‘shimcha nafas olinadi, shunga ko‘ra assossiz pauzalar paydo bo‘ladi. Bunday bolalar psixik rivojlanishining o‘ziga xosligi shundaki, ular fazoviy mo‘ljalni aniq ola olmaydilar. Ko‘pgina bolalar ranglarni aniq ajrata olmaydilar, diqqati yetarlichcha turg‘un emas [3].

Dizartriya nuqsonlari yaqqol ifodalangan bolalardan farqli dizartriyaning yengil shaklidagi bolalarning ko‘pchiligidagi tovushlar talaffuzidagi nuqsonlarini logopedik yordam yetarlichcha samarali korreksiyalay oladi. Ushbu guruhdagi barcha bolalar ommaviy maktabga ta‘lim olishga yo‘naltiriladi.

Biroq anamnezida yengil dizartriysi bo‘lgan bolalar nutqiy rivojlanishning murakkab bosqichlariga o‘tish davrida yozish va o‘qish shakllanishida qiyinchiliklar kuzatiladi. Maktab ta‘limining birinchi yillarda bunday bolalarni tekshirish jarayonida harakat, ritmik qurilishida nuqsonlar, statik va dinamik dispraksiya, nutqning prosodik tomonining rivojlanishi yosh me‘yorlariga mos emasligi kuzatiladi.

Ko‘pchilik mutaxassislar tomonidan nutqni rivojlantrishda mayda ko‘l motorikasining ahamiyati haqida turlicha fikrlar bildirilgan. Mayda qo‘l harakatlarini rivojlantrishda hozirgi kunda noan‘aviy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bosh miya faoliyatini o‘rgangan olimlar qo‘l harakatlari miya faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatishini ta‘kidlashadi. Bolalar va o‘smlar fiziologiyasi Institutining olimlari bolalar nutqning rivojlanishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri mayda qo‘l motorikalarining rivojlanganligi bilan bog‘liq ekanligini isbotlashgan [2].

Olib borilgan tajribalar va bolalarni tekshirish natijalari, bolalarda mayda qo‘l motorikasining yaxshi rivojlanganligi nutqning rivojlanishiga samarali ta’sir etishini ko‘rsatgan. Agar qo‘l harakatlari yaxshi rivojlanmagan bo‘lsa, umumiy motorika yaxshi rivojlangan bo‘lishiga qaramasdan, nutqning rivojlanishi to‘laqonli bo‘lmaydi.

Artikulyasion mashqlarni qo‘l harakatlari bilan birqalikda bajarish tajribasi nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlash jarayonida o‘zining samarali ekanligini isbotlagan.

Mashqlar quyidagi imkoniyatlarni beradi:

1. Bolalarning bosh miyasidagi nutq maydonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, nutqning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.
2. Nutq bilan bog‘liq bo‘lgan barcha bilish jarayonları: diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur va boshqalarni rivojlantiradi.
3. Harakatlarning aniqligi, ravonligi, mutanosibligi, o‘z-o‘zini boshqarish va bir harakatdan ikkinchisiga o‘tish takomillashadi.

4. Qo‘l harakatlari koordinatsiyasi rivojlanib, bo‘lajak o‘quvchida yozuv ko‘nikmalar shakllanadi.

5. Bolalarni mashq‘ulotlarda faol bo‘lishlari ta’minlanadi.

6. Har bir mashq artikulyasion a’zolarni faollashtirishi natijasida tovushlar talaffuzi rivojlanishi kuzatiladi.

Mashqlarning bajarilishiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- Bolalarning imkoniyatlarni hisobga olgan holda, bir vaqtda artikulyasion va qo‘l harakatlarini aniq bajarilishini o‘zlashtirib olnunlariga qadar, mashqlar oz- ozdan berib boriladi.

- Mashqlarni tik turgan yoki o‘tirgan holda bajarish maqsadiga muvofiq.

- Asosiy avvalgi holat: bosh to‘g‘ri tutilgan, lab va tishlar birlashgan, og‘iz yopiq, qo‘llar tirsakdan ko‘krak qafasi darajasida bukilgan.

Nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar korreksion logopedik ishlarning samaradorligini oshirish bu toifadagi bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirib, ularning barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishishiga poydevor bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Ayupova M.Yu “Logopediya” darsligi – T.: 2007.

2. Кольцова М.М “Двигательная активность и развитие функции мозга ребёнка” Под. редак. .М.М Алексеевой, В.И.Яшиной. 1999.

3. Архипова Е.Ф. “Стертая дизартрия” Астель 2007.

MOTOR ALALIYANI BARTARAF ETISHDA NOAN’ANAVIY ARTIKULYATSION GIMNASTIKADAN FOYDALANISH

D.S.Nabiyeva, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Logopediya” mutaxassisligi magistranti

В данной статье представлены приемы нетрадиционной артикуляционной гимнастики, применяемые при коррекции дефектов речи у детей с моторной алалией.

Ключевые слова и понятия: коррекционные занятия, логопед, речь, развитие личности, нарушение речи, алалия, артикуляционная гимнастика, нетрадиционная технология.

This article presents the techniques of non-traditional articulatory gymnastics used in the correction of speech defects in children with motor alalia.

Key words and concepts: remedial classes, speech therapist, speech, personality development, speech impairment, alalia, articulation gymnastics, unconventional technology.



Hozirgi kunda nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar sonining ko‘payishi kuzatilmoqda, ayniqsa bu nutq nusqonlari orasida motor alaliya nutq nuqsoni ko‘plab uchramoqda. Motor alaliya – eshitish qobiliyati va intellekt normada bo‘lgan holatda ekspressiv nutqning buzilishi bilan namoyon bo‘luvchi nutq nuqsonidir.

R.Koen, M.Zeeman, R.Luxzinger, A.Saley kabi olimlar tomonidan alaliyaning paydo bo‘lishiga ta’sir etuvchi omillar o‘rganilgan. Ular bu borada irlisyatning rolini ta’kidlaydilar, ya’ni biror salbiy irlisy omil natijasida miya rivojlanishi sekinlashuvi ro‘y beradi.

Alaliyalı bolalarda nutq apparatining nozik harakat koordinatsiyalari shakllanmaydi. Nutq harakat analizatorining anotomik-sintetik buzilishlari turli ko‘rinishlarga ega: oral apraksiya, ketma-ketlikning buzilishi va hokazo. Bunda kerakli artikulatsiya holatini izlash, ma’lum bir artikulatsiya harakatini bajara olmaslik, ketma-ketlikni egallashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu hollarda nutqiy artikulatsiya buzilishlarini belgilovchi harakat buzilishlari yetakchi o‘rin egallaydi. Shuningdek, kinetik va kinestetik apraksiyalar oqibatida nutqning fonetik va fonematisk tomonlarida kamchiliklar kuzatiladi. Nutq apparatidan bosh miya po‘stlog‘iga boruvchi kinestetik impulslar bilan bog‘liq artikulatsiya harakatlari normal sharoitda tovush tahlili va tavsifi jarayonida muhim o‘rin egallab, so‘zning tovush tarkibini aniqlash, kerakli tovush ketma-ketligini saqlashga yordam beradi. Alaliyada esa bola so‘zning kerakli tovush ketma-ketligini aniqlashga qiynaladi, bir so‘zni ikkinchi bir so‘z bilan almashtira olmaydi. Bu esa parafaziyaning ko‘payishiga, asosiy sabab jarayonlarining harakatchanligining buzilishlaridan dalolat beruvchi kamchiliklar, ya’ni perseveratsiya va h.k. qo‘zg‘alish va tormozlanish o‘chog‘idagi kamchiliklarga olib keladi. Buning natijasida esa, bolada eshitish va nutqni tushunish yetarligi saqlangan holda, nutqnini mustaqil rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi artikulatsiya muskulaturasining parez va lab paralichlari kuzatilmaganda, nutq mustaqil ravishda rivojlanmaydi, uzoq vaqtgacha u ayrim tovushlar talaffuzi bilan cheklanadi [1].

Yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda, motor alaliyani korreksion ish jarayonida artikulyatsion gimnastika mashqlarini qo‘llash ancha ijobji samara beradi.

Artikulyatsion motorika ko‘nikmalarini shakllantirishning asosiy usuli – bu artikulyatsion gimnastikadir. Artikulyatsion gimnastika – bu artikulyatsion apparat mushaklari ishimi mustahkamlashga yordam beruvchi korreksion mashq jarayonidir. Boshqacha qilib aytganda, artikulyatsion gimnastika – bu defektologlarning tasavvuri va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish sohasidir, sababi u artikulyatsion apparat a‘zolarini tovushlar postanovkasi jarayoniga tayyorlovchi va bolalarning tasavvuri, diqqatini rivojlantiruvechi mashqlar majmuidir [2].

Logopediya sohasidagi ko‘plab mutaxassislarining kuzatishlariga ko‘ra, an‘anaviy usullardan foydalinish yetarli emas. Maxsus pedagogikada tobora ko‘proq foydalilanidigan va maktabgacha yoshdagisi bolalarda nutq buzilishlarini bartaraf etishda maksimal muvaffaqiyatga erishishga yordam beradigan va bolalarda ijobji his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradigan vositalaridan biri noan‘anaviy texnologiyalar usuli hisoblanadi. Noan‘anaviy texnologiyalar logoped ish faoliyatini jarayonida nutq nuqsonlarini bartaraf etishning zamонави usuli bo‘lib ko‘zga tashlanmoqda. Mutaxassislarining kuzatishicha, korreksion jarayonda noan‘anaviy texnologiyalar qo‘llangan bolalarda markaziy nerv sistemasi ishi yaxshilangani aniqlangan [3].

“To‘p bilan mashq qilish”, “Suv bilan mashq qilish”, “Su - Jok massajchilari”, “Bioenergoplastika” kabi noan‘anaviy texnologiyalarni qo‘llash tovush madaniyatini o‘zlashtirish jarayonini tezlashtiradi. Ushbu maqolada biz artikulyatsion gimnastikaning ushbu usullarining har birini alohida ko‘rib chiqamiz.

“To‘p bilan mashq qilish”. Ushbu metodikaning muallifi

Konovalova S.V. (to‘pning diametri 2-3 sm, arqon uzunligi 60 sm, arqon to‘pdagi teshikdan o‘tkaziladi va tugun bilan bog‘lanadi). Bola to‘pni arqon bo‘ylab yuqoriga va pastga, chapga va o‘ngga siljitish, to‘pni aylantirish, to‘pni tilning “kosacha”sida ushslash, og‘izdagagi to‘p bilan qisqa iboralarni aytish orqali tilning mushaklarini rivojlantiradi va boshqaradi. Ish vaqtida logoped qo‘lida arqonni ushlab turadi. Arqon bilan to‘p har bir dars iliq suv va bolalar sovuni bilan yaxshilab yuviladi va salfetka bilan quritiladi. To‘p har bir bola uchun qat’iy individual bo‘lishi kerak.

“Suv bilan mashq qilish”. Ushbu metod logopedlar tomonidan amaliyotda muvaffaqiyatlari qo‘llaniladi, bu bolaning mushak tuyg‘ularini kuchaytirishga yordam beradi. Suv havodan ko‘ra zichroq moddadir, shuning uchun u og‘iz bo‘shlig‘idagi sezgir joylarni faolroq bezovta qiladi va shu bilan innervatsiyani rag‘batlantiradi. Bolalar bu mashqlarni logopedik mashg‘ulotlar vaqtida va ovqatdan keyin og‘izni suv bilan chayqash vaqtida suv bilan bajarishlari mumkin. “Kosacha”ga oz miqdorda suv solib (tilda kosacha shaklida), bir tomchi ham to‘kmaslikka harakat qilgan holda og‘izning bir burchagidan ikkinchisiga o‘tkaziladi. Og‘izda suv yig‘ib, uni chap yonoqqa, keyin o‘ngga, keyin yuqori labning ostiga va keyin pastki labning ostiga o‘tkaziladi. Boshni orqaga tashlab, tomoqni g‘arg‘ara qilinadi. Til, og‘iz bo‘shlig‘i va miyaning refleks aloqalarini o‘rgangan olimlar, og‘izni uzoq vaqt yuvish markaziy asab tizimining faoliyatiga foydali ta’sir ko‘rsatadi, degan xulosaga kelishgan. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, chayishning boshlanishi qo‘zg‘alish jarayonlarining faollandishi bilan birga keladi, so‘ngra suyuq tupurik chiqishi paytida, ayniqsa chayish oxirida ensefalogrammada sekin potentsial kuchayadi. Bu murakkab o‘zgarishlarning barchasini miya massajining bir turi bilan solishtirish mumkin, bu esa undagi jarayonlarga juda foydali ta’sir ko‘rsatadi.

“Su - Jok massajchilari”. Janubiy koreyalik olim professor Park Chje Vu tomonidan ishlab chiqilgan. Koreys tilidan tarjima qilingan «Su» «qo‘l», «Jok» «yoqoq» degan ma’noni anglatadi, ya’ni qo‘l va oyoq yordamida davolash usuli [4]. Ushbu metod yordamida bolaning mayda qo‘l motorikasiga ta’sir qilinadi. Biz bilamizki, mayda qo‘l motorikasi hamda artikulyatsion apparat o‘zaro bog‘liq. Mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish orqali artikulyatsion apparatga ta’sir qilish mumkin, ya’ni bolaning nutqini rivojlantirish imkoniyati tug‘iladi. Su Jok texnologiyasi o‘xhashlik tamoyiliga ko‘ra tanamizning alohida qismlarining o‘zaro ta’siriga asoslangan (qulqo shaklining inson embrioni, qo‘l va oyoqlarning inson tanasi bilan o‘xhashligi va boshqalar). Shuning uchun kerakli nuqtalarni aniqlab, bolaning nutq sohasini rivojlantirish mumkin. Neyropatologiya, psixiatriya va fiziologiya mutaxassislarini bilan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, miya yarim korteksining nutq sohalarining morfologik va funktsional shakllanishi barmoqlardan keladigan kinestetik impulslar ta’sirida sodir bo‘ladi, shuning uchun Su Jok terapiyasi nutqning rivojlanishini faollashtiradi. Amalda, logopedlar Su Jok massajchilaridan metall halqalari bilan qoplangan massaj to‘plari shaklida foydalananadilar. Kaftda juda ko‘p sonli biologik faol nuqtalar mavjudligi sababli, ularni rag‘batlantirishning samarali usuli - barmoqlar, qo‘llar, kaftlarga qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan maxsus to‘p bilan massaj qilishdir. Natijada, bolaning mushak tonusi kuchayadi, qon aylanishi yaxshilanadi. Buning natijasida bolaning mayda qo‘l motorikasi ko‘nikmalarini va oyoq-qo‘llariga nisbatan sezgirligi yaxshilanadi.

Elastik halqalar bilan massaj qilish bolaning barmoqlariga prujina halqalarini qo‘yish va ularni dumalash orqali amalgalash oshiriladi. Har bir barmoqda qizarij va issiqlik hissi paydo bo‘lguncha massaj qilinadi. Ushbu mashqni kuniga bir necha marta takrorlanishi kerak - bu butun tanaga foydali ta’sir ko‘rsatadi, shuningdek, mayda qo‘l motorikasi ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bularning barchasi bolaning nutqi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Massaj jarayoni bolaga zerikarli ko‘rinnasligi



uchun she'riy material qo'llash mumkin. Shunday qilib, Su-Jok terapiyasi bolaning kognitiv, hissiy-irodaviy sohalarini rivojlanishini ta'minlaydigan samarali usullardan biridir.

“Bioenergoplastika”. Tovushlarni postanovka qilish uchun artikulyatsion apparatini tayyorlashda eng yaxshi natijalarga erishish uchun bioenergoplastika kabi usul qo'llaniladi - bu qo'llar va tilning do'stona o'zaro ta'siridan iborat bo'lgan usuldir. Ushbu noan'anaviy texnologiyadan foydalananish kinestetik sezgilari kamaygan va buzilgan bolalarda tovushlarni korreksiyalashni samarali ravishda tezlashtiradi, chunki kaft yordamida miya yarim sharlariga boradigan impulslar ishini sezilarli darajada kuchaytirish imkoniyati mavjud. Barcha klassik artikulyatsiya mashqlariga biz qo'lning harakatini qo'shamiz. Bunday gimnastika bolaning qiziqishini uzoq vaqt ushlab turishga, bolalarning motivatsion tayyorgarligini oshirishga yordam beradi, butun dars davomida yuqori kayfiyatni saqlaydi, vizual yordamni - oynani tezda olib tashlashga va his qilish orqali mashqni davom ettirishga imkon beradi. Bioenergoplastikadan foydalananish qisqa vaqt ichida natijalarga erishishga yordam beradi. Bolalarda artikulyatsion a'zolarining mushak tonusi normallashadi, nutq funktsiyasi faollahadi, ish qobiliyati oshadi, somatik holat yaxshilanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, motor alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq harakat analizatori hisoblangan Broka markazi jarohatlangan bo'ladi. Broka markazi artikulyatsion a'zoning harakatini boshqaruvchi markaz hisoblanadi. Bu markazning jarohatlanishi esa bola artikulyatsion apparatining harakatini cheklashga olib keladi. Olib borilgan to'g'ri korreksion ish esa bolaning nutq kamchiligidini bartaraf etish imkoniyatini tug'diradi. Bu korreksion jarayonda noan'anaviy usullardan foydalananish, turli yangi yo'nalihsdag'i artikulyatsion gimnastikani qo'llash orqali logopedik mashg'ulotga bolaning qiziqishi va faolligi ortadi, bu esa korreksion jarayon samaradorligining tezlashishiga sabab bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Ayupova M.Yu. Logopediya. – T.: Faylasuflar milliy jamiyat, 2007.
2. Kovshikov V.A. Экспрессивная алалия. – M.: «Институт общегуманитарных исследований», 2001.
3. Akimenko B. M. Новые логопедические технологии: учебно-метод. пособие. Ростов н/Д: Феникс, 2008.
4. Gorbulanova I.B., Ivanenko I.B. Су Джок массажеры в логопедической работе: журнал Логопед №2/2014.

DIZARTRIYA NUTQ KAMCHILIGIGA EGA BOLALAR BILAN ISHLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

S.J Achilova, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, “Defektologiya” kafedrasi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

В статье рассмотрены педагогические и психологические особенности работы с детьми с дизартрией и дефектом речи, а также показано, что дефекты речи у детей не позволяют ему получить хорошее образование в будущем школьном образовании.

Ключевые слова и понятия: речь, дизартрия, правильное развитие речи, дефект речи, коррекция речи, занятия, упражнения, динамика развития, школьное образование.

The article discusses the pedagogical and psychological features of working with children with dysarthria and a speech defect, and also shows that speech defects in children do not allow him to get a good education in the future school education.

Key words and concepts: speech, dysarthria, correct development of speech, speech defect, speech correction, classes, exercises, dynamics of development, school education.

Inson nutqi orqali o'z fikrini ifodalashga harakat qiladi. Nutq bir tomonidan insонning o'ziga xos yakka xususiyatlарини, xarakterini ochib bersa, boshqa tomonidan esa nuqsonli tomonlarini ko'rsatadi. Bola shaxsining har tomonlama rivojlanishida nutq benuqsonligining ahamiyati katta. Nutq – insонning muloqot, fikrlash va faoliyati jarayonida muhim psixik vazifani bajaradi. Inson nutqi tushunarli tovush yoki so'zlarni ifodalab bera oladigan harakatlar mahsulidir. Nutq, bir tomonidan, inson ruhiyatini uning milliy asosdan kelib chiqqan hamda har bir kishiga xos bo'lgan xususiyatlарини oyna kabi o'zida aks ettirsa, ikkinchi tomonдан, uning ruhiyatidagi og'riq jihatlarini ham aks ettiradi.

Maktabgacha yoshdagи bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklari uning kelajakda maktab ta'limida yaxshi bilim olishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli ham kichik yoshidan boshlab bolalarning nutqiga e'tibor berish lozim. Bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklарини o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish ishlari, albatta, maxsus pedagogika, ya'ni logopediya zimmasiga tushadi.

Bolalar nutqi va nutqidagi buzilishlar orasida tovushni shakkllantirishning buzilishi nisbatan keng tarqalgan bo'ladi. Ularning yuzaga kelishida turli-tuman mexanizmlar mavjud bo'lib, ko'pincha, ular orasida dizartriya nutq kamchiligi deb

nomlanuvchi markaziy genezning nutqdagi organik patologiyasi alohida o'rin tutadi.

Bir qancha olimlar tomonidan, jumladan, F.de Sossyur til va nutqni ajratib, bu boradagi fikrlarini jamlab bu atamalarni "mutlaqo farqli" deb topadi. Ular uchun umumiy taraf nutq faoliyatidir.

Keyinchalik esa til va nutq o'rtasidagi farqni kod va xabar, tizim va matn kabi farq sifatida ko'ra boshladilar. Biroq har bir ushbu birliklar tilga qanchalik aloqador bo'lsa, nutqqa ham shunchalik tegishli ekani ko'rinish qoldi, shu sababdan til nutq belgilari bilan aniqlashtiriladi va nutq ham til belgilari ko'ra aniqlashadi.

Lingvistik tadqiqotlarda biron bir gapni aytishda til va nutq yagona ko'rinishning ikki tarafni sifatida talqin qilinadi.

1. Til:

- til abstrakt sxema hisoblanadi;
- til umumiy qonun-qoidalarga bo'ysunadi;
- til potensial imkoniyatdir;
- til qat'iy rasmiy tarzda ta'riflanishi mumkin;
- til umumiy hodisa, u jamiyat qadriyatidir;
- til odamlarning jamoaviy tajribasini ifodalarydi, xalqning «olam sur'atidir»dir;
- til maqsadga yo'naltirilgan emas;



- til muomala xususiyatiga bog'liq emas;
- til tarkib nuqtai nazaridan baholanishga yaramaydi;
- til – ijtimoiy hodisa;
- til barqarorlikka intiladi, u cheklangan;
- til tizimi ma'lum darajada passiv va statikdir;
- til elementlari orasidagi munosabat funksional bog'liqlikka asoslanadi;

- til muvozanatl strukturaga ega.

2. Nutq:

- nutq «moddiy»dir, aniq va betakror;
- nutq faoldir, u o'z vaqtida amalga oshiriladi va fazoda tarqaladi;
- nutqni qat'iy rasmiy tarzda ta'riflab bo'lmaydi;
- nutq – individual hodisa, u individning ijodiy faoliyatini natiyasi hisoblanadi;
- nutq u yoki bu insonning tajribasini ifodalaydi;
- nutq aniq bir maqsadda ifoda qilinadi;
- nutq vaziyatga ko'ra shartlidir;
- nutq o'z mundarijasiga ko'ra baholanadi;
- nutq – psixologik hodisa;
- nutq dinamik xarakterga ega, o'ta tarixiydir;
- nutq faol va dinamikdir;
- nutq elementlari orasidagi munosabat sababiyatlarning bog'liqligiga asoslanadi;
- nutq bir chiziq kabi tekisdir (chizg'ichdir).

Nutqni qabul qilish jarayoni, N.I.Jinkin va I.A.Zimneylarning fikriga ko'ra, sensorli, idrok etish, tilning ma'naviy darajalarini o'z ichiga oladi.

Nutq qabul qilish darajasining o'ziga xosligi, o'zaro turli darajada chegaralangan qabul qilish ob'ektlari bilan amalga oshiriladi. Shunday ekan, agar qabul qilish ob'ekti tovushlarni izolyasiya qilsa, u holda til vositalari mavjudligiga qaramay, "oddiy psixik akt sifatida" qabul qilishni anglash yoki bishning eng oddiy darajasi amalga oshiriladi. Agar qabul qilish ob'ekt tovushlar uyg'unligida (yoki bo'g'inlar) bo'lsa, u holda jarayon tovushlar ketma-ketligi ehtimolining lingistik baholanishining tarkibiga oladi va shartli ravishda aniqlik darajasi deb nomlash mumkin bo'lgan darajaga yetadi. Biroq na tovushlar, na tovushlar uyg'unligi nutqning ahamiyatlari birligi hisoblanadi va shu sababdan nutqning ahamiyatlari birligi bo'lgan so'zning eng kam nutq xabarini beruvchi birligi paydo bo'lishi bilan qabul qilish ma'noli deb ataluvchi nutqning xos darajasiga yetadi.

V.I.Galunov, J.I.A.Chistovichlar fikriga ko'ra, qabul qilish jarayonida tovushlarni xususiy eshitib qabul qilishning lingistik bosqichgacha va lingistik bosqichini ajratish mumkin bo'ladi. Ushbu lingistik darajaning oxirgi bo'g'ini nutq xabari ma'nosini anglash hisoblanadi.

B.G.Ananevaning fikriga ko'ra, nutqni tinglash bola nutqining tarbiyasida asosiy omil hisoblanadi, u nutqning grammatic qoidalariga asoslangan jumlalardagi so'zlar munosabatini o'rnatadi. F.A.Soxin nutqni tinglash tushunchasi tahlilida quyidagilarni alohida ko'rsatib o'tadi: tinglash diqqati (u yoki bu ovozning farqini tinglab turib, uni va yo'nalishini ajrata olish); fonematik tinglash; nutq sur'ati va ritmini qabul qilish iqtidori.

A.F.Lomizov nutq tinglashni xarakterlar ekan, bir tomonidan, urg'u vositasida eshitish qobiliyati sifatida (so'zlar va mantiqiy), turli xarakter va uzunlikdagi pauzalar, ovozning ko'tarilishi va pasayishi, nutq sur'ati (temp) va ovoz tembrini aniq va to'liq ilg'ash, so'zlovchining fikri va hissiyotini qabul qila olish. Boshqa tarafdan – ayni nutq ohangi elementlari vositasida tinglovchiga o'z fikri va hissiyotini to'liq va aniq yetkazib berish iqtidori. A.I.Maksakov nutq tingloving muhim vazifasini bolalar tomonidan tovush imkoniyatlariiga ega bo'lgandagina muhim deb ko'rsatadi: nutqi yaxshi rivojlangan bolalar, nafaqat ovoz o'zgarishidagi farqlarni ilg'aydi, balki yangrayotgan nutqning fonetik shakllanishidagi barcha nozik jihatlarni ham fahmlaydi. "Yaxshi rivojlangan nutq

tinglovi ona tilidagi so'zlar va ovozlarni, jumlalarni aniq, ravshan va to'g'ri talaffuz qilishni ta'minlaydi, so'zlarini talaffuz qilishda ovoz balandligini to'g'ri amalga oshirish, ohangdor va qat'iy sur'atda so'zlash imkoniyatini ham beradi".

Fonetik, yaxlit bir tarzda, o'zining uzunligiga bog'liq emas, nafaqat nutqni aytish balki so'zning shakllanishida ham bo'lishi lozim. Fonetik birlik bo'lgan so'z bir bo'g'indagi urg'uni alohida ko'rsatish bilan o'z darajasiga yeta oladi. Bo'g'indalar so'z tarkibida bo'lib, almashib keluvchi uzoqliklar va mushaklar tortilishi va bo'shashishi vositasida yuzaga keladi, bunday vaziyatda aksariyat hollarda tegishli tarzda ovozning jarangdorligi tortilishi va bo'shashishi kuzatiladi. So'zdagi biron bir bo'g'inni nisbatan baland va uzoq tarzda alohida ko'rsatish so'zlashdagi urg'uni keltirib chiqaradi. So'zlashdagi urg'u mustaqil so'zning muhim alomatlaridan biri hisoblanadi. U "so'zni shakllantiruvchi bo'g'indar zanjiridan iborat bir bo'g'inning fonetik vositasi sifatida u yoki bu shaklda" aniqlanadi. An'anaviy nuqtai nazardan, so'zlashdagi urg'u o'zbek tilida urg'u berilgan bo'g'inni alohida ko'rsatuvchi ovoz kuchi va balandligi xususiyatlari bilan farqlanadigan kuch hisoblanadi. O'zbek tilida so'zlashdagi urg'u barqaror emas. U so'zdagi bo'g'indarning soniga qarab boshidan oxirgacha tushib borishi ham mumkin. So'zdagi urg'uning shakli o'zgarishi bir bo'g'indan boshqasiga va bir morfemadan boshqasiga o'tishda sodir bo'lishi mumkin. Bo'g'indalar soniga muvofiq tarzda urg'u o'rinni muayyan ritmik kontur hosil qilishi mumkin.

Nutqni harakatga keltiruvchi analizatorning organik nuqsoni nafaqat nutq motorikaning (tovushlarning artikulyasiyalashgani) buzilishiga, balki ovoz, nafas, nutqning tempi va ritmi, uning ohangdor ifodalaniishi buzilishiga ham olib keladi. Nutqni shakllantiruvchi nafas, ovoz va artikulyasion organlar harakatining normal jarayoni aniq, hajm va quvvat jihatidan yetarli, tezkor va sinxron bo'lishi lozim. Dizartrianing yengil darajasiga ega bo'lgan bolalarda to'laqonli ifoda va nafasni koordinatsiyalash, artikulyasion harakatlardagi qiyinchilik, ularning o'zaro hamkorlikda harakatlanishi murakkabligi kuzatiladi.

Dizartrianing yengil darajasida nafaqat tovushdagi nuqson, balki tovushni ifodalash va uning vositalarini o'z ichiga olgan barcha komponentlarining o'zaro hamkorlikda taqdim etiladigan nutqning fonetik jihat tushuniladi.

Adabiyotlar

1. Архипова Е.Ф. Клинико-педагогическая характеристика детей со стертым формой дизартрии. // Актуальные вопросы теории и практики коррекционной педагогики. – М.: 1997.

2. Achilova S.J. Dislaliya. Dizartriyasi". O'quv qo'llanma. – Chirchiq: 2021.

3. Achilova S.J. Maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida dizartriyaliga nutq kamchiligidni bartaraf etishda logopedik ish turlari. "Maktab va hayot" ilmiy metodik jurnalı. – T.: 2021, 1 son.

4. Ачилова С.Ж. Логопедическая работа в специализированных учреждениях с диагнозом дизартрия. "Xalq ta'limi" O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnalı. – T.: 2021. 1 son yanvar-fevral.



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TASHKIL ETILGAN LOGOPEDIYA SHOXOBCHALARINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Sh.R.Axmedova, O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi metodisti

Z.I.Agzamova, Toshkent shahar, Bektemir tumani 289-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lif maktabi o'qituvchi-logopedi

В данной статье изложены цели и задачи логопунктов и роль учителей-логопедов в коррекции речевых нарушений у учеников начальных классов

Ключевые слова и понятия: логопункт, учитель-логопед, нарушение речи, коррекция, дислалия, ротацизм, ринолалия, заикание, дизартрия.

This article outlines the goals and objectives of speech centers and the role of speech therapists in the correction of speech disorders in primary school students

Key words and concepts: logopoint, speech therapist, speech disorder, correction, dyslalia, rotacism, rhinolalia, stuttering, dysarthria.

To'g'ri nutq bolaning har tomonlama rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Bolaning nutqi qanchalik to'g'ri va lug'ati boy bo'lsa, unga o'z fikrlarini bayon qilish shunchalik oson bo'ladi, atrof-olamni idrok etish uchun imkoniyat kengayadi, kattalar va o'z tengdoshlari bilan bo'lgan munosabati to'liq va mazmunli bo'ladi, uning psixik rivojlanishi ham faol ravishda amalga oshadi. Shuning uchun ham bolalarda nutqning o'z vaqtida shakllanishi haqidagi, uning sofi va to'g'riligi haqidagi qayg'urish, bola qaysi tilda nutqi shakllanayotgan bo'lsa, mana shu til normalarida namoyon bo'luchchi turli nuqsonlarni oldini olish va to'g'irlash muhim hisoblanadi. Nutq buzilishi, nutqiy muomalangan cheklanganligi bola shaxsining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, aslida bo'luman ruhiy buzilishlarni, hissiy-irodaviy sohaning o'ziga xos xususiyatlarini keltirib chiqarishi, uning xarakteridagi salbiy fazilatlarning rivojlanishi uchun yo'l ochib berishi mumkin. Bularning barchasi savodxonlikni egallashga, umuman o'zlashtirishga, kasb tanlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday bolalarning nutqiy tajribasi cheklangan, til vositalari takomillashmagan bo'ladi. Nutqiy muloqotga ehtiyoj yetarlicha qondirilmaydi. So'zlashuv nutqi qashshoq, kam so'zli, ma'lum vaziyat bilan uzviy bog'liq va shu vaziyatdan tashqarida tushunarsiz bo'lib qoladi. Bog'lanishli monologik nutq yo mavjud bo'lmaydi, yo katta qiyinchilik bilan rivojlanadi va sifat jihatdan o'ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Shu o'rinda umumta'lif boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan nutq kamchiliklari olib boriladigan korreksion-logopedik ish ko'rib chiqilayotgan muammolar sirasiga kiradi.

Umumiy o'rtalim maktabi o'qituvchi-logopedi o'quvchining nutqidagi nuqsonlarini bartaraf etish bo'yicha mutaxassis hisoblanib, maxsus mashg'ulotlar yordamida tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga, aniq va ravon so'zlashga o'rgatadi.

Umumta'lif muassasalari qoshidagi logopediya shoxobchalari O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 22-MH, 36,39-QQ sonli "Umumiy o'rtalim muassasasi qoshidagi logopediya shoxobchasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi qo'shma qarori 2015 yil 26-oktabrda 2722-sun bilan Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazilgan "Umumiy o'rtalim muassasasi qoshidagi logopediya shoxobchasi to'g'risidagi NIZOM" asosida faoliyat ko'rsatadi.

Logopediya shoxobchalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi-logopedlarning asosiy vazifasi o'quvchilardagi nutq nuqsonlarini bartaraf etish, jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiyalash, ularning jismoniy, intellektual, ma'nnaviy va axloqiy kamol topishida pedagoglar va otanolariga yordam ko'rsatishdan iborat.

Ushbu Nizomga muvofiq muktaba Xalq ta'lifi bo'limi tomonidan chiqarilgan buyruq asosida o'qituvchi-logoped ishga qabul qilinadi va o'quvchilarni nutqidagi nuqsonini aniqlash va saralab olish bo'yicha muktab direktorining buyrug'i asosida (muktab direktori, psixolog, muktab shifokori, o'qituvchi-logoped, boshlang'ich sinf o'qituvchisi) ishchi guruh tuziladi.

Tashkil etilgan ishchi guruh a'zolari tomonidan umumiy o'rtalim muktabiga kelgan birinchi hamda 2-4 sinf o'quvchilarini orasidan quyidagi nutq kamchiliklari bor bo'lgan bolalar saralab olinadi:

- Matlum bир tovushlarni ayta olmaslik (masalan, [R], [S], [Sh] kabi tovushlar);
- bir tovushni boshqa bir tovush o'mida qo'llash (masalan, [R] tovushi o'miga [L], [G'] yoki [Y] tovushlarini qo'llash);
- lug'at boyligining kamligi;
- o'quvchingning passiv lug'atidagi so'zlarni og'zaki nutqda faol ishlata bilmasligi;
- bog'lanishli nutqda intonatsiyaga riosa qilmaslik;
- so'z birikmalari, gaplar va matn tuzishda so'zlarni grammatik jihatdan to'g'ri tartibda qo'llay olmasligi ("Qo'ng'iroq chalindi darsga kirishga");
- o'quvching imlo qoidalariga amal qilmasligi, tinish belgilarni noto'g'ri qo'llashi;
- bolaning duduqlanib gapirishi (logonevroz);
- tanglaydagi yoki labdagil yoriqlar bilan tug'ilganligi sababli og'iz orqali xato nafas olish va bir qancha tovushlarni xato talaffuz qilishi, burun bilan g'uldirab gapirish (rinolaliya);
- til mushaklarning o'ta tortishgan yoki bo'shashgan bo'lishi (dizartriya);
- zaif eshituvchi o'quvchilar va hokazo.

O'quvchilar nutqidagi yuqorida ko'rsatib o'tilgan nuqsonlardan birining mavjudligi fanlarni yaxshi o'zlashtira olmasligi, jamoa oldida o'z fikrini erkin bayon qila olmasligida, tengdoshari bilan muloqotga kirishsishda birmuncha qiyinchililarga duch kelishlarida namoyon bo'ladi. Ko'rsatib o'kypsatib yutilgan nutq nuqsonlarini bartaraf etmaslik esa o'quvchilarda bilim



saviyasiining pastligi, shaxslararo muloqotra kiriша олмаслик, ruhan tushkun bo‘lib ulg‘ayishlariga olib kelishi mumkin.

Logopediya shoxobchasida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchi-logopedning vazifalari quyidagilardan iborat:

- o‘quvchilarning fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlarini o‘zlashtirishlariga to‘sqinlik qiluvchi nutq nuqsonlarini oldini olish va ularni bartaraf etish;

- og‘ir nutq nuqsoniga ega bo‘lgan, jismoniy va psixik rivojlanishida kamchiliklari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion ishlarni olib borish;

- o‘quvchilarning o‘quv dasturlarini ongli ravishda tanlashi va o‘zlashtirishiga ko‘maklashish;

- o‘quvchilar nutq nuqsonlarini oldini olish va ularni bartaraf etishga doir logopedik bilimlarni ta’lim jarayoni ishtirokchilari, o‘qituvchilar va aholi o‘rtasida keng targ targ‘ib qilish.

O‘qituvchi-logoped, shuningdek, nutq nuqsoni mavjud o‘quvchilarning sinf rahbari, fan o‘qituvchilari, psixolog bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi, ularning dars va mashg‘ulotlarini kuzatib boradi, pedagog xodimlar va ota-onalarga nutqiy rivojlanishida muammosi bo‘lgan o‘quvchilarga yordam ko‘rsatishning maxsus metod va usullarini qo‘llash bo‘yicha maslahatlar berib boradi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, mamlakatimizda nutq kamchiliklariiga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan olib boriladigan korreksion pedagogik-psixologik faoliyatga katta ahamiyat qaratilib, bunda o‘qituvchi-logopedning kelajak avlodni har tomonlama sog‘lom va yetuk qilib tarbiyalashda o‘rnı beqiyosligi ta’kidlanmoqda.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Sog‘lijni saqlash vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 2015 yil 25-sentabrdagi (22-MH, 36, 39-QQ sonli) “Umumiy o‘rtta ta’lim muassasasi qoshidagi logopediya shoxobchasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qo‘shma qarori (2015 yil 26-oktabrdagi 2722-son bilan Adliya vazirligidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan).

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2021-yil 1-iyuldagli 206-sonli “Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi umumiyo‘rtta ta’lim maktablari xodimlarining lavozim majburiyatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

3. Ayupova M.Yu. “Logopediya”. – T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyatni nashriyoti. 2007.

4. Axmedova Z.M. “Umumita’lim mакtablarida faoliyat ko‘rsatayotgan logopedlarning ishi” – T.: 2008.

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARINI INKLIZIV TA’LIMGA TO‘LIQ JALB QILISHDA TA’LIM MUASSASALARI O‘QITUVCHILARI FAOLIYATINING MAZMUNI

O.F.Haydarova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Surdopedagogika va inklyuziv ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

В материалах статей раскрываются компоненты экспериментальной модели организации инклюзивного образования детей с ограниченными возможностями здоровья в общеобразовательной школе, отражены психолого-педагогические и социально-психологические проблемы субъектов учебно-воспитательного процесса в условиях интегрированного обучения, показаны пути их решения.

Ключевые слова и понятия: инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями, система образования, ученики, интеграция.

The materials of the articles reveal the components of an experimental model of organizing inclusive education for children with disabilities in a general education school, reflect the psychological, pedagogical and socio-psychological problems of the subjects of the educational process in the context of integrated learning, and show ways to solve them.

Keywords and concepts: inclusive education, children with disabilities, education system, students, integration.

Har qanday jamiyatda yosh avlodning har tomonlama yetuk, komil inson bo‘lib voyaga yetishiga, munosib fuqarolar sifatida ulg‘ayib, davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga ulush qo‘shishlariga umid bog‘lanadi. Butun jahon bolalariga tegishli bo‘lgan bolalar huquqi haqidagi Konvensiyada, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” singari qator muhim meyoriy hujjalarda ko‘rsatilishicha, barcha bolalar, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ham mehnat qilish, ta’lim olish, hayotda o‘z o‘mini topish huquqlariga egadirlar.

Hozirgi vaqtida bunday bolalarни o‘z sog‘lom tengqurlari qatorida umumta’lim mакtablarida o‘qishni inklyuziv ta’limi yo‘lga qo‘ylmoqda. Umumta’lim mакtablaridagi nuqsoni o‘quvchilarining inklyuziv ta’limini tashkil qilishda o‘qituvchilar nimalarga e’tibor berishlari lozim. Quyidagi ayrim nuqsoni o‘quvchilarini umumta’lim mакtablarida nimalarga e’tibor berishi haqida to‘xtalib o‘tmooqchimiz.

I. Eshitishi zaif bolalarini yetarli savod olishlari uchun

o‘qituvchilar oldida quyidagi vazifalar turadi:

Qulog‘i yaxshi eshitmaydigan bolalarni nutqida, ruhiyatidagi o‘zgarishlarini o‘z vaqtida bilish lozim.

Bolaning eshitish qobiliyati darajasini bilish maqsadida zarur bo‘lsa davolash uchun mutaxassis otolorengolog oldiga yuborish lozim.

Eng muhimi sinfda qulog‘i uncha yaxshi eshitmaydigan bola borligini hamisha esda tutish va bunday bolalarini 1-partaga o‘tqazib qo‘yish kerak.

O‘qituvchi sinf o‘quvchilariga mavzuni tushuntirayotganda, diktant matnini o‘qiyotganda o‘quvchini mavzuni qanchalik fahmlaganini ko‘rishi lozim.

Qulog‘i yaxshi eshitmaydigan bolalarning ishini baholayotganda, xatolar sifatini tahlil qilganda, qulog‘i yaxshi eshitmasligi tufayli xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, bahoni pasaytirmaslik lozim.

O‘qituvchi bolaning ota-onasiga bolaning o‘qishda uchraydigan qiyinchiliklarining xususiyatlarini tushuntirish,



o‘quvchiga uy topshiriqlarini tayyorlashda qay tariqa to‘g‘ri yordam ko‘rsatishi kerakligini o‘qitish.

II. Nutqida kamchiligi bor o‘quvchilar bilan ishlashda o‘qituvchi quyidagilarga e’tibor berishi zarur:

O‘qituvchi noto‘g‘ri talaffuz qiladigan o‘quvchilarga alohida e’tibor qilish hamda logoped mutaxassislaridan maslahat olishi kerak. Bolaning o‘qish va yozishdagi xatolari uchun past baho qo‘yib ranjitmaslik, unga dalda berish, uning xulq atvorigidagi ijobji jihatlarga tayanish, unga qiyinchiliklarni bartaraf qilish mumkin degan fikrni singdirish mihimdir.

Duduqlanuvchi bolalar bilan alohida suhbatlar qilish, ularning xarakter xususiyatlarini o‘rganish lozimdir. Sinf o‘quvchilariga duduqlanuvchi o‘rtog‘i ustidan kulmaslik, uning kamchiligini yuziga solmaslik, unga sinf o‘quvchilarining hayrihohligini tashkil qila bilish kerak.

Duduqlanuvchi o‘quvchi savollarga og‘zaki javob bergen vaqtida ularga xushmuomalalik bilan yordam ko‘rsatish, ulardan darhol katta uzun gaplar tuzishni talab qilmaslik kerak, o‘quvchilarning bilimlariga, ularning yozma javobiga qarab baho qo‘yish ma‘quldir, notanish kishilar bo‘lganda og‘zaki javob berish talab qilinmaydi, bolalarga baqirib gapirish, masxara qilish, laqab qo‘yish mutlaqo noo‘rindir.

III. Ko‘rish qobiliyatni zaif o‘quvchilar bilan ishlashda o‘qituvchining vazifasi.

Agar sinfda ko‘zi yaxshi ko‘rmaydigan o‘quvchi bo‘lsa birinchi navbatda ota-onasiga murojaat qilib, uni ko‘z shifokoriga ko‘rsatishni tavsiya qilish kerak.

Ba’zida bolaning ota-onasi ko‘zi ojizligini yashirishga harakat qiladilar. Oddiy mакtab sharoitida ko‘zga zo‘r berish qanday oqibatlarga olib kelishimi o‘ylamaydilar. O‘qituvchi bu tomonlarini ham ota-onalarga tushuntirib o‘tishi lozim.

Ko‘zi yaxshi ko‘rmaydigan bolalarni o‘z vaqtida aniqlamaslik, ularning darslarni o‘zlashtirmasligiga, so‘ngra esa ta’lim-tarbiyadagi bузilishlarga olib kelibgina qolmay, balki ko‘zdagi nuqsonni yanada og‘irlashtirib yuborishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shuni unutmaslik kerakki, umumta’lim mакtab o‘quvchisi uchun oddiy bo‘lgan ko‘pgina mashg‘ulotlar, masalan egilish, qattiq sakrash, jismoniy tarbiya darsida og‘irlashtirishga qarab ham bolaning ko‘rish qobiliyatiga zarar yetkazishi mumkin.

O‘qituvchu sinfda ko‘zi ojiz borligini nazarda tutgan holda bunday bolalar uchun alohida ko‘rgazmalar tayyorlab, dars o‘tishi lozim.

Bolaning ko‘rish qobiliyatini himoya qilish uchun ota-onalar bilan hamkorlikda ko‘zoynak taqishni tashkillashtirish lozim.

IV. Aqli zaif bolalar bilan ishlashda o‘qituvchining vazifasi.

Umumta’lim mакtablarida o‘qiyotgan aqli zaif bolalarni bilish faoliyati bilan sog‘lom bolalar bilish faoliyatlarini farqlay bilish lozim.

Sog‘lom bolaga qo‘yilgan o‘quv-dastur talabini aqli zaif bolaga qo‘llamaslik.

Dars jarayonlarida aqli zaif bolalarni o‘zlashtirish qobiliyatiga mos keladigan vazifalar berib borish lozim.

Bolani darslarni o‘zlashtirmasligi uchun o‘quvchilar o‘rtasida izza qilmasdan, balki uning ayrim yutuqlarini hisobga olib rag‘batlantirish choralarini ko‘rish.

Umumiyl aqli zaif bolalarni umumta’lim mакtablarida o‘qitish ishi o‘qituvchi uchun ancha murakkab muammolarni keltirib chiqaradi. Bu o‘rinda o‘qituvchilar ularning ota-onalari bilan hamkorlikda bolalarni xarakter xususiyatlarini hisobga olgan holda dars jarayonini tashkil etishlari mihimdir.

Maktab-internat o‘quvchilari reabilitatsiyasi va integratsiyasiga erishish shart-sharoitlari

- imkoniyati cheklangan bolalarning moslashishi va integratsiyasiga erishish uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta’minalash;

- imkoniyati cheklangan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olishga bo‘lgan huquqini ta’minalashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish;

- har bir ta’lim muassasasi “Nizomda” belgilangan tartibda tegishli jihozlar bilan ta’minalishi;

- imkoniyati cheklangan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olishga bo‘lgan huquqini ta’minalashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish;

- ta’lim jarayoni uchun zarur bo‘lgan mebel, texnik vositalar bilan jihozlangan sind xonalar (interaktiv doskalar, audio, video, multimediya o‘quv materiali, kompyuter texnikasi, ko‘rgazmali va tarqatma materiallari);

- barcha fanlarni o‘qitish uchun zarur bo‘lgan texnik, ko‘rgazmali vositalar va laborator mashg‘ulotlari uchun tegishli priborlar, shu jumladan ko‘rishda muammolari bo‘lgan bolalar uchun zarur bo‘lgan barcha texnik, audio, bo‘ttirma ko‘rgazmali vositalar va h.k.;

- barcha fanlarni o‘qitish uchun zarur bo‘lgan texnik, ko‘rgazmali tarqatma vositalar, ijodiy, konstrukturlik imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan lego, konstruktur, pazllar va laborator mashg‘ulotlari uchun tegishli priborlar, shu jumladan, ko‘rishda muammolari bo‘lgan bolalar uchun zarur bo‘lgan barcha texnik, audio, bo‘ttirma ko‘rgazmali vositalar va h.k.;

Umumta’lim mакtablarida imkoniyati cheklangan bolalarning ta’limini moslashtirish bo‘yicha ba’zi tavsiyalar:

Kitoblar.

O‘quvchilarga muqobil darsliklarni taqdim eting, ular mazmuni jihatidan bir-xil, lekin o‘qishi osonroq bo‘lishi kerak. Iloji boricha matnning audio yozuvini taqdim eting, bolaga audio yozuvni tinglashi uchun darslik va matnga amal qiling. Bolaga materialni o‘qish qulay bo‘lishi kerak. Bolaga matnni mazmuni bilan tanishtirish uchun o‘qituvchi alohida qismlarini marker bilan ajratib ko‘rsatishi mumkin. Kartochkalardan asosiy tushunchalarni tushunishi uchun foydalanish mumkin. Matn tushunarsiz bo‘lmasligi kerak. Rasmi matn maqsadga muvofiqdir. Matnni o‘qishdan oldin bola keyingi bajarishi lozim bo‘lgan vazifa bilan tanishib chiqishi kerak. Matnni kichik semantik qismlarga ajrating. Matndagi savol va topshiriqlar aniq va tushunishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Sinfda ishni rejalashtirish.

Imkoniyati cheklangan bola uchun vazifalarni soddalashtiring, diqqatini asosiy fikrlarga qarating. Yozma topshiriqlarni muqobil topshiriqlar bilan almashtiring. Tartib bo‘yicha vazifalarni tanlashni taklif qiling. Alohida yordamga muhtoj bolalar uchun individual maqsad va vazifalarni belgilang. O‘quvchilar bilan kompyuterda topshiriqlarni ko‘rib chiqing. O‘quvchilarning vazifasini kamaytiring. Bola huquqlarini buzadigan qoidalarni o‘zgartiring. Ish uchun aniq algoritmlarni taklif qiling. Mo‘jal olishi, vazifalarni bajarishi, rejalashtirishi uchun ramziy belgilardan foydalaning. Dars davomida faoliyatning o‘zgarishini ta’minalang, faol ishni dam olish bilan almashtirish. Agar bola stress holatida bo‘lsa uni sinfdan chiqib keta olishi uchun, “tinch zonada” bo‘lishi uchun sharoit yarating. Ko‘rgazmali qurollardan albatta foydalanish zarur. Sinfda va stolda bolani ishdan chalg‘itishi mumkin bo‘lgan narsalar bo‘lmasligi kerak. Insholar va taqdimotlar o‘rniga o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javoblar yozishni taklif qiling. Doskada yozilgan topshiriq bola uchun chop etilgan holatda bo‘lishi kerak. Ko‘chirib yozish uchun topshiriqlar berishdan saqlaning.

Topshiriqlarni tuzilishi.



Topshiriqlar og'zaki, shuningdek, yozma shaklda bo'lishi kerak. Topshiriq qisqa, aniq bo'lishi kerak. Bolani topshiriqni takrorlashga undash kerak. Topshiriqni bir necha bosqichda shakllantirish mumkin. Shakllantirganda, yakuniy bosqichni ko'rsatishni taklif qiling (tugallangan matn, matematik yechim vazifalar...). Topshiriqni shakllantirishda bola sizni yoningizda turishi kerak. O'quvchiga boshlagan ishini oxiriga yetkazish imkoniyatini bering.

Baholash.

Bolaning yaxshi xulq-atvorini rag'batlantirish kerak. Intizomning ba'zi arzimas buzilishi holatlariga e'tibor bermang. Bolaning xatti-harakati dori qabul qilganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligiga tayyor bo'ling. Nutqningizda "maxsus" so'zlardan foydalaning, bu bola noto'g'ri ish qilayotganini tushunishi uchun yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, umumta'lim maktablarida

o'z sog'lom tengqurlari qatorida o'qiydigan bolalarni o'qitish va ta'limni to'g'ri tashkil qila bilish har bir o'qituvchining mas'uliyatli burchi bo'lib qolishi kerak. Nuqsonli bolalarni hayotda o'z o'rnnini topishi, kelajakda o'z mehnati evaziga hayot kechirish ko'nikmasiga ega bo'lishi o'qituvchilarning oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar

- Pulatova S.M. "Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni sensor jihatdan rivojlantirishning samarali usullari". – T.: "Maktab va hayot" ilmiy-metodik jurnali. 5-sod 2018.
- R. Shomaxmudova "Maxsus va inklyuziv ta'lim" 2011 y.
- "Inklyuziv ta'lim texnologiyasi" kitobi, D.S.Qaxxarova. 2014.
- "O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari" R.Ishmuhamedov, M.Mirsoliyeva. 2014.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI ATROF-OLAMNI KUZATISHGA O'RGATISH USULLARI

D.R.Babayeva, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, "Maktabgacha ta'lim texnologiyalari" kafedrasi professori

M.A.Abdullayeva, Namangan davlat universiteti dotsenti

В данной статье подчеркивается важность воспитания у детей дошкольного возраста бережного отношения и заботы к окружающей среде.

Ключевые слова и понятия: отношение к природе, окружающая среда, воспитание, забота, наблюдение, дидактические игры, подвижные игры, растения, животные

This article emphasizes the importance of educating preschool children to respect and care for the environment.

Keywords and concepts: attitude to nature, environment, education, care, observation, didactic games, outdoor games, plants, animals.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni atrof-olamni kuzatishga o'rgatish ularda tabiatga bo'lgan munosabatni tarbiyalash va tajribaga asoslangan holda real voqealar bilan tanishtirilib borishdan iboratdir. Bolalarni tabiatga oshno etmasdan va maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim-tarbiya ishlariada undan keng foydalanimasdan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama aqliy, estetik, axloqiy, jismoniy jihatdan tarbiyalash vazifasini muvafaqqiyatlil hal etib bo'lmaydi. Bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishda doimiy kuzatishlar olib borish ularning mantiqiy fikr yuritishi va nutqini o'stirishda g'oyat katta ahamiyatga egadir. Bolalarni atrof-olamdagisi narsa va hodisalar bilan ma'lum bir tartibda tanishtirib borilsa, ularda diqqat va kuzatuvchanlik, atrof-olamga qiziqish, undagi hodisalarini bilishga intilish kuchayib boradi.

Turli yosh guruhlarda bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishda tarbiyachi ko'rgazmali metoddan keng foydalanaadi.

Kuzatish – atrof-olam jismilarini va hodisalarning tabiiy sharoitlarda maqsadga yo'nalgan va bevosita shu hodisalarni borishiga aralashmagan holda qabul qilib olishdir.

Kuzatish murakkab bilish faoliyati bo'lib, bunda idrok, tafakkur va nutq ishtiroti etib, barqaror diqqat talab etiladi.

Kuzata bilish – juda muhim xususiyat bo'lib, bunda bolada to'g'ri yoza bilish, og'zaki nutq malakalari rivojlanadi.

Bolalarni hodisa va narsalarini maqsadga muvofiq holda o'zlashtira olishga va ularning eng muhimlarini ajrata olishga o'rgatish zarur. Tarbiyachi kuzatish ishlarni olib borishda narsa va hodisalar o'rtaсидаги aloqa va sabablarning bog'lanishlarini ilg'ab olishni bolalarga o'rgatishi kerak. Shunday qilib, maktabgacha

ta'lim yoshidagi bolalarning tafakkurlari atrof-olam haqidagi aniq bilimlarni to'plash orqali o'sadi. Kuzatishlar diqqatni jalb qilish yo'li bilangina olib borilishi mumkin. Kuzatish, ya'ni narsa va hodisalarga diqqatni maqsadga muvofiq holda jalb qilishga o'rgatish bilan, biz ularda ixtiyoriy diqqatni ham o'stiramiz. Noto'g'ri tushunchalarni tuzatish, yangi tushunchalar hosil qilishga nisbatan ancha qiyinroqdir. Shuning uchun bolalar maktabgacha ta'lim yoshidayoq, his qilish tajribalariga asoslangan holda, atrof-olam haqida to'g'ri tushunchalarga ega bo'lishlari juda muhimdir. Bolalarda atrof-olamga qiziqishni tarbiyalash zarur, chunki u sog'lom bo'Imagan faoliyatlarda ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, bolalar qo'ng'iz va kapalaklarni tutib olib, nima qilar ekan deb, ularning qanot va oyoqlarini uzib tashlaydilar. Yoki hayvonlarni, qushlarni qiy nab, natijasi nima bo'lar ekan, deb qiziqadilar. Ularga atrof-olamning o'zaro bog'liqligini, ya'ni uning "oltin zanjir" ekanligini tushuntirish zarur. Bu orqali bolalarga ekologik ta'lim tarbiya berib boriladi. "Atrof-olam bilan yaqin munosabatda bo'lish, kuzatuvchanlik bilan birligida bilishga ham qiziqishni o'rgatadi. Buning asosida taxminiy va tekshiruvchanlik refleksi yotadi va uning niyoyatda taraqqiy etishi insonning xarakterli xususiyatidir", Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kattalarga "Bu nima?", "Nima uchun?", "Qanday qilib?" kabi cheksiz savollari bunga misol bo'la oladi. Bu o'rinda tarbiyachi savollarga javob topishda bolalarning o'zlarini jalb qilishga harakat qilishi zarur. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning turli yosh guruhlarida tarbiyachi kuzatishlarni tashkil etar ekan, uning turli xillaridan foydalananadi.

Kuzatishlar davomiyligi va xarakteri bo'yicha qisqa muddatli



va uzoq muddatli bo‘lishi mumkin. O’simlik va hayvonlarni o’sishi hamda rivojlanishi, atrof-olamdagи mavsumiy o‘zgarishlar haqidagi bilimlarning jamg‘arilishi uchun kuzatishning ancha murakkabroq turi – uzoq muddatli kuzatishlardan foydalaniladi. Bunda bolalarning obyektning kuzatilayotgan holatini ilgarigisi bilan qiyoslashlariiga to‘g‘ri keladi.

Kuzatish narsalarning ayrim belgilariga qarab holatlarini aniqlash (masalan, gulning bargiga qarab uni sug‘orish, akvariumdagi suvning holatiga qarab suvni almashtirish yoki qordagi izga qarab qaysi qushning izi ekanligi, mevalarning pishgan yoki xomligini rangiga qarab ajratish) maqsadida ham tashkil etiladi. Kuzatishning bu turi bolalarda atrof-olam hodisalarini tahlil qilish, ayrim ma‘lumotlarni qiyoslash, soddaroq xulosalar chiqarish ko‘nikmalarining hosil bo‘lishiga yordam beradi. Solishtirma va uzoq muddatli kuzatishlar mazmuniga ko‘ra murakkab bo‘lganligi sababli, maktabgacha ta’lim, o‘rta, katta hamda maktabga tayyorlov guruhlarida foydalaniladi. Kuzatishlar mazmuniga va tarbiyachining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga ko‘ra, o‘simlik va hayvonlar, ob-havo hamda kattalarning atrof-olamdagи mehnati bilan ekskursiya, sayrlarda, shuningdek, atrof-olam burchagidagi mashg‘ulotlarda tashkil etiladi.

Qisqa muddatli kuzatish jarayonida bolalar narsalarning shakli, rangi, katta-kichikligi, tuzilishi, fazoviy joylashuvni, sathining xarakterini farqlashni, hayvonlar bilan tanishganda esa harakat xarakteri, ularning chiqaradigan tovushlarini o‘rganadilar. Bu kuzatish turiga masalan, qor yoki yomg‘ir yog‘ishi, kamalakning hosil bo‘lishi kabi holatlar kiradi. Barcha hollarda kuzatish bolalarning yuksak aqliy faoliyatini rivojlantirishi, ularni fikrleshga, berilgan savollarga javob topishga undashi, shuningdek, ularagi qiziqishlarni rivojlantirishi va atrof-olamga ehtiyojkorona munosabatda bo‘lishni tarbiyalashi lozim.

Tarbiyachining kuzatishga tayyorlanishi. Kuzatishni tashkil etishda obyekt tanlash katta ahamiyatga ega. Tanlangan obyekt vaxshi holatda bo‘lishi kerak, ya‘ni o‘simlik so‘limagan, navlari o‘ralmagan, hayvon qo‘liga o‘rgatilgan, sog‘lom, bolalardan cho‘chimaydigan bo‘lishi zarur. Kuzatish atrof-olam burchagida bo‘lsa, obyekt yaxshi yoritilan bo‘lishi, unga yaqinlashish qulay bo‘lishi uchun yorug‘lik yon tomondan tushib turishi lozim. Bolalar hayvonlarning harakatini kuzata turib, ovqat berishlari, silashlari, ular bilan o‘ynashlari mumkin. Bunda hayvonlar o‘zlarini erkin tutishlari, bemalol harakat qilishlari zarur. Buning uchun bolalar atrof-olam burchagida qulay joylashib o‘tirishlari maqsadga muvofiqdir.

Kuzatishni boshqarish. Tarbiyachi kuzatishni birinchi marotaba o‘tkazayotgan bo‘lsa, dastlab bolalarda hosil bo‘lgan qiziqishlarni qondirish hamda kuzatilayotgan narsa haqida birinchi taassurot hosil qilish uchun ularni kamida 1-2 daqiqa tomosha qildirib turadi.

Kuzatishni boshqarish jarayonida tarbiyachi xilma-xil usullardan – bolalarning yoshlariga mos savol va topshiriqlar, narsani ushlab ko‘rish, qiyoslash, o‘yin harakatlaridan foydalanadi. Tarbiyachi kuzatishni tashkil qila turib, kerakli ma‘lumotlarni aytishi, kuzatiladigan ob‘yektning muhim xususiyatlarini ajratishi zarur. Bolalarda kuzatishga nisbatan qiziqish uyg‘otish, kuzatilayotgan narsalarni estetik idrok etish uchun tarbiyachi she‘rlardan, topishmoqlardan, katta yosh guruhlarda esa badiiy asarlarni o‘qishdan foydalanadi.

Tarqatma materiallardan foydalanib kuzatish. Bu kuzatishlar o‘rta yosh guruhlardan boshlab o‘tkaziladi. Bunday kuzatishni tashkil etish birgina ob‘yektni kuzatishdan ko‘ra ancha murakkabroqdir. Bu o‘rinda tarbiyachi o‘z diqqat e’tiborini taqsimlay bilishi, bolalardagi harakatni uyuştira olishi talab qilinadi, bolalar esa tarbiyachining barcha ko‘rsatmalariga aniq rioya qilishlari birbirlarini tinglashlari, boshqalarning kuzatishlarini o‘zlarining kuzatishlari bilan taqqoslashlari kerak bo‘ladi. Kuzatishning bu usuli katta rivojlantiruvchi ahamiyatga egadir. Bolalar turli xil tadqiqotchilik harakatlaridan foydalanib,

o‘quv ko‘nikmalarini takomillashtirish imkoniga ega boiadilar. Bu esa o‘z navbatida ularda aniqroq tasavvurlarning shakllanishiha yordam beradi. Tarqatma material sifatida o‘simliklar hamda ularning bargi, mevasi, urug‘i, shoxchalari, shuningdek, sabzavot va mevalardan keng foydalaniladi. Kuzatishda qatnashgan har bir bolaning va tarbiyachining qo‘lida tarqatma material bo‘lib, kuzatish davomida tarbiyachi bolalarga savollar berib, narsalarni tekshirishni tashkil etadi. So‘ngra olingen tasavvurlarni qiyoslab, bolalarni xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Kuzatish jarayonida tarbiyachi barcha bolalarning yuqori faolligini ta’minlaydi.

Bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishda didaktik, harakatlari va ijodiy o‘yinlardan foydalaniladi. Didaktik o‘yinlarda bolalar o‘zlarida atrof-olamdagи narsa va hodisalar, hayvonlar va o‘simliklar haqida mavjud bo‘lgan bilimlarni aniqlaydilar, mustahkamlaydilar, kengaytiradilar. Ko‘pgina o‘yinlar bolalarni umumlashtirish hamda turkumlashga o‘rgatadi.

Didaktik o‘yinlar xotira, diqqat, kuzatuvchanlikning o‘sishiga yordam beradi, yangi sharoitlarda bolalarni mavjud bilimlardan foydalanishga o‘rgatadi, turli aqliy jarayonlarni faollashtiradi, lug‘atni boyitadi, bolalarda birgalikda o‘ynash ko‘nikmasini tarbiyalashga yordam beradi. Bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishda predmetli, stol bosma va og‘zaki didaktik o‘yinlardan foydalaniladi.

Predmetli o‘yinlar – barglar, urug‘lar, gullar, mevalar, sabzavotlar bilan o‘ynaladigan “Ajoyib qopcha”, “Mevalar va ildizlar”, “Bu butoqda kimning bolakaylari” va shu kabi o‘yinlardir. Bu o‘yinlar yordamida bolalarda faol muloqotda bo‘ladigan predmetlarning xususiyat hamda belgilari haqidagi tasavvurlar boyitiladi. Predmetli o‘yinlar, ayniqsa kichik va o‘rta yosh guruhlarda keng qo‘llaniladi. Bu o‘yinlar bolalarga atrof-olam jismlarining o‘zidan foydalanish, ularni qiyoslash hamda ularda sodir bo‘ladigan ayrim tashqi belgilaridagi o‘zgarishlarni qayd qilish imkonini beradi. Predmetli o‘yinlar barcha yoshdagи guruhlarning biroz murakkablashtirilgan bilimlarni kengaytirish, tafakkurlarini kuchaytirish hamda harakatlarini rivojlantirishni vazifasini o‘taydi.

Stolbosma o‘yinlari – “Yilning to‘rt fasli”, “Kichkintoylar”, “Mevalar”, “O‘simliklar”, “Barglarni terib ol”, “Juft rasmlar” va shu kabilardir. Bu o‘yinlar bolalarning o‘simliklar, hayvonlar, jonsiz atrof-olam hodisalarini haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish, aytilayotgan so‘zga qarab predmetni tasvirlash ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi. O‘yin so‘z bilan birgalikda olib boriladi, so‘z rasm idrok etilishidan oldin keladi yoki o‘yin bilan uyg‘unlashib ketadi. Bunday o‘yinlar ozchilik bolalar bilan o‘tkaziladi.

Og‘zaki o‘yinlar (“U nima uchun uchadi, yuguradi, sakraydi”, “Suvda, havoda, yerda”, “Kerak, kerak emas” va shu kabilar) hech qanday jihoz talab qilinmasligi tufayli juda maqbuldir. Ular u yoki bu predmetlarning vazifalari hamda harakatlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash, umumlashtirish va bir tizimga solish maqsadida o‘ynaladi. Bu o‘yinlar diqqatni, zehnni, qabul qilish tezligini, ravon nutqni rivojlantiradi.

Astrof-olamga oid o‘yinlarni o‘rganish barcha didaktik o‘yinlar uchun umumiyo‘b‘ligan qoidalar bo‘yicha amalga oshiriladi. Kichik yosh guruhlarda dastlabki bosqichlarda tarbiyachi o‘yinni bolalar bilan birga o‘ynaydi, o‘yin davomida u bir qoidani aytib, uni shu zahotiyoyq tatbiq qiladi. Takroriy o‘yinda esa qo‘srimcha qoidalarini aytadi. Ikkinci bosqichda tarbiyachi o‘yinda faol qatnashmaydi, chetdan rahbarlik qilib, o‘yinni boshqarib turadi. Uchinchi bosqichda bolalar mustaqil o‘ynaydilar.

O‘rta yosh guruhdan boshlab o‘yinga o‘rgatish usuli o‘zgaradi. Avval tarbiyachi o‘yining mazmunini aytib, oldindan 12 ta muhim qoidani ajratib ko‘rsatadi. O‘yin davomida u bu qoidalarini yana bir bor ta‘kidlaydi. O‘yin harakatlarini ko‘rsatadi, qo‘srimcha qoidalarini beradi. Keyingi bosqichda bolalar mustaqil o‘ynaydilar. Tarbiyachi o‘yinni kuzatib turadi, xatolarni to‘g‘rilaydi, nizolarni



bartaraf qiladi. O'yingga qiziqish susaygan vaqtida tarbiyachi o'yinning boshqa turlarini taklif qiladi. Atrof-olamda bolalar mehnatini tashkil etishda bolalarning atrof-olamdagи mehnati katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mehnat qilish jarayonida bolalarda atrof-olamga bo'lgan munosabatlар shakllanadi. Atrof-olamdagи mehnat bolalarda berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan yondashishni tarbiyalaydi. Biroq buning uchun bolalar zarur mehnat malakalarini egallab olgan bo'lishlari, o'z mehnatlarining ahamiyatini tushunishlari lozim. Atrof-olamdagи mehnat maktabgacha yoshdagi bolalarning sensor tarbiyasi uchun qulay sharoitlar yaratadi. Tarbiyachi bolalarni mehnat orqali maqsad va natijalarga erishish, narsalarni sensor belgilarini nazarda tutishga o'rgatadi. Masalan, o'simlikning suvgaga muhtojligini aniqlash uchun uning holatini - barg va poyasining elastikligi, pishiqligi yoki uning so'lg'inligi, yumshoqligini, tuproqda esa - uning namligi, zichligi va shu kabi belgilarni hisobga olish lozim.

Mehnat jarayonida bolalar o'simliklar holatining yorug'likka, namlikka, issiqlikka, yaxshi tuproqqa bo'lgan ehtiyojlar qondirilishi kerakligini anglab oladilar. Bolalar muhitning o'zgarishi, qonuniy tarzda o'simliklar holati ham o'zgarishini bilib oladilar. Bu munosabatlarni o'zlashtirish ularning mehnatga bo'lgan munosabatiga ham ta'sir etadi – mehnat ongli va maqsadga yo'naltirilgan bo'lib boradi. Bolalarda mehnatga qiziqish, mehnatsevarlik shakllanadi. Atrof-olamdagи mehnat

– kuzatuvchanlikni o'stirish usullaridan biridir. Agar kuzatish mehnat bilan bog'langan bo'lsa, samaraliroq bo'ladi. Atrof-olamdagи mehnat jarayonida tarbiyaviy vazifalardan tashqari ta'limiy vazifalar ham hal qilinadi. Bolalar mehnat orqali o'simliklarning xususiyatlari va sifatlari, ularning tuzilishi, ehtiyojlar, rivojlanishining asosiy bosqichlari, o'stirish usullari, o'simliklar hayotidagi mavsumiy o'zgarishlar haqida, hayvonlar, ularning tashqi ko'rinishi, ehtiyojlar, harakat qilishlari, hayot tarzlar va ularning mavsumiy o'zgarishlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Shu jumladan, hayvonlarni atrof-olam burchagida parvarish qilishni o'rganadilar va shu orqali mehnat malakalarini egallaydilar. Bolalarni atrof-olamdagи mehnati individual topshiriq shaklida va jamaoa tarzida tashkil etiladi. Individual topshiriq bolalar bog'chasidagi barcha yosh guruhlarda qo'llaniladi.

Adabiyotlar

1. M.Umarova. Bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish. Metodik tavsiyalar. – T.: Nur-sehri Oshiyoni. 2007.
2. A.Sulaymonov, S.Saydaliyev, X.Alyaminov. "Qo'shimcha materiallar vositasida tasviriy ta'lim sifati va samaradorligini oshirish" – T.: 2016.
3. N.X.Begmatova, M.Aripov. Multimediya texnologiyasidan foydalanan. – T.: 2012.
4. G.A.Amirova. "Tabiatni estetik idrok etish". – T.: 2013.

XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA TA'LIM SOHASI BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING MOHIYATI

M.Badalova, A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti MMTB boshlig'i, falsafa doktori (PhD)
T.Xalilov, mazkur institut kichik ilmiy xodimi

Данная статья посвящена изучению форм и методов управления системой образования некоторых европейских стран, которые на сегодняшний день являются лидерами в сфере образования в мире. Выявленные данные были сопоставлены и проанализированы с национальной системой управления народного образования. На основе выявленных данных разработаны научные предложения и выводы.

Ключевые слова и понятия: образование, управление, школа, директор, правление, коллегиал.

This article is devoted to the study of forms and methods of management of the education system of some European countries, which today are leaders in the field of education in the world. The revealed data were compared and analyzed with the national public education management system. Suggestions and conclusions were made based on the identified data.

Keywords and concepts: education, management, school, principal, board, collegial.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 aprel PF-5712-son bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlanishiga Konsepsiysi kabi xuquqiy-normativ hujjatlar ta'lim tizimining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shadi. Mavzuning dolzarbigidan kelib chiqib shuni ta'kidlash joizki, xalqaro talablarga asoslangan ta'lim boshqaruvida ta'lim sohasining yangi boshqaruv modellari rahbarlik uslubiga, xodimlar malakasiga, ularni faoliyatining motivatsiyasiga va yangiliklarga bo'lgan munosabatiga ulkan ahamiyat beradi. Bu boshqaruv shakllari ta'lim muassalarining ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bir qatorda uning jamiyatdagi ijtimoiy rolining o'sib borishiga, tashkilotchilik madaniyatiga, ya'ni qadriyatlar tizimiga, axloq me'yorlariga, reja va maqsadlarning ahamiyatliligidagi e'tibor qaratadi. Shuning uchun ham, butun dunyo tomonidan tan olingan davlatlar ta'lim tizimining tajribalarini o'rganish va milliy ta'lim sohaga moslash hozirgi kunning muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining mazmuni ta'lim taraqqiyotini eng ilg'or xorijiy mamlakatlar ta'limi darajasiga ko'tarish, jahon tajribasini o'rganish asosida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. O'rganilgan halqaro tajribalarning ayrim ma'lumotlari shuni ko'ssatadiki, sifat fanining asoschilari Amerikalik olim E.Deming taxminicha, tashkilotning muvaffaqiyatga erishishida 94 foizi boshqaruvchilarga va faqatgina 6 foizi xodimlarga bog'liq. J.Juran o'zining sifat bo'yicha mashhur 14 tamoyilida, sifat nuqsonlarining faqat 15 foizi aynan ish jarayoniga bog'liqligini, qolgan 85 foiz esa - ma'muriyat tomonidan ishlarning yomon tashkil etilishidan hosil bo'ladi, deb ta'kidlagan. Demak, har qanday muvaffaqiyatsizlikning zaminida boshqaruv tizimi yotadi. Bu tadqiqot natijalari ta'lim sohasiga ham tegishli. Shuning uchun ham maqolaning mazmun mohiyatini xalqaro tajribani o'rganish va mahalliy ta'lim tizimiga joriy etishdek dolzarb masalaga qaratishni lozim topdik.

Bugungi kunda butun dunyo uchun namuna vazifasini bajarayotgan ayrim davlatlardagi umumta'lim maktablari



Maktabgacha ta’lim

boshqaruv shakli hamda usullari o’rganilganda quyidagi ma’lumotlar aniqlandi:

Finlandiya. Finlyandiyada, umumiylar ta’lim misolida, maktab rahbariyati odatda direktorlar va direktor o’rinbosarları hisoblanadi. Maktabdagisi boshqaruv kollegial shaklda tashkil etilgan. Ko’pgina kichik munitsipalitetlarda maktab direktori bo’lishdan tashqari, o’quv bo’limi direktori, shuningdek, boshqa tarmoq direktorlarining vazifalarini boshqarishi mumkin; masalan, madaniy xizmatlar direktori, sport xizmatlari direktori va boshqalar. Milliy qonunchilikda direktorning vazifalari har bir maktab direktori maktab faoliyatini uchun javobgar bo’lishi kerakligi haqidagi umumiylar bilan juda keng tasvirlangan. Munitsipalitetlar kimni direktor etib tayinlashlari va ular rahbarlikni qanday tashkil qilishlarini belgilaydi. Har bir munitsipalitet ularning rahbarlari malaka oshirish, baholash va ishdan bo’shatish bo'yicha o'z qarorlarini qabul qiladi.

Rossiya. Rossiya maktablarida boshqaruv shakli so’nggi yillarda individual boshqaruv shaklidan kollegial boshqaruv shakliga o’tmoqda, shuningdek, ierarxik boshqaruv usullari ham biroz ko’zga tashlanadi hamda quyidagi shaklda amalga oshiriladi:

- birinchi daraja - direktor - bir kishilik boshqaruvni o’zida mujassam etgan va ta’lim muassasasida boshqaruvning barcha sub’ektlari tomonidan amalga oshiriladigan barcha ishlari uchun shaxsiy javobgar bo’lgan asosiy ma’muriy shaxs;

- ikkinchi daraja - ta’lim muassasasi direktorining resurslarni boshqarish bo'yicha o'rinbosarları;
- uchinchi daraja - uslubiy birlashmalar;
- to’rtinchi daraja - o’quvchilar, ota-onalar va o’qituvchilar.

Maktab direktorlari shahar kengashlari tavsiyasiga binoan tayinlanadi.

Germaniya. Germaniya maktablarida boshqaruv faoliyatiga direktordan tashqari uning o’rinbosarları, shuningdek, maktab o’quvchilaridan iborat, “Kengaytirilgan yetakchilar jamoasi” hamda cheklangan vakolatlarga ega bo’lgan boshqaruv qo’mitasi ham ishtirok etishi mumkin. Bu xususiyatlar nemis maktablarida kollegial boshqaruv tizimi mavjudligini ko’rsatadi.

Germaniyadagi maktab direktorlari odatda (tajribali) o’qituvchilardir. Ular odatda maktab direktori yoki direktor o’rinbosari lavozimlari uchun murojaat qilishadi va mas’ul ta’lim vazirligi tomonidan o’rganiladi va tayinlanadi.

Daniya. Daniya ta’lim tiziminining o’ziga xos xususiyati uning markazlashtirilmaganligi bo’lib, mahalliy va maktab darajasida resurs qarorlarini qabul qilishda yuqori darajadagi mas’uliyat mavjud. Bu maktab direktorlari foydalanadigan avtonomiyalar maktab byudjetlarini, shu jumladan xodimlarni boshqarishda yaqqol ko’rindadi. Maktabni boshqarishda kollegial model bilan bir qatorda sub’ektiv modeldan ham foydalaniлади, ya’ni o’quvchilar va pedagogik jamoa uchun direktor mas’ul hisoblanadi. Direktor bilan birgalikda maktab boshqaruvida ota-onalar va jamoatchilik vakillaridan tuzilgan Kengash ham ishtirok etadi.

Maktab direktorlarini tayinlash maktab joylashgan hududdagi ota-onalar hamda maktab o’qituvchilarining fikrlarini umumlashtirgan holda mahalliy hokimiyat tomonidan tayinlanadi.

Fransiya. Fransiyada maktab boshqaruvni o’ziga xos. Barcha maktablarda ota-onalar vakillari, o’qituvchilar, ta’lim organlari va o’quvchilardan iborat maktab kengashi mavjud. Maktab kengashi cheklangan vakolatlarga ega, ammo kuchli maslahatchi rolga ega. Yiliga uch marta yig’ildi. Maktab kengashining raisi - maktab rahbari. Ota-onalar har yili maktabda o’qiyotgan bolalarning ota-onalarini orasidan yashirin ovoz berish yo’li bilan saylanadi. Yuqorida keltirilgan ushbu xususiyatlar fransuz maktablarida boshqaruv kollegial model asosida boshqarilishini ko’rib o’tishimiz mumkin. Maktablar uchun kundalik boshqaruv mas’uliyati Bosh direktorga yuklangan. Mahalliy tartibga qarab, direktorlar o’qituvchilar tarkibiga kirishlari yoki bo’imasligi mumkin. Borgan sari ular to’la vaqtli menejerlarga aylanishmoqda.

Bosh o’qituvchi boshlang’ich maktabni boshqaradi. U maktabning to’g’ri ishslashini ta’minlaydi va maktab ichidagi mulk va odamlar uchun javobgarlikni o’z zimmasiga oladi.

Maktab direktorlari mahalliy kengashlar tomonidan tayinlanadi.

Belgiya. Belgiyada maktab ta’lim tizimi turli tillarda ta’lim oluvchilar uchun turli ko’rinishlarda tashkil qilingan, bu ko’proq mahalliy xususiyatlardan kelib chiqadi. Ammo butun mamlakat uchun umumiylar bo’lgan boshqaruv shakli ham bor. Bunda maktab tizimida direktorlar katta rol o’ynaydi. Ammo shunga qaramasdan Belgiyada maktablar kollegial model orqali boshqariladi. Maktab direktorlari boshqaruvni maktab kengashlari orqali amalga oshiradi. Maktablar tarmoqlarida direktorlarni tanlash va tayinlash har xil. Ba’zi tarmoqlar, masalan, xususiy maktablarda ish o’rinlari intervyular va hatto baholash markazlarini o’z ichiga olgan rasmiy tanlash jarayonlaridan foydalananadi.

Direktorlar odatda shahar munitsipalitetlari tomonidan tayinlanadi. Xususiy maktablarda esa maktab egasi direktorni mustaqil tanlay oladi.

Angliya. Angliyada maktab boshqaruv organi kollegial model asosida tashkil etilgan ixtiyoriy jamoat birlashmasi bo’lib, u boshqaruv muammolarini hal qilishda maktab ma’muriyatiga yordam berishni maqsad qilib qo’yadi va boshqa tomondan, unga qarshi o’ziga xos muvozanat vazifasini bajaradi. Angliya maktablarida Kengash maktab ma’muriyatini almashtirmaydi va unga qarshi chiqmaydi, balki umumiylar maqsadlarga optimal erishish uchun u bilan birlikda harakat qiladi.

Kengash (uning soni 20 kishigacha bo’lishi mumkin) o’qituvchilarini va maktab jamoasining boshqa vakillarini ham o’z ichiga oladi (bu qo’riqchi, kutubxonachi, hatto farrosh bo’lishi mumkin). Odatda maslahatning kamida beshdan biri ota-onalardir. Maktabning homiylari bo’lsa, ularning o’zlarini yoki vakillari ham kengash tarkibiga kiradi. Kengash, xususan, moliyaviy siyosat, homiylik mablag’laridan foydalanish masalalarini muhokama qiladi.

Maktab direktorlari boshqa yevropa davlatlaridagidek mahalliy kengashlar tomonidan tayinlanadi.

Estoniya. Estoniyada ta’lim va tadqiqot vazirligi maktab va ta’lim ustidan milliy nazoratni amalga oshiradi, ta’lim muassasalarini faoliyatini hamda milliy o’quv dasturlariga rioya etilishini va boshqa ta’lim standartlari nazorat qiladi. Maktablarning boshqaruv tizimi kollegial tuzilishga ega bo’lib, quyidagi shaklga ega:

- Vasiylik kengashi: maktab egasi, o’qituvchilar kengashi va a’zolarining ko’pchiligi ota-onalar vakillari, bitiruvchilar va qo’llab-quvvatlovchi tashkilotlar maktab (va bular maktab xodimlari bo’imasligi kerak); vakili agar mavjud bo’lsa, o’quvchilar kengashi bo’lishi mumkin;

- O’qituvchilar kengashi: Maktab akademik xodimlar.

- Boshqaruv organi: maktab rahbari va maktab kengashi

- Maslahat organi: maktab va jamiyatni bog’laydigan kamida yetti a’zodan tashkil topgan.

Maktab direktori 2 xil usulda tayinlanadi: davlat maktablarida direktorlarni ishga qabul qilish mahalliy shahar kengashi yoki shahar meri tomonidan, xususiy maktablarda esa maktab egasi tomonidan amalga oshiriladi.

Dunyo miqyosidagi ayrim yevropa davlatlarining ta’limda boshqaruv sohasida amalga oshirilgan ishlarini hamda qo’llanilayotgan modellarini tahlil qilgan holda shuni aytish mumkinki, ta’lim muassasalarini jamoaviy boshqarish yakka shaxs boshqaruviga qaraganda ancha yaxshi natijalar ko’rsatadi hamda ta’limda ochiqlik, tenglik va shaffoflik tamoyillarini ta’minlashga imkon yaratadi.

O’zbekistonda maktab direktori yakkabosh rahbar bo’lsa ham, u o’z faoliyatida o’qituvchilar jamoasiga va maktabning mahalliy organi-pedagogika kengashiga, shuningdek, maktab kasaba uyushmasi tashkilotiga suyanadi. Umumta’lim maktab direktorlari 2021 yil 1 yanvardan boshlab maktab direktorlarini lavozimga



tayinlash va lavozimdan ozod qilish tartibi hokimlar boshchiligidagi mahalliy xalq deputatlari kengashi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Bu Respublika Prezidentining 2020-yil 6 noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi rivojlanish davrida ta’lim va tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” farmonida belgilangan bo‘lib, bunda:

- hududiy xalq ta’limi boshqarmalari tomonidan ko‘rsatilgan maktab direktorlarining bo‘sh lavozimlariga nomzodlar tuman (shahar) kengashlari tomonidan tanlov orqali tanlanadi;

- maktab direktori lavozimiga nomzodlar ushu tanlovda o‘zlarining maktablari faoliyatini keyingi uch yil ichida yuqori darajaga ko‘tarish dasturi bilan qatnashadilar;

- kengashlar tanlov natijalariga ko‘ra eng yaxshi uch yillik dasturlarning ishlab chiquvchilarini tanlaydilar va tegishli lavozimlarga tayinlash uchun hududiy xalq ta’limi bo‘limlariga topshiradilar;

- kengash tomonidan tanlangan nomzodlar umumta’lim maktablari direktorlar lavozimiga hududiy xalq ta’limi bo‘limlari tomonidan tayinlanadi;

- yil oxirida umumta’lim maktablari direktorlari kengash va jamoatchilik vakillari oldida uch yillik dasturning bajarilishi to‘g‘risida hisobot berishadi, ushu hisobot natijalariga ko‘ra kengash uning faoliyatini baholaydi.

Mazkur farmon asosida Xalq ta’limi vazirining “Umumta’lim muassasalari direktorlari lavozimiga nomzodlarni dastlabki tarzda saralab olish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 202-tonli buyrug‘i qabul qilinib, bugungi kunga qadar, hududiy xalq ta’limi boshqarmalari tomonidan 1144 ta umumta’lim maktablarining vakant direktor lavozimiga yangi tartibga asosan dastlabki saralashdan o‘tgan nomzodlar Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga tavsiya etilgan bo‘lib, shundan tegishli Kengash qaroriga asosan tanlovdan o‘tgan munosib nomzodlar umumta’lim maktabiga direktor lavozimiga tayinlangan.

O‘rganigan xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab mamlakatlarda maktablarni boshqarishning kollegial usuli ma‘qul ko‘rilgan va bu maktab faoliyatini demokratik boshqarishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ota-onalar vakillarini boshqaruvda ishtirok etishi esa bevosita ta’lim-tarbiya jarayonlarini nazoratga olishda va boshqaruv tizimni takomillashtirishda muhim tayanch bo‘ladi. Yuqorida sharh berib o‘tilgan Respublikada xalq ta’limi tizimida umumta’lim maktabi direktorlarini tayinlashning yangi Tartibining quyidagi ijobji tomonlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- Ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida shakllanganligi;
- Har qanday o‘z tajribasi va bilimiga ishongan pedagog o‘z nomzodini qo‘yishi mumkinligi;

- Maktabni rivojlantirish “Dastur”i ishlab chiqilib, Xalq deputatlari tuman kengashi oldida himoya qilinishi va “YouTube”

ijtimoiy tarmog‘ida namoyish etilishi;

- Talabgorning xalq ta’limi sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bilish darajasi, IQ, EQ, menejerlik ko‘nikmalarini baholovchi test sinovi o‘tkazilishi;

- Internet tarmoqlarida nomzod to‘g‘risida uchinchi taraf bergen xolis baholar va fikrlarni o‘rganish imkon;

- Nomzodning himoya qilgan dasturi bajarilishi bo‘yicha har yili hisobot berishi kabilar salohiyatlari va zamon talabiga javob bera oladigan kadrlarni tanlashda va tayinlashda muhim omil bo‘la oladi.

Adabiyotlar

1. “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6108-son. 2020 yil 7 noyabr.

2. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5712-son. 2019 yil 29 aprel

3. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni, O‘RQ-637-son, 2020-yil 24-sentyabr.

4. Xalq ta’limi vazirining 2021 yil 30 iyundagi “Umumta’lim muassasalari direktorlari lavozimiga nomzodlarni dastlabki tarzda saralab olish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 202-tonli buyrug‘i;

5. Santiago, Paulo, yet al. (2016), “School organisation and operating schools in Estonia”, in OECD Reviews of School Resources: Estonia 2016, OECD Publishing, Paris

6. Pasi Sahlberg. Yeducation policies for raising student learning: the Finnish approach. World Bank, Washington, DC, USAJournal of Yeducation Policy Vol. 22, No. 2, March 2007.

7. Nusche, Deborah, yet al. (2016), “Management of the teaching workforce in Denmark”, in OECD Reviews of School Resources: Denmark 2016, OECD Publishing, Paris.

8. Герасимова Г.Е. Э.Деминг // Стандарты и качество. 1999 №1.

Internet saytlari:

1. <https://www.yeducationestonia.org/about-yeducation-system/>

2. <https://okm.fi/yen/yeducation-system>

3. <https://yeducationusarussia.org/russian-school-yeducation-system/>

4. <https://www.studying-in-germany.org/german-yeducation-system/>

5. <https://www.studying-in-france.org/french-yeducation-system/>

6. <https://denmark.dk/society-and-business/lifelong-yeducation>

7. <https://www.belgiumeducation.info/yeducation-system>

8. <https://www.brightworldguardianships.com/yen/guardianship/british-yeducation-system/>

9. info@gazeta.uz

UMUMTA’LIM MAKTAB O‘QUVCHILARINI KASBGA YO‘NALTIRISHNING ANDIJON VILOYATIDAGI TAHLILI

M.Sh.Mansurov, A.Avlonyi nomidagi xalq ta’limi muammolarini o‘rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

В данной статье представлены результаты исследования, проведенного в Андижанской области по изучению уровня профессиональной компетенции психологов общеобразовательных школ, а также состояние организации профориентационных работ с учащимися.

Ключевые слова и понятия: классификатор профессий, профессиональная направленность, талант, способность, традиционная профессия, психологическая диагностика.

This article presents the results of a study conducted in the Andijan region to study the level of professional competence of psychologists in secondary schools, as well as the state of organization of career guidance work with students.

Keywords words and concepts: occupational classifier, career orientation, talent, ability, traditional occupation, psychological diagnosis.



Kasb-hunarga yo'naltirish nazariyasi va amaliyoti

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning iqtidor va qobiliyati, qiziqish, iqtidor va iste'dodini inobatga olgan holda kasbga yo'naltirish va bu borada o'quvchilarning psixodiagnostikasini yuritib borish hamda to'g'ri yo'naltirish nafaqat ma'lum mакtab strategik fan yo'nalishlarini aniqlashga, shuningdek mamlakatning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, bugun mehnat bozorida insonga kapital sifatida baho berish boshlangan. Insonga kapital sifatida baho berish uchun avvalo u malakali mutaxassis bo'lishi lozim. O'quvchilarni kelajak kasblariga yo'naltirish hamda malakali kadr sifatida oliv o'quv yurtlarida emas aksincha mакtab davridayoq shakllanishimi inobatga oladigan bo'lsak, bu bilim va ko'nikmalarni shakllantiruvechi psixolog va texnologiya fani o'qituvchilarini o'mi va roli yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Uzlusiz ta'lum tizimini shakllantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad ham eng avvalo mamlakat taraqqiyoti va xalq farovonligiga xizmat qila oladigan kadrlarni tayyorlashga ahamiyat qaratishdir. Jahon iqtisodiyotning to'rtta muhim sektori neft-gaz, kimyo sanoati, avtomobilsozlik hamda turizm sohalari asosan aniq va tabiiy fanlar negizida shakllanadi. O'zbekistonda ham ushbu fanlarni o'qitish samaradorligini oshirish orqali o'quvchilarni kelajak kasblarga yo'naltirish muhim vazifalardan biri ekanligi tadqiqot natijasida aniqlangan.

Maktab psixologlari va fan o'qituvchilarining qay darajada o'z kasbining egasi ekanligi, kasbiy ko'nikmasi, savodxonlik darajasi, malakasi, majburiy mehnat ko'rinishlariga samarali kurash olib borish masalalari hamda psixologlarni qiynab kelayotgan muammolar Andijon viloyatida olib borilgan sotsiologik tadqiqotlar natijasida aniqlandi. Tadqiqot davomida STEAM laboratoriyaning o'quvchilarni kasbga yo'naltirishdagi ahamiyat, texnologiya xonalarining bugungi kun talablariga javob berishi masalalari ham o'rganildi.

Maktabingizning amaliyotchi psixologi o'z ishining mutaxassisimi? – savoliga respondentlarning 53 foizi ha, diplomi bo'yicha psixolog, 17 foizi ha, diplom bo'yicha psixolog, ammo tajribasi yetarli emas, 10 foizi yo'q, boshqa fandan ham dars beradi bu qo'shimcha ishi, 0 foizi yo'q, boshqa fandan ham dars beradi bu qo'shimcha ishi, 0 foizi menga qiziq emas degan javoblarni ko'rsatib o'tgan. Andijon viloyati hududiy malaka oshirish markazi respondentlarning 55,6 foizi ha, diplomi bo'yicha psixolog, 18,5 foizi ha, diplom bo'yicha psixolog, ammo tajribasi yetarli emas, 18,5 foizi yo'q, boshqa fandan ham dars beradi bu qo'shimcha ishi, 18,5 foizi yo'q, boshqa fandan ham dars beradi bu qo'shimcha ishi, 0 foizi menga qiziq emas degan javoblarni ko'rsatib o'tgan.

Maktabingizda faoliyat olib borayotgan amaliyotchi psixologlar kasbiy salohiyatga, yetarli darajada bilim, ko'nikma, malakaga egami? – savoliga respondentlarning 45 foizi ha, kuchli psixolog, nafaqat o'quvchilar balki o'qituvchilar bilan ham ish olib boradi, 22 foizi ha, kuchli mutaxassis, ammo buni amaliyotda yetkazib berolmaydi, 2 foizi yo'q, yetarli darajada emas, o'quvchilar bilan ham til topisha olmaydi, 6 foizi yo'q, malakali mutaxassis deya olmayman, unda tajriba yetishmaydi degan javoblarni ko'rsatib o'tgan. Andijon viloyati hududiy malaka oshirish markazi respondentlarning 44,4 foizi ha, kuchli psixolog, nafaqat o'quvchilar balki o'qituvchilar bilan ham ish olib boradi, 37 foizi ha, kuchli mutaxassis, ammo buni amaliyotda yetkazib berolmaydi, 0 foizi yo'q, yetarli darajada emas, o'quvchilar bilan ham til topisha olmaydi, 11,1 foizi yo'q, malakali mutaxassis deya olmayman, unda tajriba yetishmaydi degan javoblarni ko'rsatib o'tgan.

Respondentlarning 45 foizi ha, kuchli psixolog, nafaqat o'quvchilar balki o'qituvchilar bilan ham ish olib boradi degan ta'rifga e'tibor qaratamiz. 500-1 koeffitsientda (bu albatta minimal ko'rsatkich bo'lib) ishlaydigan psixolog, aslida hech qanday samaraga erishishi mumkin emasligi ma'lum. Chunki o'ziga-o'zi

baho berish bo'lsa ham bu darajada katta baho berish noto'g'ri hisoblanadi. Xorij mamlakatlari tajribasini inobatga olsak, 500/1 shtat birlik to'g'ri kelsa-da, psixolog yordamchisi shtat birligi, shuningdek, kasbga yo'naltiruvchi mutaxassis ham ish olib boradi. Bunday tajriba Germaniya, Finlyandyva Buyuk Britaniya singari davlatlarda kuzatiladi. 22 foizi ha, kuchli mutaxassis, ammo buni amaliyotda bera olmaydi deb hisoblagan. Agar psixolog o'z bilimini kimgadir yetkazib bera olmasa, gap auditoriyada emas balki uning o'zida ekanligi ma'lum bo'ladi. 2 foizi yo'q, yetarli darajada emas, o'quvchilar bilan ham til topisha olmaydi deb fikr bildirgan. 6 foizi yo'q, malakali mutaxassis deya olmayman, unda tajriba yetishmaydi degan javoblarni ko'rsatib o'tgan. Bu esa psixologlarning o'zi tomonidan berilgan baho ekanligini inobatga olsak, psixologlar oylik ishlarini ham tabaqalashtirish tizimiga o'tkazish lozim. Bu o'z navbatida psixologlarni o'zlar ustida ishlash imkonini oshiradi.

Sizning mакtabingizda amaliyotchi psixologlarga rahbariyat tomonidan qo'shimcha vazifalar yuklatiladimi? – savoliga respondentlarning 44 foizi ha, yuklatiladi, rahbar ish beruvchi, 32 foizi yo'q, faqat o'z ishi bilan shug'ullanadi, 0 foizi bir narsa deya olmayman, psixologimiz kuchli mutaxassis qo'shimcha ishlariga vaqt ham bo'lmaydi degan javoblarni ko'rsatib o'tgan. Hududiy malaka oshirish markazi respondentlarning foizi 37 ha, yuklatiladi, rahbar ish beruvchi, 55,6 foizi yo'q, 0 foizi faqat o'z ishi bilan shug'ullandi, 0 foizi bir narsa deya olmayman ikkilanyapman, psixologimiz kuchli mutaxassis qo'shimcha ishlariga vaqt ham bo'lmaydi degan javoblarni ko'rsatib o'tgan. Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT)14 ta, jumladan, 8 ta asosiy konvensiyasi, shuningdek, bolalar mehnati va majburiy mehnatga qarshi kurashishga doir konvensiyasi O'zbekistonda ham ratifikatsiya qilingan bo'lib, uni hayotga tatbiq etishga doir milliy harakatlar rejasি qabul qilindi, mazmuni va mohiyati XMT metodologiyasi bo'yicha milliy mehnat qonunchiligini va mehnat bozorini rivojlantirishga, bandlikni, ijtimoiy muhofazani va aholi bilan muloqtoni ta'minlashga yo'naltirilgan Munosib mehnat bo'yicha mamlakat dasturi bajarilmoxda. Ushbu Tashkilot ekspertlarining bevosita ishtirokida qishloq xo'jaligidagi bolalar mehnati va majburiy mehnatdan foydalish monitoringi olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini Senatining "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalariiga va xalqaro mehnat standartlariga muvofiq fuqarolarning kafolatlangan mehnat huquqlarini ta'minlashga doir chora-tadbirlarni kuchaytirish to'g'risida" 2017-yil 4-oktabrdagi SQ-231-III-son qarori bilan bolalar mehnati va majburiy mehnatdan biron-bir shaklda foydalishning oldini olish va bunga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ushbu yo'nalishda kompleks tashkiliy-amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan parlament nazorati instituti joriy etildi. Ko'rilgan chora-tadbirlar bolalar mehnatiga to'liq barham berish, shuningdek, majburiy mehnatning oldini olish va bunga yo'l qo'ymaslik uchun yetarli normativ-huquqiy bazani shakllantirish imkonini berdi, bu jahon hamjamiyati, xususan, XMT, Jahon banki va Yevroparlament tomonidan yuqori baholandi. Shu bilan birga, so'nggi paytda barcha darajadagi hokimlar tomonidan ta'lum, sog'liqni saqlash sohalari va boshqa budjet tashkilotlari xodimlarini hududlarni obodonlashtirish, shuningdek, qishloq xo'jaligidagi turli ishlariga majburiy jaib qilish shaklida mehnat qonunchiligi normalarini bузish bilan bog'liq ayrim holatlar kuzatilmoqda. Mansabdor shaxslarning xizmat mavqeyini suiiste'mol qilish, yuqorida qayd etilgan shaxslarni qo'rqtish, ularga nisbatan haqoratli so'zlarni va hattoki, kuch ishlatish holatlari ham qayd etilmoqda. Ushbu holat bunday ishlarini bajarishga majburlash davomida mazkur ishlariga jaib etilgan shaxslarning jarohat olishiga va ayrim hollarda halok bo'lishiga sabab bo'layotgan ko'ngilsiz voqealar ro'y berayotgani bilan yanada murakkablashmoqda. Mahalliy davlat organlari mansabdor shaxslarining bunday xatti-harakatlari respublikaning qonun hujjalari talablariga zid bo'lib, uning jahon maydonidagi



nufuziga putur yetkazmoqda, mamlakat Hukumati ishiga, birinchi navbatda, bilimli va sog'lom barkamol avlodni tarbiyalashga katta zarar yetkazmoqda, ijtimoiy-siyosiy hayotni isloh qilish va hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni yaxshilashga qaratilgan barcha sa'y-harakatlarni obro'sizlantirmoqda. Bundan buyon bu kabi salbiy holatlarga yo'l qo'ymaslik, davlat organlari ishidagi tizimli kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga jalb qilish holatlariga to'liq barham berilmoxda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va boshqa qonun hujjalarda fuqarolarning mehnat huquqlari kafolatlangani, har qanday shakldagi majburiy mehnatdan foydalanish, biron-bir jazo qo'llanishi bilan qo'rqtigan holda ishlarni bajarishga majburlashni taqiqlovechi normalar mustahkamlanganini e'tiborga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, shaharlar va tumanlar hokimlari, barcha darajalardagi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlari: fuqarolarni, jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash muassasalarini, boshqa budjet tashkilotlari xodimlarini, ta'lim muassasalarini o'quvchilari va talabalarni majburiy mehnatga, shu jumladan tuman va shaharlar hududlarini obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish ishlari, mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlari, metall chiqindilarini va makulatura yig'ish, shuningdek, boshqa turdag'i mavsumiy ishlarga jalb qilish holatlarini zudlik bilan oldini olish va bunga chek qo'yish belgilandi. Ammo Sizning maktabingizda amaliyotchi psixologlariga rahbariyat tomonidan qo'shimcha vazifalar yuklatiladimi?

– savoliga respondentlarning 44 foizi ha, yuklatiladi, rahbar ish beruvchi deb fikr bildirgan. Bu majburiy mehnat tushunchasi va hashar tushunchalari o'rtasida aloqadorlik va o'zaro farqlar Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10 maydagi "O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 349-son qarorida belgilandi.

Majburiy mehnat – aniqlansin va bartaraf etilsin. Xodimlarni, xususan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasi, boshqa budjet va o'zga tashkilotlar xodimlarini, talabalar va o'quvchilarni majburiy mehnatga jalb qilishning barcha holatlariga chek qo'yiladi. Bu tuman va shaharlar hududlarini obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish ishlari, metall chiqindilarini va makulatura yig'ish, mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlari, boshqa turdag'i ishlarga ham taalluqli. Fuqarolarni majburiy jamoat ishlariaga bevosita yoki bilvosita jalb qilgan mansabdor shaxslarga nisbatan qat'iy intizomiy choralar qo'llaniladi. Har bir holat bo'yicha javobgarlik choralarini qo'llash maqsadida tegishli axborot huquqni muhofaza qilish organlariga zudlik bilan ma'lum qilinadi. Hashar faqat ixtiyoriy asosda o'tkaziladi. Uning tashkilotchisi kimligiga qarab qo'shimcha talablar belgilanadi. a) davlat organlari va boshqa tashkilotlar: umumxalq hasharini o'tkazish to'g'risidagi Prezidentning tegishli hujjati yoki Vazirlar Mahkamasining qarori ular uchun majburiy tusga ega. Odatda, ular davlat bayramlari arafasida chiqariladi (misolga qarang); hashar qatnashchilari ishlaydigan tashkilot hududining o'zida, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik normalariga rioya etgan holda o'tkaziladi; obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, ish joylarini tartibga keltirish bo'yicha ishlar bajariladi. Boshqa turdag'i jamoatchilik ishlarni, shu jumladan qurilish-ta'mirlash va qishloq xo'jaligi ishlarni bajarishga majburlash qat'iyan taqiplanadi. b) fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari aholini faqat tegishli mahalla hududidagi ishlarga jalb etishlari mumkin. Bunda quyidagi turdag'i ishlarni bajarishga yo'l qo'yiladi: obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish; bolalar, sport maydonchalarini jihozlash; moddiy madaniyat meros obektlarini soz holatda saqlash; dafn etish joylarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va soz holatda saqlash. Bu – muhim! Avtomobil yo'llari, harakatlanish tig'iz bo'lgan ko'chalar, suv obektlari, qirg'oq bo'yи hududlar va

zonalar, qurilish maydonlari, bino va inshootlar tomlari, xavfli ishlab chiqarish obektlari, shuningdek, insonlarning hayotiga yoki sog'lig'iga xavf tug'ilishi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan boshqa joylarda ixtiyoriy tashabbus bilan hasharlar va boshqa ishlarni o'tkazish taqiplandi.

Maktabda amaliyotchi psixologlar tomonidan kasbga yo'naltirish bo'yicha hamkorlikda ishslash tizimi yo'lga qo'yilganmi? – savoliga respondentlarning 57 foizi ha, psixologimiz mahalla, ota-onalar, yuqori tashkilotlar bilan hamkorlik ishlarni olib boradi, 5 foizi yo'q, hamkorlik qilmaydi, xonasidan chiqmay o'tiradi, 15 foizi psixologlarimiz reja asosida har bir sinf, ota-onalar, o'qituvchi, sinf rahbarlar bilan doimiy ish olib boradi, 1 foizi hech kuzatmagan ekanman degan javoblarni ko'rsatib o'tgan. Hududiy malaka oshirish markazi respondentlarning 59,3 foizi ha, psixologimiz mahalla, ota-onalar, yuqori tashkilotlar bilan hamkorlik ishlarni olib boradi, 3,7 foizi yo'q, hamkorlik qilmaydi, xonasidan chiqmay o'tiradi, 25,9 foizi psixologlarimiz reja asosida har bir sinf, ota-onalar, o'qituvchi, sinf rahbarlar bilan doimiy ish olib boradi, 3,7 foizi hech kuzatmagan ekanman degan javoblarni ko'rsatib o'tgan. Baliqchi tumani respondentlarning 77,3 foizi ha, psixologimiz mahalla, ota-onalar, yuqori tashkilotlar bilan hamkorlik ishlarni olib boradi, 9,1 foizi yo'q, hamkorlik qilmaydi, xonasidan chiqmay o'tiradi, 4,5 foizi psixologlarimiz reja asosida har bir sinf, ota-onalar, o'qituvchi, sinf rahbarlar bilan doimiy ish olib boradi, 0 foizi hech kuzatmagan ekanman degan javoblarni ko'rsatib o'tgan. Qo'rg'ontepa tumani respondentlarning 68,2 foizi ha, psixologimiz mahalla, ota-onalar, yuqori tashkilotlar bilan hamkorlik ishlarni olib boradi, 13,6 foizi yo'q, hamkorlik qilmaydi, xonasidan chiqmay o'tiradi, 9,1 foizi psixologlarimiz reja asosida har bir sinf, ota-onalar, o'qituvchi, sinf rahbarlar bilan doimiy ish olib boradi, 0 foizi hech kuzatmagan ekanman degan javoblarni ko'rsatib o'tgan.

Maktabda amaliyotchi psixologlar tomonidan kasbga yo'naltirish bo'yicha hamkorlikda ishslash tizimi yo'lga qo'yilganmi? – savoliga 57 foizi ha, degan javobni tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu hamkorlik ishlarni aslida samarasiz deb baholash mumkin. Chunki ota-onalar, mahalla xodimlarida kasblar bo'tg'risida ma'lumotlar, bolalarning iqtidor va qobiliyatini aniqlash bo'yicha tushuncha yetarli emas. Buni esa o'quvchilarni iqtidorini aniqlashga yo'naltiradigan media ma'lumotlarni muttzazam berib borish orqali shakllantirish mumkin.

Kasb tanlashning muvaffaqiyati ko'p jihaddan o'quvchining psixologik tayyorgarligi bilan bog'liqmi? – savoliga respondentlarning 60 foizi ha, bog'liq chunki u o'z kelajagi haqida obdon o'laydi, 17 foizi ha, bog'liq o'zi yoqtirgan kasbni tanlash o'z ixtiyorida, 1 foizi yo'q, bog'liq emas, 2 foizi jamiyatda kasblarga bo'lgan ehtiyoj asosida tanlash mumkin degan javoblarni ko'rsatib o'tgan. Hududiy malaka oshirish markazi respondentlarning 74,1 foizi ha, bog'liq chunki u o'z kelajagi haqida obdon o'laydi, 18,5 foizi ha, bog'liq o'zi yoqtirgan kasbni tanlash o'z ixtiyorida, 0 foizi yo'q, bog'liq emas, 0 foizi jamiyatda kasblarga bo'lgan ehtiyoj asosida tanlash mumkin degan javoblarni ko'rsatib o'tgan.

O'quvchini psixologik tayyorgarlik darajasi uning psixologik bilimlari natijasida shakllanadi. Psixologik bilimlar o'quvchiga maktab davrida berilmaydi. Kasbga yo'naltiruvchi fanlar ham xalq ta'limida amalga oshirilgan qisqartirilishlar davrida soatlar qisqartirilgan. 2021-2022 o'quv yilidan o'quvchilarni kasbga yo'naltiruvchi soatlar texnologiya fani tarkida qaytarilmoqda. 17 foizi ha, bog'liq o'zi yoqtirgan kasbni tanlash o'z ixtiyorida deb belgilagan bo'lsa-da, amalda o'quvchi yoqtirgan kasbi haqidagi



tushuncha qaerda shakllangan. U kasbni yoqtirishi mumkin. Ammo unga iqtidori bormi, yoki qobiliyatini shakllantirish kerakmi? Bu savollarni aniqlashtirish lozim.

Maktabda texnologiya fani o'qituvchilarni faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilmaganmi? – savoliga Andijon viloyati respondentlarning 52 foizi ha, albatta, to'g'ri yo'lga qo'yilgan, 0 foizi ha, STEAM laboratoriyalari asosida yo'lga qo'yilgan, 11 foizi albatta, ular kasbga yo'naltiruvchi hisoblanadi-ku, 9 foizi yo'q, umuman yo'lga qo'yilmagan degan javoblarni ko'rsatib o'tgan. Andijon viloyati hududiy malaka oshirish markazi respondentlarning 63 foizi ha, albatta, to'g'ri yo'lga qo'yilgan, 0 foizi ha, STEAM laboratoriyalari asosida yo'lga qo'yilgan, 25,9 foizi albatta, ular kasbga yo'naltiruvchi hisoblanadi-ku, 3,7 foizi yo'q, umuman yo'lga qo'yilmagan degan javoblarni ko'rsatib o'tgan. Andijon viloyatida 52 foiz texnologiya xonalari jihozlangan deb xulosa bermoqda. Ammo shuni qayd etish lozimki, texnologiya xonalari ma'nun eskirgan jihoz va ko'rgazmali vositalardan iborat ekanligini ko'rish mumkin. STEAM laboratoriyalari mavjud emas deb ko'rsatib o'tmoqda. Ammo so'zma-so'z tarjimasiga e'tibor qaratsak, bunday laboratoriya bo'lnasa-da, tarqoq ko'rinishda bo'lsa-da bor. S-tabiiy fan, T-texnologiya, Ye-injenerlik, A-san'at, M-matematika bu umumi yagona bitta majmua sifatida emas, alohida ko'rinishda har bir maktabda mavjud. 11 foizi albatta, ular kasbga yo'naltiruvchi hisoblanadi-ku deb belgilagan. Ammo texnologiya o'qituvchilarini kasbga emas ko'proq hunarga yo'naltirishga harakat qiladi. Hunarni o'rgatish esa maktablarda san'at darajasiga ko'tarilmagan.

Sizning maktabingizda texnologiya fani xonalarida yetarli sharoit yaratilganmi? – savoliga Andijon viloyati respondentlarning 58 foizi eski bo'lsa ham jihozlar va dastgohlar bor, 13 foizi yo'q, umuman sharoit mavjud emas, 7 foizi ba'zi

bir narsalar bor, umuman yoq deya olmayman, 0 foizi STEAM laboratoriya xonalari asosida moslashtirilgan degan javoblarni ko'rsatib o'tgan. Andijon viloyati hududiy malaka oshirish markazi respondentlarning 74,1 foizi eski bo'lsa ham jihozlar va dastgohlar bor, 3,7 foizi yo'q, umuman sharoit mavjud emas, 14,8 foizi ba'zi bir narsalar bor umuman yoq deya olmayman, 0 foizi STEAM laboratoriya xonalari asosida moslashtirilgan degan javoblarni ko'rsatib o'tgan.

Sizning maktabingizda texnologiya fani xonalarida yetarli sharoit yaratilganmi? – savoliga Andijon viloyati respondentlarning 58 foizi eski bo'lsa ham jihozlar va dastgohlar bor. Ammo zamon talablari asosida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish hamda zamonaviy hunar turlarini o'rgatish uchun eskicha qarash va eskicha jihozlar bilan buyuk kelajakni ta'minlaydigan avlodni tarbiyalab bo'lmaydi. Agar insonga kapital sifatida qarar ekanmiz, ularni qobiliyat va iqtidorlarini to'g'ri yo'naltirilgan kasblarni tanlashga ahamiyat qaratishimiz lozim. 13 foizi yo'q, umuman sharoit mavjud emasligini ko'rsatib o'tgan. Chunki texnologiya xonalaridan ayni vaqtida sinf xonalari sifatida foydalanish holatlari ko'p uchraydi. Bu xonalar multimedia yoki hunar turlarini san'at darajasiga ko'taruvchi ko'rgazmali vositalar bilan to'ldirilmagan.

Xulosa o'mida shuni aytish lozimki, ayni vaqtida olyi ta'limga maktab o'quvchilarni jalb etish maqsadida qo'shimcha kasbga yo'naltiruvchi darslar joriy etilmoqda. Maktablarda OTMga kirish imtihonlari usulida tajriba sinov mashg'ulotlar tizimi amaliyotga joriy etilmoqda. O'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirish bo'yicha ota-onalar uchun tavsiyaviy ahamiyatga ega majburiyatlar, yo'l xaritalari ishlab chiqilmoqda. OTM ga qamrab olinmagan o'quvchilar bilan maktab emas balki Mehnat va bandlik markazlari shug'ullanadigan tizim joriy etish ustida ish olib borilmoqda.

BOLALARDA TABIATGA OID TASAVVUR VA TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHDA UZVIYLIKNI TA'MINLASH

D.F.Hamroqulova, Toshkent davlat texnika universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasiga katta o'qituvchisi

Данная статья посвящена развитию в процессе воспитания в семье детского воображения и таких понятий как природа, добро, красота, духовное воспитание.

Ключевые слова и понятия: семья, воспитание, ребенок, воображение, понимание, природа, здоровый образ жизни, доброта, психика, красота.

This article is devoted to the development in the process of education in the family of children's imagination and such concepts as nature, goodness, beauty, spiritual education.

Keywords and concepts: family, upbringing, child, imagination, understanding, nature, healthy lifestyle, kindness, psyche, beauty.

Bugungi kunda Prezidentimizning O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida jamiyat taraqqiyotining barcha jahbalarini yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ijtimoiy soha sifatida ta'limg-tarbiya jarayonlariga yangicha yondashuvlar amalga oshirilmoqda. Bu fikrimizning isboti sifatida Prezidentimizning "Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasи, avvalambor, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bog'liq" deb aytgan so'zlarini misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Mamlakatda ta'limg-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilarini va o'quvchi yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'limg tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani,

ta'limg-tarbiyaning uzviyligi va uzuksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta'limg-tarbiya tiziminining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim va ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ularda vatanga muhabbat, insonparvarlik, mehnatsevarlik milliy g'urur fazilatlarini, mustaqil fikr lash qobiliyatini o'stirishdan iborat. Bilim asoslarini egallash tabiat va jamiyat haqidagi tasavvur hamda tushunchalarni egallashdan boshlanadi. Shu bois inson erta yoshlik chog'idan olam haqida real tasavvur va ilmiy tushunchalarni o'zlashtirishi zarur. Shu nuqtai nazaridan yondashganda bolalarda tabiatga oid tasavvur va tushunchalarni ilmiy asosda izchil va uzviy shakllantirish dolzarb muammo bo'lib, maktabgacha ta'limg muassasalari va umumta'limg maktablarining muhim vazifalari jumlasiga kiradi.



O‘zbekistonni buyuk davlat darajasiga chiqarishda, bolalarimizni barkamol insonlar bo‘lib kamol topishida ilmiy bilimlarni egallashning ahamiyati benihoyadir. Mamlakatimizda asrlar davomida vujudga kelgan xalq pedagogikasi, Sharq allomalarining asarlari, islomiy g‘oyalarda ilmnning xosiyati, ilm egallashning ahamiyati haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan. Ilmiy bilimlar tizimida tabiat haqidagi tasavvur va tushunchalarini egallash dastlabki bosqich hioylanadi. Tabiiy bilimlar inson egallashi va hayotga tatbiq etishi zarur bo‘lgan bilimlarning tarkibiy qismidir.

Bolalarda tabiatga oid bilimlar birdaniga favqulodda paydo bo‘lmaydi. Ular dastlab, tabiatga doir tasavvur va tushunchalar shaklida vujudga kelib asta-sekin o‘sib rivojlanib boradigan murakkab ruhiy jarayondir. Bolalarda tabiat to‘g‘risidagi real tasavvur tushunchalarini hosil bo‘lishi uchun ularda tabiatga qiziqish va ijobji munosabat ona yerga muhabbat vatanparvarlik mehnatsevarlik sifatlarini o‘stirish zarur. Bular o‘z navbatida tabiatni muhofaza qilish tabiat boyliklaridan ehtiyyotlik bilan tejab foydalanish madaniyatini taqozo qiladi.

Tabiatni o‘rganish kuzatishlar asosida olib boriladi. Bola atrofidagi olam, tabiat hodisalarini qiziqish bilan kuzatadi, har bir narsani chuqurroq bilib olishga intiladi, u haqida so‘zlab beradi. Bu jarayonda yangi tasavvur va tushunchalar hosil bo‘ladi, nutqi o‘sadi, tafakkuri rivojlanadi. Sayohatlardan kuzatishlar natijasida bolalar tabiat hodisalarini, ulardagi o‘xshashlik va tafovutlarni bilib oladi, fikrash Natijasida tushunchalar vujudga keladi.

Tasavvur, bu - sezgi organlari faoliyatining mahsuli bo‘lib, kishining narsa va hodisalarga doir tajribasiga asoslanadi.

Tushunchashik mahsuli bo‘lib, narsa va hodisalarning muhim belgilarini umumlashtirib, birlashtirib aks ettiruvchi umumiy nomdir.

Bolalarda ona tabiatga muhabbat o‘yg‘otish - ularda tabiatni muhofaza qilish hamda tabiat boyliklaridan ehtiyyotkorona foydalanish, inson mehnati bilan yaralgan narsalarni ehtiyyotlab saqlash, mehnatni qadrash, vatanni sevish, kishilarning ijtimoiy hayoti va mehnati bilan tanishirish hamda ularda axloq madaniyatni tarbiyalashdan iborat.

Tabiat bitmas-tuganmas xazina. Jonli va jonsiz tabiat, uning turli-tuman o‘simliklar dunyosi, hayvonot olami yosh qalbning to‘g‘ri o‘sib, shakllanishida, tabiatda bo‘ladigan voqyea-hodisalarning sir-asrorlarini o‘rganib voyaga yetishda katta manba bo‘lib xizmat qiladi. Bolalar har bir narsaga qiziquvchan bo‘ladi, atrofdagi, bog‘cha va maktab hovlisidagi rang-barang gullari, sharqirab oqayotgan suvlarni, guldan-gulga qo‘nib uchayotgan kapalaklarni, betinim sayrayotgan qushlarni ko‘rib quyvaydi, yayraydi.

Bola ongingin o‘sishida jonli va jonsiz tabiatga bo‘lgan qiziqishning ortishida tevarak-atrofdagi tabiatning roli beqiyos kattadir. Shuning uchun ham bog‘cha yoshidan boshlab tabiat haqida dastlabki tushunchalarini berib borish tabiatni o‘rganishning asosiy maqsadi bo‘lib qoladi. Tabiatni o‘rganish bola yashab turgan joy tabiatini yoki jonajon o‘lkasining tabiatini o‘rganishdan boshlanadi. Bunda bolalar, avvalo, o‘zi tarbiyalanadigan bog‘cha va maktab maydonchasidagi, uning tevarak-atrofdagi o‘simlik va hayvonlar bilan, u yerning suvi, tuprog‘i, iqlimi bilan tanishadilar. Buning foydali tomoni shundaki, yosh bolalar o‘zi yashaydigan, o‘zi tarbiyalanadigan yerdagi o‘simlik va hayvonlarni har kuni ko‘radi, ularni nomini bir kunda bir necha marta eshitadi. Bulalar yodida tez qolib, uzoq saqlanadi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirar ekammiz tabiatga doir bilimlarning sodda, hayotiy, tushunarli ekanligini ham alohida esda saqlashimiz lozim. Bola atrofidagi voqyea-hodisalarini zo‘r ishtiyoy bilan kuzatadi va undan kuchli ta’sirlanadi, u haqda hayajon bilan so‘zlab beradi. Bolalar o‘zlarini qiziqtirgan narsalarni uzoqdan ko‘rish

bilangina qoniqmaydilar, uyg‘a keltirilgan narsalarni albatta ular ko‘rishni, iloji bo‘lsa uni harakatta keltirib ko‘rishni istaydilar. Shuning uchun ham ota-onalar uyg‘a olib keligan buyumlarni, predmetlarni, sabzavot, meva va hayvonlarning nomi hamda nima uchun ishlatalishi, foydali yoki zararli tomonlarini, nima uchun kerakligini tushuntirib berishlari lozim. Ana shular natijasida bolalarda kuzatuvchilik, bilimga qiziqish, tafakkur va nutq ham tarkib topadi, yangi tushunchalar hosil bo‘ladi, ularning so‘z boyligi ortadi. Bola tabiat bilan yaqindan munosabatda bo‘lib, o‘z o‘lkasini, tug‘ilib o‘sgan yerini, Vatanini yanada kuchliroq sevib qoladi. Gullarning va mevalarning hidi, shakllari ranglari, qushlarning sayrashi, ariqlarda suvning sharqirab oqishi, o‘tlarning va quruq barglarning shitirlashi bolalarga tabiatdagi narsa va xodisalarni his qilishga imkon beradi, ularda estetik hissiyotni tarbiyalash va o‘stirish uchun boy material bo‘lib xizmat qiladi.

Bolalar tabiatni o‘rganar ekanlar, tabiatdagi narsa-xodisalarning doimo bir xilda turmasligi, chunonchi, yil fasliga qarab, o‘rmon, bog‘, dala hamda daryolar tashqi ko‘rinishining o‘zgarishi, daraxtlarning gullahi, meva berishi kabi qonuniy bog‘lanishlarni bilib oladilar.

Tabiatdagi narsa va hodisalar tabiiy sabablar bilan qonuniy ravishda o‘zgarishini, mohiyatini anglab olish ayniqsa muhim. Tabiatni o‘rganish davomida har xil voqyea-hodisalar, predmetlar, jonli-jonsiz tabiat jismi, havo xossalari, vaqt haqida dastlabki tasavvur va tushunchalarga ega bo‘ladilar.

Sayohatlarda, kuzatishlar vaqtida bolalar kundalik hayotning narsalarini qabul qilib, ulardagi o‘xshashlik va tafovut belgilarni topadilar, ularda oddiy tushunchalar shakllanadi. Fikrash jarayonida bolalarda aniq tushunchalar vujudga keladi. Masalan, “bu-oq gul”, “bu daraxt”. Tushuncha, tasavvurning hosil bo‘lishida, fikrash jarayonida jism va hodisalarini tahlil qilish, sintezlash, taqqoslash va umumlashtirish katta o‘rin oladi. Fikr bevosa qabul qilish va tasavvurlar asosida shakllanadi. Masalan, “daraxt ildiz, tana, poya, barg, gullar va mevalardan iborat” degan fikr daraxtlarni kuzatish, ularning xususiyatlarni aniqlash va tahlil qilish, o‘simlikning atalgan qismlarini taqqoslash, tegishli xulosa chiqarishga asoslangan. Fikrash faoliyati jarayonida bolalarda atrof-olam to‘g‘risida tushunchalar shakllanadi. Tushuncha ochib beriladigan fikrlar yig‘indisini, uning mazmunini tashkil qiladi. Tabiat jismi yoki ob‘ektlarning birortasi to‘g‘risida bolalar qancha ko‘proq fikr aytasalar, tushunchalar mazmun jihatdan shunchalik boyroq bo‘ladi, bu fikrlarda ifodalangan belgilarni qanchalik muhimroq bo‘lsa, tushuncha mazmun jihatdan shunchalik chuqurroq bo‘ladi.

Ob‘ektiv borliqning tarkibiy qismi bo‘lgan tabiatni, undagi har xil hodisalar va jarayonlarni ko‘rish, kuzatish natijasida bolalarda yuzlab savollar tug‘iladi. Daraxtlarning o‘sib rivojlanayotganligi, yam-yashil yaproqlarga burkanib turganligi, dala-yu qirlarda o‘t-o‘lanlarning gurkirab turganligi, osmonda qushlarning parvoz etib uchayotganligini, sharqirab oqayotgan soy va anhor suvlarida xilma-xil baliqlar va boshqa jonivorlar yashayotganligini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, kuzatgan bola tarbiyachilarga qarata “Nima uchun daraxtlar gullaydi?”, “Baliqlar nima bilan ovqatlanadi?”, “Baliqlar ham uxmlaydimi?”, “Qushlar kechasi qaerda yashaydi?” degan son-sanoqsiz savollarni bera boshlaydi. Bolalar tomonidan berilayotgan savollarga ajablanmasdan, aksincha savollarni bolalarning tabiat hodisalariga qiziqishi kuchayib borayotganligi belgisi sifatida qarash kerak. Shuning uchun ham ota-onalar, tarbiyachi va o‘qituvchilar bolalar tomonidan beriladigan barcha savollarga ularning yosh xususiyatlari, saviyalarining rivojlanish darjasini inobatga olib, qisqa, sodda, aniq va tushunarli qilib javob berishlari maqsadga muvofiq. Berilgan javobni bolalar to‘la o‘zlashtira olmasliklari ham mumkin. Shunday paytda tarbiyachi



va o‘qituvchilar bolalarning tabiatga oid qiziqishlari rivojlanishini to‘xtatmaslik, ularni hijolat qilmaslik uchun “hademay sen ulg‘ayib katta bo‘lsang, ko‘plab kitoblarni o‘qiysan, bugun bilmagan va tushummaganlarining keyinchalik mukammal bilib olasan” deb ularni ishortirish lozim.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. 7 fevral 2017.

2. Mirziyoev Sh.M. Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. – T.: O‘zbekiston. 2018.

3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston”. 2017.

4. D.Abdullaeva, R.Yorqulov, N. Atabaeva. Oila psixologiyasi. – T.: 2005.

5. Rasulova Z.A. Farzand tarbiyasiga oid psixologik maslahatlar. – T.: 2014.

ISTIQBOLGA EGA BO‘LGAN HAQIQIY KASBLAR

N.K.Mamanazarova, A.Avlonyi nomidagi xalq ta’limi muammolarini o‘rganish va istiqbollarini belgilash ilmiytadqiqot instituti ilmiy xodimi

В статье представлены проблемы профессиональной ориентации выпускников общеобразовательных школ и пути их решения.

Ключевые слова и понятия: студент, работа, профессия, профориентация, будущие профессии, образование, профессиональные навыки.

The article presents the problems of vocational orientation of secondary school graduates and their solution.

Keywords and concepts: student, labor, profession, vocational orientation, demanding professions, education, professional skills.

«Yoshlar uchun eng yaxshi maslahat: o‘zingizga yoqadigan ishni va keyin buning uchun sizga pul to‘laydigan odamni toping».

Ketrin Uaytxorn

Ijtimoiy-iqtisodiy sohaning jadal rivojlanishi mehnat bozorida talabga ega bo‘lgan kasblar turlarining o‘zgarishiga olib keldi. Ba’zi kasblar mehnatining mazmuni o‘zgarib bormoqda, yangilari paydo bo‘lib, odatiy mutaxassisliklarning nomi shunchaki o‘zgarmoqda. Masalan, **marketolog** (inglizcha - bozor) - bozorni o‘rganish, tovar va xizmatlarga talabni o‘rganadi, bashorat qiladi va yaratadi, sotish istiqbollarini belgilaydi, raqobat muhitini nazorat qiladi va hokazo; **menejer** (inglizcha - menejer - boshqaruvchi). Tashkilotlarning quyi bo‘g‘inlari xodimlari faoliyatini tashkil qildi va muvofiqlashadiradi, baholaydi va rag‘batlantiradi. Xodimlar o‘rtasida ish hajmini taqsimlaydi, o‘qitadi, tushuntiradi, rahbariyat buyruqlarini yetkazadi, boshqaruv kengashi va xodimlar o‘rtasida aloqa o‘rnatadi va hokazo.

Tarixiy davr, moda va boshqa omillardan qat’iy nazar, talab qilinadigan kasblar mavjud. Bu davlatning ijtimoiy funktsiyasini amalga oshirishga yordam beradigan faoliyat turlari. Bu lavozimlarga quyidagilar kiradi:

- shifokorlar va tibbiyot xodimlari;
- farmatsevtlar;
- o‘qituvchilar va tarbiyachilar;
- o‘t o‘chiruvchilar;
- militsiya xodimlari;
- havfsizlik xodimlari;
- uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida ishlaydigan ishchilar.

Shu bilan birga, eng keng tarqalgan kasblar uchun har doim ham yuqori maosh to‘lanmaydi. So‘nggi yillarda davlat siyosati shunday yo‘lga qo‘ylmoqdaki, bu sohalarda band bo‘lganlarga munosib haq to‘lash masalasi ko‘tarilmogda. Bunday kasblardan birini tanlaganida, mutaxassis mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishiga shubha yo‘q.

Muayyan kasbni tanlashga qaror qabul qilish uchun mehnat bozorining tadtqiqot natijalarini o‘rganish lozim. Bugungi kungi ijtimoiy so‘rovnomalar shuni ko‘rsatadiki, ish beruvchi tomonidan

e’lon qilingan bo‘sh ish o‘rinlari orasida TOP variantlari quyidagi mutaxassisliklarni o‘z ichiga oladi:

- Qurilish, yuqori texnologiyali sanoat va sanoat bilan shug‘ullanadigan kompaniya va tashkilotlar uchun odatda zarur bo‘lgan texnik kasblar bo‘yicha muhandislar va mutaxassislar. So‘nggi yillarda ular eng ko‘p maosh olishgan.

- Ofislar ishini tashkil qilish, Internet-biznesni qurish va kompaniyani ilgari surish uchun bilimlari zarur bo‘lgan IT mutaxassislar (oliy ma‘lumot talab qilinmayapti).

- Ekologlar va mehnatri muhofaza qilish sohasidagi mutaxassislar. Davlat tomonidan atrof-muhitga yoki ishchilarining sog‘lig‘iga potentsial zarar etkazishi mumkin bo‘lgan faoliyatni amalga oshirishga qo‘yiladigan talablar ortib bormoqda. Katta jarimalarni to‘lamaslik va to‘g‘ri ichki faoliyatni tashkil etish uchun tashkilotlarga tegishli mutaxassislar kerak.

- Maktab fan o‘qituvchilari (ayniqsما، ta’lim tili rus tili bo‘lgan maktablar uchun) hamda bolalar bog‘chasi tarbiyachilar. Asosan, ushu lavozimlarga da‘vogarlarning kamliqi ish haqi bilan bog‘liq. Ammo bu tizimda tez fursatda lavozimga ko‘tarilish mumkinligi, nega bunday lavozimlarga yoshlar orasida talab ko‘proq bo‘lib borayotgani oydinlashadi.

- Tibbiyot xodimlari. Bular yuqori maoshli lavozimlardan uzoqdir, ammo ular davolaniш jarayonini tashkil qilish uchun zarurdir. Bunday lavozimlar hech qanday ma‘lumotga ega bo‘Imagan, ijtimoiy kafolatlarga ega bo‘lishni va ma‘lum darajada xayrlar ishlarni qilishni xohlaydiganlar uchun mos keladi.

Bugungi kunda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining milliy vakansiylar bazasida bo‘sh ish o‘rinlari uchun berilgan vakansiylar 2022-yil январ holatiga ko‘ra 84537 tani tashkil qildi.

Shulardan maktab bitiruvchilari egallashi mumkin bo‘lgan quyidagi kasb hunarlarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Nº	Kasblar	Vakansiyalar soni
1	Hamshiralik kasbi	2098
2	Hisobchi	546
3	Ustachilik	168
4	EHM operatori	155
5	Tikuvchilik	8560
6	Axborot texnologiyalri, dasturchilik	431



2025 yildan keyin qoladigan kasblar talabgor bo‘ladimi-yo‘qmi mamlakat va dunyoning muvaffaqiyatli texnologik rivojlanishiga bog‘liq. Ba‘zi kasblar avtomatlashtirilgan va robotlashtirilgan tizimlarning hujumi ostida bozorni tark etishi mumkin. Masalan, kassirlar, qog‘oz sanoati, nashriyot, arxiv va kutubxonalar, pochta xizmati, qorovullar, notariuslar, farmatsevtlar, yurist maslahatchilari va hatto yo‘l patrul xodimlari keraksizlar qatoriga kiradi.

Hozirda o‘qituvchilarning yuqori kasbiy tayyorgarlikka, pedagogik mahoratga, yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarga, mafkura borasida chucur bilimlarga ega bo‘lishi, ta’lim-tarbiya ishlarida zamonaliv pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan samarali foydalanishi davr talabi hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish, o‘quvchilarga mehnat bozori ehtiyojlari va talabgor kasblar haqida ma‘lumot berib borish kelgusi taraqqiyotimizning asosi ekanligi ma‘lum. Ilm, fan-teknika taraqqiyoti asosida kelgusi 10 yillikda talabgor kasblar ro‘yxatini taklif қиласиз :

Dasturchi

Dastur ishlab chiqaruvchisi. IT qishloq xo‘jaligi texnologiyalaridan tortib ta’lim, tibbiyat va koinot sohalarigacha bo‘lgan barcha yo‘nalishlarda rivojlanishda davom etadi. Kompyuterlashtirish faoliyatning barcha sohalariga kirib boradi va har bir yirik kompaniya o‘z dasturechilari va ishlab chiquvchilarga ega bo‘ladi. Siz dasturlash tillarini o‘rganishingiz, ilovalar yaratishingiz, raqamli xavfsizlik tamoyillarini bilishingiz kerak bo‘ladi.

Muhandis

Sanoat, qurilish, ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritadi. Muhandislikning mexanik-muhandis, gidrotexnik-muhandis, kon muhandissi, harbiy muhandis, loyihalovchi muhandis, fizik-muhandis, texnolog-muhandis, quruvchi-muhandis, irrigator-muhandis va boshqa turlari bor. Muhandislarni sanoat, transport, qurilish va xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida, axborot texnologiyalari sohasida ishlaydi.

3D-Dizayner, veb-dizayner

Zamonamizning eng talabgor mutaxassislaridan biri. Bu noldan veb-sayt yaratishi mumkin bo‘lgan professional: dizaynni ishlab chiqish, resursning funksionalligi haqida o‘ylash va keyin o‘z g‘oyalarini yakuniy loyihada amalga oshirish.

Marketolog

Bozor bo‘yicha mutaxassis. Lekin savdogarlar turli buyumlar bilan savdo qiladigan yirik maydon bo‘yicha emas. Marketolog – mohiyatga ko‘ra – bozor makonida kechadigan jarayonlarni kuzatuvchi.

Menejer

Korxona va kompaniya egalari bo‘lmagan, maxsus tayyorgarlik

ko‘rgan, boshqarishning qonun qoidalarini chucur biluvchi malakali mutaxassis — yollanma boshqaruvchi.

O‘qituvchi

O‘qituvchi, muallim — turli yo‘nalishdagi o‘rta umumiyyatda mafkura borasida chucur bilimlarga ega bo‘lishi, ta’lim-tarbiya ishlarida zamonaliv pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan samarali foydalanishi davr talabi hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish, o‘quvchilarga mehnat bozori ehtiyojlari va talabgor kasblar haqida ma‘lumot berib borish kelgusi taraqqiyotimizning asosi ekanligi ma‘lum. Ilm, fan-teknika taraqqiyoti asosida kelgusi 10 yillikda talabgor kasblar ro‘yxatini taklif қиласиз :

Shifokor

Qadim zamonlardan beri shifokorlar, ayniqsa, ular maxsus ma‘lumotga ega bo‘lsa, talabga ega. Endi yetarlicha malakaga ega bo‘lgan shifokor, ayniqsa, xususiy klinikada ishlagan holda katta daromad oladi. Jarrohlar, onkologlar va stomatologlar eng katta talabga ega.

HR mutaxassis

Ofis ish turiga ega bo‘lgan mutaxassisliklar qizlar orasida mashhurdir va shuning uchun ular bunday kasbga qiziqishadi. Inson resurslari butun dunyoda talabga ega va barcha kompaniyalar tomonidan talab qilinadi, chunki ular xodimlarni yollash uchun javobgardir. Xuddi shunday kasbni oliy o‘quv yurtlarida ham olishingiz mumkin.

Ekologlar

Dunyodagi ekologik vaziyat kundan-kunga yomonlashmoqda va shuning uchun bunday ma‘lumotga ega bo‘lgan mutaxassislar O‘zbekistonda ham, butun dunyoda ham qadrlanadi. Zararli chiqindilarga qarshi kurashning yangi usullarini ishlab chiqish, muzliklarning erishimi oldini olish - ekologlar faoliyatining bir qismidir.

Kasb tanlash juda jiddiy masala bo‘lib, uni to‘g‘ri tanlash muvaffaqiyat kalitidir. “To‘g‘ri tanlash” tushunchasi, birinchi navbatda, kasbiy faoliyatda shaxsnинг o‘z salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatini nazarda tutadi. Bizning zamonamizda kelajak kasblari AQSh yoki Evropaga qaraganda biroz kechroq paydo bo‘lishi mumkin. Ammo globallashuv va texnologiyalarning keng integratsiyalashuvi sharoitida bu bo‘shliq sezilarli bo‘lmaydi. Vaqt bilan hamnafas bo‘lish juda muhim, shunda bir nuqtada sivilizatsiyadan chetda qolmaymiz va professional muhitda ham rivojlanishga erishamiz.

Adabiyotlar

1. Волков Б.С. Основы профессиональной ориентации: учеб. пособие для вузов. – М.: Академический проект. 2007.
2. Пуляева В.Н. Управление человеческими ресурсами в экономике знаний: монография / В.Н. Пуляева. – М.: Издательский дом ГУУ. 2018.
3. <http://ish.mehnat.uz/vacancy>
4. <https://artmastermsk.ru>

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARНИ ERTAKLARNI SAHNALASHTIRISHGA O‘RGATISH

D.M.Maxmudova, A.A.Artikbayeva, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchilari

Сказка появляется в жизни человека в раннем возрасте. Педагогическая ценность сказки состоит в том, что дети радуются торжеству правды и честности, освобождению бедных от невзгод, то есть осознанию доброты, осуждению зла и нечестия. Они хотят, чтобы так было всегда.

Ключевые слова и понятия: сказка, сказкотерапия, эмоциональная сфера, взаимодействие, формирование, этические нормы, коммуникативные навыки, креативность.

A fairy tale appears in a person’s life at an early age. The pedagogical value of the fairy tale lies in the fact that children rejoice at the triumph of truth and honesty, the liberation of the poor from adversity, that is, the realization of kindness, the condemnation of evil and wickedness. They want it to be like this forever.

Key words and concepts: fairy tale, fairy tale therapy, emotional sphere, interaction, formation, ethical norms, communication skills, creativity.



Maktabgacha yoshda asosiy faoliyat – bu o‘yin. Unda bola dunyoni o‘rganadi, hissiy soha bilan tanishadi, rivojlanadi va boshqa bolalar bilan muloqot qiladi. Bularning barchasi tabiiy ehtiyojlar, shuningdek, ma’lum axloqiy me’yorlar, muloqot qobiliyatları va ijodkorlikni shakllantiradi. Bunda yordamchi vosita sifatida ertak aytish va ertaklarni sahnalashtirishdan foydalanish mumkin. Xalq og‘zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o‘qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta’sirchanligi, o‘tkirligi, ma’nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko‘pchiligidagi real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo‘silib ketadi. Ertakning o‘tkir maroqli syujeti, voqeа rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g‘oyaviy yo‘nalishi, unda ezzulik kuchining - yaxshilikning doimo g‘alaba qilishi bolalarni o‘ziga tortadi. Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, bolalar unda to‘g‘rilik, halollik g‘alaba qilganidan, kambag‘al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya’ni yaxshilik, ezzulik ro‘yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo‘lishini istaydilar.

Bolalarni ertaklarni sahnalashtirishga o‘rgatish jarayonida ularning yosh xususiyatlarini inobatga olib topshirishlarni astasekin murakkablashtirish mumkin. Bunday murakkablashtirish bolalarning ko‘nikma darajasiga va ta’lim dasturiga mos bo‘lishi kerak. Ba’zi qiyin holatlarga duch kelganda esa bolalar bilan alohida individual ishslash tavsiya qilinadi. Ertaklarni sahnalashtirish, qahramonlarning harakati, axloqi, odobini birgalikda muhokama qilish jarayonida bolalar qalbida ezzulikka, xayrli ishlar qilishga, odamlarga yaxshilik qilishga intilish tuyg‘usi tarbiyalanadi.

Bolalar bilan birgalikda ertaklarni sahnalashtirish orqali ertak qahramonlarining (“Oltin tarvuz”, “Zumrad va Qimmat”) o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi, ularga mos xatti-harakatlarni ijroda qanday aks ettirish kerakligi, sahna nutqi (ifodali, aniq talaffuz)ni, sahnada harakat erkinligi, so‘z va harakat uyg‘unligi rivojlanadi.

Bola ertak mazmunini o‘zlashtirib olgandan so‘ng, uning tili ustida ishslashga alohida ahamiyat qaratilishi zarur. Ertak mazmunini qayta hikoyalashda, qahramonlarga tavsif berishda bolalarning o‘z nutqida til vositalaridan o‘rinli foydalanish talab qilinadi. Til vositalaridan foydalanish uchun talab va vaziyat, ehtiyoj yaratish zarur.

Ertakterapiyasi metodi – bu bolani ertaklar orqali tarbiyalash va davolash metodidir.

Ertakterapiya atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatni mukammallashtirish hamda emotsiyonal buzilishlarni to‘g‘rlashda foylaniladigan usuldir. Ertaklar bolaga umid beradi. Ertaklar orqali biz bolani tarbilaymiz, uning ichki dunyosini boyitamiz, qalbini davolaymiz, hayot haqida bilmib beramiz, xayolini o‘stiramiz.

Haqiqiy ertakning asosiy belgisi bu – uning yaxshilik bilan tugashidir. Bu bolaga psixologik himoyalanganlik tuyg‘usini beradi. Ertaklarda nimaiki sodir bo‘lmasin, yaxshilik bilan yakun topadi, ertak qahramonlarining boshiga tushgan barcha sinovlar ularni yanada kuchli va aqli qiladi. Boshqa tomonidan, bola yomon xatti-harakatlarni amalga oshirgan qahramonlarning, albatta, qilmishlariga yarasha jazo olishlarini ko‘radi. Barcha sinovlardan mufaqqiyatli o‘tgan, o‘zining barcha ijobjiy xislatlarini namoyon qilgan qahramonlarning esa albatta mukofotlanishiga amin bo‘ladi. Ana shunda hayotning asosiy qonuni yaqqol ko‘rinadi: Sen hayotga qanday munosabatda bo‘lsang, u ham senga shunday javob qaytaradi.

Korney Ivanovich Chikovskiy shunday yozgan edi: “Menimcha ertakning maqsadi bolada birovning g‘am-

tashvishi uchun qayg‘urish, o‘zganing shodligi uchun xursand bo‘lish, begona insonning taqdirini xuddi o‘ziniki kabi boshdan o‘tkazish kabi insoniylikni qanday bo‘lmasin tarbiyalashdan iboratdir”. E’tibor bering-a, bu yerda ikki insonning o‘zaro bir-birini tushunishi, bir-biriga g‘amxo‘rlik qilishi haqida gap bormoqda.

Ertaklardan bolalar adaptatsizlik haqida o‘zlarining ilk tasavvuriga ega bo‘ladilar. Ertak bolaning murakkab hayotiy muammolarini hal qilish usullarini ongida saqlab qolishga va qayg‘urishga majbur qiladi. Bunda hayotga qarama-qarshi kuchlarning to‘qnash kelishi va ularni hal qilish borasidagi tajriba ortib boradi hamda ijodiy tasavvur rivojlanadi.

Aynan xotira bilan uyg‘ulashgan tasavvur bolaga hayotda shu kabi muammolarga duch kelganda qisqa vaqt ichida to‘g‘ri va samarali yechimni topishga imkon beradi. Ertak esa qahramonlarning xatti-harakatlarni misli ko‘rilmagan holatlarda aks ettiruvchi, ammo bolaning xotirasini va ongiga eng asosiy, ba’zan esa ilojsizdek tuyulgan, qiyin holatlarning ham baribir yechimi bor, degan tushunchani singdiruvchi hayotning o‘zidir. Hayotda boshi berk ko‘chalar bo‘lmaydi. Ko‘pincha inson shunchaki, ulardan chiqib ketishga tayyor bo‘lmaydi.

Ertakterapiya bolaga nima beradi?

1. Ertakterapiya yordamida xayol, ijodiy tasavvur rivojlanadi, ko‘ngil xotirjamligiga erishiladi.
2. Bola o‘zgalar xatti-harakatlarni tahlil qilishni va bu bilimlarini o‘z xatti-harakatlarda qo‘llashni o‘rganadi.
3. Guruhdagi muloqot orqali ishtirokchilar o‘rtasida kommunikativ aloqa o‘rnatalidi.
4. Ertakterapiya kattalarga ham o‘z fobiya, qo‘rquvlarini yengishga yordam beradi, ularagi jahdorlik va xavotirlikni kamaytiradi.

Ertaklar orqali biz bola qalbidagi muammolarni ochishimiz va yechishimiz mumkin. Bunday ertaklar terapeutik ertaklar deb nomlanadi.

Ertakalar ko‘pincha kechqurun, uyquga yotishdan oldin aytildi, sababi bola bu paytda tinch bo‘lib, bu aynan unga ta’sir o‘tkazish uchun qulay paytdir. Shuning uchun kechqurun yaxshilik bilan tugaydigan pozitiv mazmunli ertaklar aytib berish kerak. Shuningdek, oila davrasida, kattalarning muhokamasi bilan tinglangan ertaklar muammoni hal qilishga, korreksiyalashga zamin yaratadi. Ertaklar bolani ulg‘aytiradi. Birinchi navbatda ertakni bolaga bajonidil aytib bermoq lozim, shunda xalq ijodidan bola ko‘proq narsa oladi. Ertak aytish jarayonida bola ruhan xotirjam, muhit tinch bo‘lsa, samarasini yaxshi bo‘ladi.

Bolaga ertak aytib berayotib unga quyidagi savollarni berishingiz mumkin:

1. Bu ertak nima haqida?
2. Ertak qahramonlari qanday sifatlarga ega? Ular kimga o‘xshaydilar?
3. Nega ertak qahramonlari bunday xatti-harakatlarni amalga oshiradilar? Bu nima uchun kerak?
4. Bosh qahramon qiyin vaziyatlardan qanday chiqib ketadi? Buni uning o‘zi uddalaydimi yoki unga bu ishda kimdir yordam beradimi?
5. Qahramonlarning xatti-harakatlari atrofdagilarga nima beradi – quvонchmi, qayg‘umi? Qahramonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar qanday?
6. Ertak, uning ayrim qismlari qanday tuyg‘ularni uyg‘otadi?

Bolalar uchun ertaklar ularning xayolini, mantiqiy va obrazli tafakkurini rivojlantirib, nutqini o‘stiradi, xavotirlikni yo‘qotib, o‘ziga ishonchni oshiradi, shuningdek, ba’zi salbiy xislatlar haqida fikr yuritishga o‘rgatadi. Qizg‘anchiq bolalarga “Baliqchi va baliq”, qo‘rroq bolalarga “Qo‘rroq quyonlar”, ishonuvchanlariga “Buratinonanining sarguzashtlari”, qaysar



bolalarga “No‘xat ustidagi malika”, tinib-tinchimas bolalarga esa “Etik kiygan mushuk” ertagini aytib berishni taklif etiladi.

Xuddi shunday mazmundagi ertaklar o‘zimizning o‘zbek xalq ertaklari orasida ham uchraydi. “Zumrad va Qimmat” ertagi bolalardagi erinchoqlik va dangasalikka, “Ur to‘qmoq” ertagi yolg‘onchilikka, “Susambil” ertagi noahillikka qarshi kurashadi. Bunday misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin. Barcha ertaklar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, bola qalbiga ezgulik urug‘ini sochadi.

Kichik yoshdagi bolalar uchun ertak mazmuni tushunarsiz bo‘lishi mumkin, lekin ertakdagagi “bobo”, “buvi”, “sichqoncha” kabi so‘zlar biroz tanish bo‘lib, bu ertakni bola uchun qiziqarli qiladi hamda uyqu oldidan aytib berish uni tinchlantiradi. 3yoshdan keyin bolada obrazli tafakkur shakllana boshlaydi, u endi tasavvur qila oladi. Ularga endi murakkabroq mazmundagi sehri ertaklarni taklif qilish mumkin.

Ertakterapiyaning maqsadi va vazifasi bolalardagi jahldorlik kayfiyatini yo‘qtish, o‘z-o‘zini emotsiyal boshqarish va o‘zgalar bilan ijobjiyyatni rivojlantirishdir. Buning uchun ertakterapiya soddaligi va bolalarning ertakka bo‘lgan qiziqishi tufayli ular uchun tushunarli bo‘lgan ertak uslubi va bolalar bilan ishslash yo‘llidan foydalilanadi. Har bir bola ertakni o‘zicha tushunadi va qabul qiladi. Shuning uchun bir ertak unda katta taassurot goldiradi, boshqasi esa uning his-tuyg‘ularini qo‘zg‘atmaydi. Ertak nafaqat insonning ongiga, balki ong ostiga ham ta’sir qiladi, “ajodolar xotirasi”ga yoki emotsiyal xotiraga tayana olar ekan, syujetning murakkabligidan qo‘rqish kerak emas. Xatti-harakatdagi emotsiyal salbiy o‘zgarishlarni to‘g‘rilashga qaratilgan ertaklarda syujetni chuqur anglash emas, balki insonlarning o‘zaro munosabatlarini, ularning ko‘rsatgan qahramonliklarini, u yoki bu tanloving natijasini, o‘zining ma‘lum bir vaziyatga shaxsiy munosabatini, o‘zining shaxsiy xayoti bilan o‘zaro aloqalarini voqeja va qahramonliklari yordamida eshitayotgan,

o‘qiyotgan insonning qalbidadir. Buni hisobga olish zarur, zero ko‘p holatlarda ota-onalar o‘zlarining shaxsiy qo‘rquvlarini bolaning qo‘rquvi deb ta’kidlaydilar. Hayotiy qo‘rquv kabi o‘lim oldidagi qo‘rquv ham nafaqat bolalarga, aksincha, bolalardan ko‘ra, ko‘proq ota-onalarga xos bo‘ladi. Shu bilan birga bu hayotda o‘z o‘rnini topmaslik qo‘rquvi, turmush o‘rtog‘ini yo‘qtish oldidagi qo‘rquv, oilaning buzilishidan qo‘rqish, ishda obro‘-e’tiborga ega bo‘lmaslikdan qo‘rqishdir. Bu siz bilan bizning qo‘rquvimiz, ularni bolalarimizni deb hisoblash kerak emas.

Bola xatti-harakatdagi emotsiyal buzilishlarni, albatta o‘yinlar, o‘yinchoqlar, bolaning tasviriy faoliyati, musiqa, teatr va umuman aytganda san‘at yordamida ham to‘g‘rilasa bo‘ladi. Lekin, bolalar uchun eng tushunarli va sevimli usul bu – ertakdir. To‘g‘ri tanlangan ertak yordamida boladagi ko‘plab muammolar – qo‘rquv, injiqlik kabilarni yo‘qtish, bolada qat’iyat va irodani shakllantiradi. Ertaklarni faqatgina psixologik terapiyadagina qo‘llamay, balki oila davrasida muntazam qo‘llash bolalik davridagi eng iliq hislarni bola xotirasida muhrlashga imkon beradi. Ertaklar bolaning muammolaridan kelib chiqqan holda tuzilishi, ertak terapiyasini o‘tkazish mobaynida bolaning har bir xatti-harakatiga ahamiyat berib borilishi, bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ertakni qabul qilish darajasini muntazam kuzatib borish lozim.

Adabiyotlar

1. O‘zbek xalq ertaklari. 3 jildlik. – T.: O‘qituvchi. 2013.
2. M.Sulaymonov. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Ma’ruzalar matni. – Namangan: 2001.
3. K.Imomov. O‘gay qiz tipidagi ertaklar “O‘zbek tili va adabiyoti”. 3сон. 1997
4. Z.Usmonova. Ertak-novellalarda konfikt “O‘zbek tili va adabiyoti”. 6сон. 1997.

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILAR TEXNIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

B.K.Muhamedsaidov, J.E.Pardaboev, R.B.Daminova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchilari

В данной статье рассматриваются технологии развития технического мышления учащихся на уроках технологии, инновационные технологии обучения, робототехника, моделирование, проектирование, формирование инженерных навыков.

Ключевые слова и понятия: техническое мышление, инженерные навыки, механизм, трансформация, сбор данных, техническое моделирование.

This article discusses technologies for the development of students’ technical thinking in technology lessons, innovative teaching technologies, robotics, modeling, design, and the formation of engineering skills.

Key words and concepts: technical thinking, engineering skills, mechanism, transformation, data collection, technical modeling.

Jahon miqyosida fan-texnika taraqqiyoti mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish va uning kelajagini belgilab borishda insonlar intellektual salohiyati muhimligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga dunyo bo‘yicha ilm-fan rivojining bugungi holati, ayniqsa, bu borada yoshlarga bilim berish keng joriy etilgan jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta’lim oluvchilar oldida ularni jadal egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlashdek vazifani qo‘ymoqda. Ta’limni rivojlanishning zamonaliv sharoitida o‘quvchilarning yangi, nostonart vaziyatlarda tezkor harakat qilish, mavjud ma‘lumot

manbalarini tahlil qilish va atrofdagi makonni o‘zgartirish ko‘nikmalarini shakllantirish vazifasi dolzarbdir. Buning uchun yuqori darajadagi texnik fikrash talab etiladi.

“Texnik fikrash” hozirgi vaqtida juda qiziq va dolzarbdir. Bu ilm-fanning jadal va ko‘p qirrali rivojlanishi, ishlab chiqarishda texnik vositalarining doimiy o‘zgarishi va murakkablashishi, muhandislik mutaxassisliklariga, shu jumladan davlat darajasidagi qiziqishlarning yangilanishiga bog‘liqidir.

Texnik tafakkurni shakllantirish muammosining ba’zi jihatlari antik davrdan beri psixologiya, pedagogika va falsafa uchun an’anaviy bo‘lib kelgan. Aristotelning asarlarida




Texnologiya

fikrlashning ikki turi mayjudligi aks ettirilgan: nazariy, umuminsoniy bilishga qaratilgan va amaliy, universal qonunlarni muayyan holatlarda qo'llashni talab qiladigan hollarda.

Bunday qarashlar ancha uzoq vaqt davomida mavjud bo'lib, faqat ishlab chiqarishning asosi bo'lgan mashinasozlik jarayonlarining o'sishi bilan Galiley tomonidan e'lon qilingan tabiiy jarayonlarning mexanik ko'rinishi va amaliy, texnik tafakkurga qarshi bo'lgan qarashlar bo'sh va samarasiz bo'lgan. Asta-sekin amaliy texnik fikrlash atrof-muhitni o'zgartirishga qaratilgan hayotiy faoliyat, hayotning moddiy qismlarini loyihalash va ishlab chiqarish ezgu kasb sifatida talqin etila boshlandi.

Birinchi marta "texnik fikrlash" atamasini faylasuf P.K.Engelmaer "Texnologiya falsafasi" asarida "Texnik deb atash mumkin bo'lgan maxsus ong mayjud" [2] deb ta'riflagan.

"Texnik fikrlash" atamasini psixologik va pedagogik adabiyotlarda juda yaqinda paydo bo'lgan va ko'plab mualliflar tomonidan intuitiv ravishda tushuniladi T.V. Kudryavsev, ushbu muammoning birinchi tadqiqotchilaridan biri bo'lib, texnik fikrlash uch komponentli tuzilishga ega ekanligini ta'kidlaydi: 1-rasm



1-rasm: Texnik fikrlash komponentlari

Bunda tarkibiy qismlarning har biri teng o'rinni egallaydi va birgalikda ular ajralmas birlikni tashkil qiladi.

Konstruktiv va texnik muammolarni hal qilishda aqliy faoliyatning xususiyatlarini o'rganib, texnik fikrlashga xos bo'lgan maxsus operatsiyalar va ko'nikmalar - tarkibiy va funksional tahlil, texnik qurilmaning qurilgan elementlarini sintez qilish, texnik ob'ektlarni qayta ko'rib chiqish, ob'ektlarning yashirin xususiyatlarini aniqlash va yechim topishga imkon beradigan funksiyalar va muammolar bilan bog'liq.

Tarkibiy va texnik muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishda grafik tasvirlarni idrok etish (vizual va texnik vositalar), dinamik fazoviy tasvirlar bilan ishlash qobiliyatiga tayanadi. Bunday tushunchalarining paydo bo'lishi mashina va mexanizmlarni loyihalash jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi. Dinamik fazoviy tasvirlar fazoviy aloqalarni va qurilmaning qismlari o'rtasidagi munosabatlarni ko'rishga imkon beradi. Turli xil konstruktiv va texnik muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish texnik fikrlashni rivojlantirish ko'rsatkichlaridan biridir.


Bizning fikrimizcha texnik tafakkur "Aqliy va amaliy harakatlarning integratsiyalashgan majmuidir"

Texnik tafakkurning tuzilishi uchta o'zaro bog'liq va teng qismlardan iborat tushunchalar bilan bog'liq - konseptual, obrazli va amaliy, bunda konseptual (nazariy) komponent texnik tushunchalarini shakllantirishni ta'minlasa, obrazli (vizual) - tasvirlar va mahorat tizimining paydo bo'lishiga yordam beradi, amaliy (samarali) komponent olingan natijalarini majburiy tekshirishni talab qiladi.

Texnik fikrlash turli xil tarkibiy qismlarning kombinatsiyasi sifatida quydagicha namoyon bo'ladi:

- tabiat, jamiyat, zamonaviy texnologiyalar haqidagi

TEXNIK TAFAKKUR



2-rasm: Texnik tafakkurning tuzilishi

tasavvurlar, dunyoning zamonaviy ilmiy muhandislik manzarasini tasvirlash;

- texnologiya sohasidagi bilimlarni turli amaliy vaziyatlarda qo'llash qobiliyati va ko'nikmalar;

- yangi bilimlarni egallash, ishlab chiqarish faoliyati natijalarini tahlil qilish, kerak bo'lganda ishlab chiqarish jarayonini tartibga solish qobiliyati sifatida.

- шкалы социально-психологической приспособленности А. М. Прихожан, в том числе принятие/непринятие себя, принятие других, конфликт с другими, внутренний/внешний локус контроля, эмоциональный комфорт/дискомфорт, доминирование (лидерство), зависимость (ведомость);
- шкалы переживания социального стресса из опросника диагностики уровня школьной тревожности Р. Филлипса,
- теста коммуникативных умений Л. Михельсона, включая умения ребенка сказать «нет», оказать поддержку, агрессивный, зависимый, компетентный типы поведения;
- опросника для родителей «Анализ семейных взаимоотношений» Э.Г.Эйдемиллера, В.В.Юстицкиса.

В исследовании на всех его этапах приняли участие 330 респондентов подросткового и юношеского возраста (188 девочек и девушек, 142 мальчиков и юношей) в возрасте от 13 до 16 лет. Кроме этого, для изучения стилей родительского воспитания в связи со здоровым поведением в исследовании принимали участие родители 50 детей. Для статистической обработки данных с помощью программы SPSS 23.0 применялись методы индуктивной статистики (параметрический критерий Стьюдента, непараметрический критерий Манна-Уитни для независимых выборок) и корреляционный анализ.

Результаты изучения социально-психологической адаптированности показали, что при высоком индексе отношения к здоровью (ИОКЗ) и высоком уровне здорового поведения детям свойственны выраженность принятия себя ($U=3938,5$, $p<0,05$), принятия других ($U=3636,0$, $p<0,05$), эмоционального комфорта в общении ($U=3548,5$, $p<0,05$). Эти дети более уверены, спокойны, способны к конструктивному выражению своих эмоций.

Дифференцированное рассмотрение компонентов здорового поведения на основе корреляционного анализа выявило положительную связь показателя эмоционального комфорта и показателями правильного питания ($rs=0,360$, $p<0,01$), физической активности ($rs=0,215$, $p<0,01$), отказа

от рискованного поведения ($rs=0,154$, $p<0,05$), принятия профилактических мер для своего здоровья ($rs=0,238$, $p<0,01$), следования здоровым привычкам сна и отдыха ($rs=0,228$, $p<0,01$).

Выявилась отрицательная корреляция между внешним локусом контроля и выраженной здорового поведения ($rs=-0,252$, $p<0,01$). Подростки с экстернальным локусом контроля чаще склонны к употреблению нездоровой пищи ($rs=-0,303$, $p<0,01$), пессимистичны в своих настроениях ($rs=-0,186$, $p<0,01$), обладают вредными привычками ($rs=-0,222$, $p<0,01$), рискуют своим здоровьем ($rs=-0,183$, $p<0,01$), не получают социальную поддержку от близких ($rs=-0,213$, $p<0,01$).

Изучение взаимосвязи между показателями пищевого поведения и социально-психологической приспособленности позволяет говорить, что показатели стремления к худобе положительно коррелируют с показателями непринятия себя ($rs=0,344$, $p<0,01$), конфликта с другими ($rs=0,332$, $p<0,01$). Возможно, считая себя недостаточно худыми, дети чувствуют себя уязвленными, не видят свою индивидуальность и не уважают себя. При конфликтных ситуациях с окружающими, чтобы показать им свою обиду и злость, они отказываются от употребления пищи.

Результаты изучения социального стресса показали, что подверженность ему приводит к низкой выраженности здорового поведения ($rs=-0,359$, $p<0,01$).

Результаты изучения коммуникативных умений дают основание говорить о достоверных различиях в показателях коммуникативной компетентности между подростками с низким и высоким уровнями интенсивности отношения к здоровью. Подростки с высоким уровнем интенсивности отношения к здоровью конструктивно реагируют на провоцирующее поведение со стороны собеседника. Они способны сочувствовать и поддерживать ровесников в трудных ситуациях, поддерживают инициативу общения со стороны других людей. Им свойственно компетентное коммуникативное поведение. У подростков с низким уровнем интенсивности отношения к здоровью статически достоверно преобладают агрессивное и зависимое поведение.

Эти данные подтверждаются выявленными достоверными различиями между группами подростков с низкой и высокой выраженностью здорового поведения в показателях коммуникативных умений. Так, подростки с высокой выраженной здорового поведения умеют оказывать и принимать комплименты, реагируют на несправедливую критику, защищаются, умеют сказать «нет», проявляя ассертивное поведение, умеют сочувствовать и поддерживать.

Результаты изучения особенностей отношения родителей к детям показали достоверные различия в целом в выраженности здорового поведения и в частности в избегании курения, употребления алкоголя, наркотических веществ в зависимости от сбалансированности проекции. Другими словами, при стиле воспитания, когда у детей есть личное пространство, когда родители сдерживают свои стремления в гиперопеке, но при этом имеют значимое место в жизни своих детей, подростки чувствуют себя увереннее и самостоятельнее, что положительно отражается на их здоровом поведении.

Поиск различий в отношении к здоровью и его компонентах в зависимости от степени удовлетворения потребностей ребенка показал достоверные различия в безопасности и избегания риска и в социальной поддержке в зависимости от адекватного удовлетворения потребностей ребенка. Другими словами, в тех семьях, где родители не игнорируют потребности детей, но и сдерживают себя от чрезмерного их удовлетворения, дети больше ценят безопасность и избегают риска. На наш взгляд, это обусловлено тем, что дети в таких семьях не избалованы и при этом получают все необходимое,



поэтому они ценят свое здоровье и чувствуют свою ответственность.

Таким образом, исследовательские данные о взаимосвязи социально-психологической адаптивности личности и здорового поведения в подростковом и юношеском возрасте являются надежными. Для обеспечения эффективности программ по обучению здоровому образу жизни необходимым является ответ на вопрос о механизмах, способствующих положительному и отрицательному влиянию социально-психологической адаптивности личности, ее типов в этнокультурном контексте на здоровое поведение и ценностное отношение личности к здоровью.

Полученные данные свидетельствуют, что программы обучения здоровому образу жизни (health education) должны включать как информирование детей о действиях, способствующих сохранению и укреплению здоровья, так и тренинговые упражнения по увеличению степени оптимальной социально-психологической адаптации личности. В процессе укрепления здоровья (health promotion) личности в подростковом и юношеском возрасте развитие их личностных и коммуникативных умений через образовательные и тренинговые программы должно занимать ключевое место.

Литература

1. Васильева О.С., Филатов Ф. Р. Психология здоровья человека (эталоны, представления, установки): Учебное пособие. – М.: Издательский центр «Академия». 2001.

2. Общественное здоровье и здравоохранение: учебник / Лисицын Ю.П. 2-е изд. – М.: ГЭОТАР-Медиа. 2010.

3. Ожирение. Вопросы здравоохранения [Электронный ресурс]//Сайт Всемирной организации здравоохранения. URL: https://www.who.int/ru/health-topics/obesity#tab=tab_1 (дата обращения: 15.12.2021).

4. Сайт Всемирной организации здравоохранения. URL: <https://www.who.int/ru/news/item/22-11-2019-new-who-led-study-says-majority-of-adolescents-worldwide-are-not-sufficiently-physically-active-putting-their-current-and-future-health-at-risk> (дата обращения: 15.12.2021).

5. Чеснокова М.Г. Понятие здоровья в контексте ключевых категорий культурно-деятельностного подхода // Вестн. Моск. ун-та. Сер.14. Психология. 2015. № 2.

6. Berkman L. The Role of Social Relations in Health Promotion//Psychosomatic Medicine. 1995. № 57.

7. Harris D. M., Guten S. Health Protective Behaviour: an Exploratory Study// Journal of Health and Social Behaviour. 1979. No. 20.

8. Health Promotion Glossary. Geneva, World Health Organization, 1998.

9. Sarafino E.P., Smith T.W. Health Psychology. Biopsychosocial Interactions. Seventh Edition. John Wiley & Sons, Inc., 2011.

10. Vickers R., Conway, T., Hervig L. Demonstration of Replicable Dimensions of Health Behavior// Preventive Medicine. 1990. Vol. 19.

INTELLEKT TESTLARNI STANDARTLASHTIRISH VA EKSPERIMENTAL JARAYON

A.B.Turdimuratova, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

В данной статье рассматривается конструирование и алгоритм, технология создания психологических методик, диагностирующие интеллектуальные способности.

Ключевые слова и понятия: формула Кьюдера Ричордсана, критериальная валидность, ретестовая надёжность, психометрия.

This article discusses the design and algorithm, the technology for creating psychological methods for diagnosing intellectual abilities.

Key words and concepts: Kuder-Richardson's formula, criterion validity, retest reliability, psychometry.

Ma'lumki, psixodiagnostika sohasida eng qiyin vazifalardan biri verbal testlarni moslashtirish va standartlashtirishdir. Verbal testlar yordamida lingvistik materialni qayta ishlash tezligi va idrok darajasi, xotira, diqqat va shaxsnинг intellektual qobiliyatlarini aniqlash mumkin. Verbal testlarni moslashtirishning eng qiyin vazifasi jumlalarni asl matndan tarjima qilishdir, har bir savol mazmuni sinaluvchilarining madaniyatiga, mentalitetiga mos kelishi kerak.

Shunday testlardan savodxonlik testi (ikki mustaqil qismdan iborat: "Yuzta so'z" va "50 ta jumla") ilk bor 1996-1998 yillarda Xalq ta'limi vazirligi Iste'dod markazida (o'n yil muddat moboynida) yaratilgan [1].

Bu metodikada "100 ta so'z"ning birinchi qismiga 40 ta to'g'ri va 60 ta noto'g'ri so'z kiritilgan. Avvalambor, barcha ishtiroychilarga javoblar varaqasi va birinchi testning 100 ta so'zi taqdim etiladi. Agar sinaluvchi javobni noto'g'ri tanlasa, u holda maxsus javob varaqasida N harfi ostiga bo'sh katakchani chizadi, xuddi shunday javobni to'g'ri deb hisoblasa, T harfi ostiga bo'sh katakchani chizadi. Ishtiroychilar javobni mustaqil ravishda to'ldiradilar. Ushbu test qismi 8-9 sinf o'quvchilari uchun o'rtacha

15 daqiqani o'z ichiga oladi. Noto'g'ri yozilgan so'zlar o'yash va xatolarni izlashi uchun tanlanilgan.

Shunday qilib, ushbu testda muammolarning ikkita toifasi mayjud. Birinchi turkumda berilgan yuz so'zning birinchisi orasida alohida xatosi bo'lgan so'zlar ham bo'lib, ularning hammasini topish, to'g'ri belgilash vazifasi qo'yilgan va bularning barchasi diqqatni talab qiladi.

Mustaqil qismdan iborat ikkinchi test, 50 ta jumla deb nomlanadi va 25 ta to'g'ri, xatosiz va 25 ta noto'g'ri gaplardan iborat bo'lib, savollar matnida imlo va tinish belgilardan iborat xatolar qo'yilgan.

Har bir ishtiroychiga birinchi testdagi kabi maxsus javoblar varaqasi taqdim etiladi. Keyin sinaluvchilar jumlaning xatosi bor qismini topib belgilashlari uchun ikkinchi test savollari beriladi. Agar jumlada xatolar bo'lmasa, u holda «ye» harfini belgilash kerak. Ikkinchi test o'rtacha 35 daqiqa davom etadi. Test topshirilqlarining har bir jumlesi vertikal ravishda 4 qismga bo'linadi. Mazkur jumla topshirilqlarining har bir qismi lotin harflari A, B, C, D bilan belgilangan. Tuzilgan test psixometrik tekshirishning an'anaviy protseduralaridan o'tdi va diagnostikaning nazariy ta'rifini o'z



ichiga oladi.

Bizning holatlarimizda ishonchlik test natijalarining ichki izchilligi sifatida biserial korrelyasiya koefitsienti (Kyuder Richardson formulasi yordamida) yordamida baholandi.

Olingen ma'lumotlar "100 so'z" testida ichki bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

“50 jumla”dan iborat test metodikasining mustaqil ikkinchi qismida ishchonchilikni aniqlash uchun ham bisserial korrelyasiya koefitsienti ishlataligani.

Shuningdek, bizning holatlarimizda metodikaning qayta sinovdan o'tkazish ishonchliligi tekshirildi. Ushbu metod [2] amaliyotda uzoq vaqtidan beri qo'llanilgan, testning barqarorligini aniqlash uchun eski va vaqtinchalik baholashdir. Ushbu testning mohiyati va asosi shundaki, xuddi shu sinov bir haftadan 6 oygacha bo'lgan vaqt oralig'ida o'tkaziladi. Korrelyasiya mezonlari ikki holatda sinovdan o'tgan sinaluvchilarining namunasi uchun hisoblanadi.

Bizning holatda, Vilkokson T-mezoni qayta sinov

Ko'rsatgichlar	Ko'rsatgichlar farqlari 8 sifdan 9 sinflar (N=72)			Z	p
	Pasayish	O'sish	O'zgarishsiz		
to'g'ri so'zlar	23 (31,9%)	42 (58,3%)	7 (9,7%)	-2,01	0,044
noto'g'ri so'zlar	29 (40,3%)	42 (58,3%)	1 (1,4%)	-2,07	0,039
100 so'z	24 (33,3%)	40 (55,6%)	8 (11,1%)	-2,45	0,014
imlo xato	49 (68,1%)	12 (16,7%)	11 (15,3%)	-4,71	0,000
tinish belgidagi xato	46 (63,9%)	15 (20,8%)	11 (15,3%)	-4,49	0,000
to'g'ri yozilgan jumlalar	40 (55,6%)	28 (38,9%)	4 (5,6%)	-0,91	0,363
xatosi mavjud jumlalar	48 (66,7%)	19 (26,4%)	5 (6,9%)	-4,28	0,000

ishonchliligini baholash uchun xizmat qildi. Vilkokson T-mezoni o'rganilayotgan ko'rsatkich qiyatmlarining bir xil sinaluvchilarda o'zgarishini baholash uchun ishlatalildi. Shuni ta'kidlash kerakki, metodikani qayta sinovdan o'tkazish ishonchliligini aniqlash uchun qayta sinov 1 oydan 3 oygacha bo'lgan vaqt oralig'iда o'tkazildi. Test sinovlari bir xil guruhlarda 72 ta sinaluvchida o'tkazildi. Diagnostika protsedurasi natijalariga ko'ra, sinaluvchilar 3 qismga bo'lindi.

№4 jadval. «100 soʻz» va «50 jumlaning» 8-9 sinflarda oʻqiydigan 72 sinaluvchida Vilkokson mezoni yordamida hisoblanish natijalarini

To‘g’ri so‘zlarning yechimi 23 ta testning qayta o‘tkazilishida to‘g’ri deb topilganganligi pasaygan (qayta testda noto‘g’ri deb tan olishadi), 42 ta sinaluvchida ko‘paygan, chunki ular to‘g’ri deb qaror qilgan (birinchi testda noto‘g’ri deb yechgan) va 7 ta sinaluvchida o‘zgartirish (ular ikkala test sinovlarida birinchi testda va ikkinchi test paytidagi ham birdek javob berishdi, ya’ni javoblar o‘zgarishsiz qoldi). $\bar{x}=2,01$ ko‘rsatkichi $p=0,044$ ahamiyatatlilik darajasida olingan, aniqrog‘i empirik tarzda, qiymat $p<0,05$ dan kam, bu metodikaning ishonchliligi (to‘g’ri yozilgan so‘zlar) bildiradi.

Takroriy testlar davomida 29 ta sinaluvchida noto‘g‘ri so‘zlarning yechilishi kamayganini, 42 ta sinaluvchida ko‘payganini va faqat 1 ta sinaluvchida o‘zgarishsiz natija bergenligini kuzatdik. Farqlarni hisoblash natijalari $\bar{z}=-2,07$ ko‘rsatkichi ahamiyatlilik darajasida $p=0,039$ ko‘proq empirik tarzda olingan, qiymat $p<0,05$ dan kam, bu o‘z navbatida metodikaning ishonchliligini bildiradi.

"100 ta so'z" test bo'yicha 8-9-sinf o'quvchilarining 72 nafrining natijisi bo'yicha takroriy test sinovlarining umumiy sonida 24 nafr o'quvchilarda past natija qayd etilgan bo'lib, bu birinchi testga nisbatan past ko'satkich. Shuningdek, 40 ta sinaluvchida oldingi testga nisbatan yuqori natija berdi, 8 ta sinaluvchida javoblar o'zgarishsiz qoldi, $p=0,014$ ahamiyatlilik darajasida $z=-2,45$ ko'satkichi olindi, ya'ni, empirik qiymat


p<0,05 dan kam, bu metodikaning ishonchiligining ijobiy natijasini bildiradi (100 so'zni yechish darajasi).

Vilkokson mezoni bo'yicha takroriy "50 ta jumla" testining natijalari taqquoslanganda, 72 nafar 8-9-sinf o'quvchilarining imlo xatolarini topishida ahamiyatlari farqlar aniqlandi. Jadvalda ko'rsatilganidek, birinchi testga qaraganda 49 ta sinaluvchi natijasi pasaygan, 12 ta sinaluvchida ko'paygan va 11 ta sinaluvchida o'zgarishsiz qolgan. Ko'rsatkich bo'yicha $Z = -4,71$ ahamiyatlilik darajasida $p=0,000$, ya'ni qayta sinovdan o'tkazishning jiddiylik darajasi birinchi sinovga qaraganda yuqori, ya'ni ($p<0,001$), metodika ishonchligining 99,9% ijobjiy natijasi (imlo xatolari bo'lgan metodika javoblari) olingan.

Ishonchlik shu tarzda «50 ta jumla» testi uchun tinish belgilarining maxsus xato yo'l qo'yilgan punktlarini hisoblash orqali tekshirildi. Demak, 46 ta sinaluvchida ko'rsatkich birinchi testga nisbatan pasaygan, 15 ta sinaluvchida javoblar ortgan va 11 ta sinaluvchida javoblar o'zgarishsiz qolgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, takroriy test natijalari ishonchlilik qiymatidan oshmaydi. O‘z navbatida, metodikaning ichki izchilligi va qayta sinov ishonchliligi ijobjiy natija berdi.

Ma'lumki, testning kriterial validligi maliy validligining muhim qismidir. Testning kriterial validligi mezonini niqlash Qoraqalpog'istondag'i umumta'lim maktablari 8-9-sinflarining 138 nafar quvchilari ishtirokida o'tkazildi. Ushbu empirik jarayon mezonnning validligini niqlashda qo'llanildi va test mezonini quvchilarning oxirgi yillik chorakaholarini hisoblashda qo'llanildi. Olingan atijalar qo'yida keltirilgan.



Taqdim etilgan jadvaldan ko'riniб turibdki, Qoraqlopg'istondagи umumta'lim maktablarining 8-9-sinf o'quvchilar uchun 138 ta fan bo'yicha natijalar Pirson korrelyasiya mezoni yakuniy chorak baholari "Savodxonlik" metodikasi uchun hisoblab chiqilgan. Bundan kelib chiqadiki, agar testni yechgan sinaluvchi ona tili fanidan yaxshi baholarga ega bo'lsa "Savodxonlik" metodikasi bo'yicha yaxshi ball oladi. Agar mакtabda o'quvchi mакtabdagи fanlardan yaxshi baho olsa, yaxshi o'qishni o'zlashtirsa, bu o'quvchi savodli va savodxonlik testini eng vaxshi natijalar bilan vechishi kerak deb taxmin qilindi.

Yugoridagi jadvaldagi shuni aytishimiz mumkinki, savodxonlik metodikasi mabkab fanlari bilan ijobji bog'liqdir. Darhaqiqat, agar sinaluvchi maktabdagisi fanlarni yaxshi o'qisa, u «Savodxonlik» metodikasida ham ijobji baho oladi va boshqa tengdoshlari bilan solishtirganda savodli degan gipotezamizning tasdig'iini olamiz.

Natijada "Savodxonlik" metodikasi o'quvchilarning muvaffaqiyati bilan ijobiy bog'liqligi va o'zaro bog'liqligi yuqori ekanligi haqidagi nazariy fikr o'z tasdig'ini topdi. Shu sababli, biz taklif qilayotgan metodikaning sinaluvchilarda yechilish javoblarini bilan sezilarli bog'liqlik borligini aytishimiz mumkin va verbal intellektning muktab predmetlari bilan bog'liqligi empirik tarzda



tasdiqlandi. Demak, "Savodxonlik" metodikasi yaxshi psixometrik xususiyatlarga ega va o'quv muvaffaqiyati ko'rsatkichlari bilan bog'liq bo'lgan validlikka ega, intellektual qobiliyatlarni aniqlash uchun haqiqiy va muhim metodikadir.

Savodxonlik testining qoraqalpoq tilidagi variantini moslashtirish bo'yicha o'tkazilgan psixometrik test muvaffaqiyatli o'tdi. Tadqiqot natijalarini savodxonlikni diagnostika qilishning, «Savodxonlik» metodikasining qo'llash samaradorligini va ishlab chiqish tartibi psixodiagnostikaning zamonaviy talablariga javob berishini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. Qodirov B.R. Iqtidorli bolalarning birlamchi tanlovi metodikalari. – T.: 2014.

2. Syed Sajjad Hussain Development, validation and standardization of group verbal intelligence test in Urdu for adulescents —diss. dok. psicol. nauk. — P. 2001.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBGA TAYYORLASHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING INTEGRATSION PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

M.T.Axmedova, Toshkent tibbiyot akademiyasi dotsenti, p.f.n., A.N.Askarova, mazkur akademianing katta o'qituvchisi

Z.U.Musratova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistratura bosqichi talabasi

В данной статье речь идет об интегрированных педагогических условиях формирования коммуникативной компетентности в процессе профессионального становления будущего учителя,

Ключевые слова и понятия: мир, будущий учитель, коммуникативная компетентность, формирование, интерактив, технология, интегративная среда обучения, педагогический механизм, личностный, профессиональный, социализация, обеспечение, социально-педагогические механизмы, эффективная подготовка.

This article deals with the integrated pedagogical conditions for the formation of communicative competence in the process of professional development of the future teacher,

Key words and concepts: world, future teacher, communicative competence, formation, interactive, technology, integrative learning environment, pedagogical mechanism, personal, professional, socialization, provision, socio-pedagogical mechanisms, effective training.

Respublikamizda bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ qobiliyati va malakalarini rivojlantirish, pedagogik faoliyatga taktik va strategik yo'nalganlikni tarbiyalash, affilatsiya motivi asosida talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishga ustuvor yo'naliш sifatida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, ta'lim amaliyoti integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish omillari va mezonlarini aniqlashtirish, konseptual modeli va amaliy-tehnologik tizimini takomillashtirishi taqozo etmoqda. Jahonda bo'lajak o'qituvchilarlarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish, integrativ ta'lim muhitini yaratishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga kommunikativ kompetentlikni shakllantirish asosida bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Ayniqsa, kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik komponentlarini oliy pedagogik ta'lim mazmuniga keng tatbiq etish, bo'lajak o'qituvchilarini samarali muloqotga tayyorlash tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kash etmoqda.

Dunyoda integrativ ta'lim (Blended Learning) asosida bo'lajak o'qituvchilarlarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish masalasiga doir ilmiy munozaralar va forumlarni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ta'limning kommunikativ modelini takomillashtirish, talabalarda interfaol muloqot ko'nikmasini shakllantirish jarayonida akmeologik yondashuvning o'ziga xosliklarini aniqlashtirish, kommunikativ hamkorlikni tashkil etishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish hamda samarali foydalanish, oliy ta'lim darajasini sifat

jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish, integrativ-fasilitatsion ta'lim muhitini yaratish orqali kasbyi faoliyatga kommunikativ yo'nalganlikni tarkib toptirish modelini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy qilish asosida oliv ta'lim muassasalarini faoliyatining sifatini hamda samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyatga joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish" kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu esa, integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirishni talab etadi.

Tadqiqotchi olima Z.Asimova kommunikativ kompetentlikni o'rganishda o'quvchilar jamoasidagi munosabatlarga e'tiborni qaratib, quydagi turlarga ajratib ko'rsatgan:

1. Rasmiy munosabatlar. Ular lavozim asosida paydo bo'ladi, qonun bilan belgilanadi, nizomlar, qoidalar va boshqalar bilan nazorat qilinadi.

2. Norasmiy munosabatlar. Ular insonning insonga shaxsiy munosabati asosida yuzaga kelib, bu kishilar uchun umumiy tartibda qabul qilingan qonunlar va me'yorlar, qat'iy o'matilgan talablar va qoidalar bo'lmaydi.

3. Vertikal munosabatlar. Bu shaxslararo aloqalar bo'lib, ular jamoa ichida rasmiy yoki norasmiy lavozim pog'onasida turli o'rinni egallagan rahbar va uning xodimi, liderlar va jamoaning boshqa a'zolari, umuman odamlar o'rtasida shakllanishi mumkin.



4. Gorizontal munosabatlar. Bu jamoada bir xil rasmiy yoki norasmiy o'rinni egallagan a'zolarning shaxslararo aloqasi. Bu ta'rif bizning nazarimizda aniq emas. Gorizontal aloqlar tushunchasi assossiz chegaralangan. Guruhda vertikal munosabatlar ham gorizontal munosabatlar ham birday mavjud bo'lishi mumkin. Bularni qarama-qarshi qo'yish mumkin emas.

5. Shaxslararo amaliy munosabatlar. Ular kishilarning birgalikda ishlashi yoki shu sababga bog'liq holda yuzaga keladi.

6. Shaxsiy munosabatlar – bu bajaratoygan ishlaridan qat'iy nazar insonlar o'tasidagi munosabat. Ularni vertikal holatda ham gorizontal holatda ham tuzish mumkin. Rivojlangan jamoada o'zaro munosabatlarning shaxsiy va amaliy tizimi shakllanadiki, ular bir-birini yaxshi to'ladir, jamoa a'zolarining talab va ehtiyojlarini qondirishda turli darajada rol o'ynaydi.

7. Shaxslararo ratsional munosabatlar. Ularning asosini insonlarning qay darajada bir-birini bilishi va atrofdagilarning ularga nisbatan ob'ektiv bahosi tashkil etadi.

8. Emotsional munosabatlar. Bu insonning insonga nisbatan shaxsiy, individual qarashlariga asoslangan sub'ektiv bahosidir. Bu kabi munosabatlar faqat ijobjiy yoki salbiy emotsiyalar bilan bog'liq holda yuzaga keladi; ular har doim ham inson haqidagi o'g'ri va ob'ektiv ma'lumotlarga asoslanmaydi.

9. Asosiy faoliyat zaminiga qurilgan munosabatlar faoliyat mazmuniда aks etgan munosabatlar deb ataladi.

10. Faoliyat mazmuniда aks etgan munosabatlar. Ular bu faoliyat bilan bevosita bog'lanmagan bo'ladi. Shuni ham e'tiborda tutish kerakki, rivojlangan jamoaning asosini birgalikdagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat va uning ichida shakllangan qatnashchilarining muloqoti va o'zaro aloqlari tashkil etadi.

Kommunikativ kompetentlik tushunchasining mavjud talqinlari ushbu tushuncha fanlararo integrallik xususiyatiga ega ekanini ko'rsatdi. Bunda kommunikativ kompetentlikning komponentli tarkibiga nisbatan keng bo'lib, "tilga oid, lingvistik, tashkiliy, pragmatik, sotsiolingvistik, diskursiv (munozara), strategik, o'quv, tematik, nutqiy, kompensator, sotsiomadaniy va ijtimoiy tarkibiy qismlardan tashkil topgan to'plamini" o'z ichiga oladi. Yuqorida keltirilgan nazariy fikrlarga asoslanib, o'qituvchining kommunikativ kompetentlik tushunchasiga oydinlik kiritamiz.


O'qituvchining kommunikativ kompetentligi tushunchasi o'z ichiga quyidagi harakatlar uchun zarur bo'lgan uyg'unlashgan kompetensiyalarni kiritishni talab etadi:

- shaxslararo kommunikativ muloqot vaziyatlarini baholash va idrok etish (perseptiv komponent);
- kommunikativ muloqot jarayonida o'z xulq-atvorini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash (refleksiv komponent);
- shaxslararo muloqot uchun mos vositalarni tanlash, muloqot jarayonini boshqarish va insonning xulq-atvorini mos ravishda tartibga solish (xulq-atvor komponenti).

Bunda konsepsiya mos ravishda darajalar tuzilishi qat'iy ierarxiyaga asoslangan – yuqori daraja quyidagilarini belgilaydi. Tadqiqotchi I.A.Zimnyaya "komponentli yondashuv ta'limning natijali-maqsadli yo'nalishini belgilovchi sifatida tizimli, fanlararo" yondashuvdir, deya ta'rif beradi. U ham shaxsga, ham faoliyatga nisbatan tavsiflanadi, ya'ni u ham amaliy, pragmatik, shaxsga xoslanish xususiyatlariga ega. O'qituvchi kommunikativ kompetentligining shakllanish tizimi quyidagi jadvalda keltirilgan(1-chizma).

1-chizma

Kommunikativ kompetentlikni pedagogda shakllantirish tizimi



Kommunikativ kompetentlik pedagog tomonidan tanlangan kommunikatsiya uslubida va muloqotdagi rolli o'rnlarda o'z ifodasini topishi mumkin, ular yetakchilik qiluvchi o'zaro ta'sir qilish maqsadlari bilan ta'minlanib, barqaror ekspressiv xususiyatlar, shu bilan bir qatorda, muloqot vaziyati jarayonidagi kommunikativ harakatlar bilan tavsiflanadi. Pedagogning kommunikativ pozitsiyasi muloqotning belgilangan maqsadlariga erishish yo'llari hamda suhbатdoshiga nisbatan bo'lgan munosabati, shuningdek, o'zaro ta'sirning aniq muloqot uslubi jarayonida amalga oshishi mumkin bo'lgan o'ziga xos talablarни aks ettirishi mumkin.

Tadqiqotimizda biz bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda integratsion jarayonlarga tayandik. Integratsiya nima? Integratsiya – lotincha "integratio" tiklash, ijo etish, "integer" butun, birlashuv ma'nolarini anglatadi. Integratsiya – o'sish, rivojlanish jarayoni bo'lib, turli xil elementlarning bir-biriga ta'sirining natijasi hisoblanadi. Pedagogikada jarayon sifatida tushuniladi va talqin qilinadi. Pedagogikadagi integratsiya prinsipi ikki aspektda ko'rib chiqilishi mumkin. Birinchidan, bu holat, uning uchun turli elementlar orasidagi hamjihatlik, tartiblik va barqarorlikka xos. Ikkinchidan – ushbu holatga olib keluvchi jarayon. Bundan tashqari integratsiya – bu pedagogikada butun ta'lim tizimi samaradorligining juda muhim ko'rsatkichi, chunki uning yaxlitligi mezoni bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa o'rniда mamlakatimiz va xorijiy davlatlar tadqiqotchilarining qarashlarini tahlil qilib aytish mumkinki, kommunikativ kompetentlik empatik va refleksiv qobiliyatlar bilan to'ldirilgan integratsion kompetensiyalarining ma'lum miqdori sifatida talqin qilinadi. U maxsus o'quv mashg'ulotlari davomida shakllantiriladi. Shundan kelib chiqib, kommunikativ kompetentlikni quyidagicha ko'rib chiqish mumkin:

- muloqotda katta yutuqlarga erishganligini belgilovchi shaxs tavsifi;
- qibiliyatlar, shaxsga oid fazilatlar va erishilgan kompetensiyalarining yig'indisi;
- ko'rsatilgan natijalar samarali muloqotning ma'lum standartlariga mosligi.

Ko'rishimiz mumkinki, kommunikativ kompetentlik bu:

- birinchidan, insonning kommunikatsiya sohasidagi kompetensiyalarining yig'indisi bo'lib, ular ma'lum bir faoliyatni bajarish uchun zarur hisoblanadi;

- ikkinchidan, bu insonning boshqa insonlar bilan o'zaro hamkorligi, shaxslararo turli vaziyatlardagi mustaqil faoliyat jarayonida orttirgan hayotiy tajribasining qismidir;

- uchinchidan, bu insonning ijtimoiy-shaxsga oid sifatlari bo'lib, ular uning olam, shuningdek, o'z-o'zi bilan va o'zaro muloqotlarining butun tizimini tartibga soladi;

- to'rtinchidan, bu turli faoliyatda shaxsning imkoniyatlarini aniqlab beruvchi va shu bilan birga, belgilangan faoliyat turiga ham mos keluvchi xususiyatdir;

- beshinchidan, bu insonning real hayotiy vaziyatlar vujudga kelganida yuqorida keltirilgan komponentlarga muvofiq holda o'z muloqot jarayonini tashkillashtirishga tayyorligi. Keltirilgan komponentlarning majudligi ma'lum sohada kishining mahsuldar-professional faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning majburiy shartidir.

Adabiyotlar

1. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. – T.: TDPU. 2016.
2. Axmedova M.T. Information security in internal and external policy of the state //jurnal pravovых issledovaniy. – 2020. – №. Special 2.
3. Axmedova M.T., Muslimov N.A.\ et al. Improvement of the methodology for the future teachers'professional competence development //european journal of molecular & clinical medicine. – 2020. – t. 7. – №. 9. – s. 2372-2380.



4. Allayarova S.N. Implementation of Modern Information Communication Technologies (ICT) in Higher Education Sector: International Experience and The Example of Uzbekistan // International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – T. 9. – №. 1. – S. 386-392.

5. Melibayeva, R.N., Khashimova, M.K. Narmetova Yu, K., Komilova, M.O., & Bekmirov, T.R. (2020). Psychological mechanisms of development students' creative thinking. International journal of scientific & technology research, 9(03).

AMALDAGI O'QUV DASTURINING FANLAR KESIMIDA TAHLILI

M.R.Vohidova, A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti, Ta'lif mazmunini takomillashtirish ilmiy-tadqiqot bo'limi kichik ilmiy xodimi

В этой статье рассматриваются некоторые проблемы и достижения текущей учебной программы общеобразовательных школ. Процесс предполагает использование зарубежного опыта, анализ механизмов обучения, программ и учебников. Еще одним важным моментом является то, что содержание учебников и международная программа оценивания для создания нового поколения учебников и учебных пособий были адаптированы к возрастным требованиям учащихся.

Ключевые слова и понятия: образование, программа, начальное образование, зарубежный опыт.

This article discusses some of the problems and achievements of the current curriculum of general education schools. The process involves the use of foreign experience, analysis of learning mechanisms, programs and textbooks. Another important point is that the content of the textbooks and the international assessment program to create a new generation of textbooks and teaching aids have been adapted to the age requirements of the students.

Keywords and concepts: education, program, primary education, foreign experience.

Bugungi kunda mamlakatimizda uzuksiz ta'lif tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni chuqur bilim olishlari, iste'dodlarini ro'yobga chiqarishda har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu bilan birgalikda ularning mustaqil hayotga tayyorlash ko'nikmalarini ham shakllantirib borish ta'lif tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonning rivojlanchagan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilma'mrifat va innovatsiya bilan erisha olamiz.

Buning uchun, avvalombor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'echadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'lifning barcha bo'g'inlari isloq qilinmoqda.

Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'mrifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi.

Umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lifni tizimli isloq qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish maqsadida bugungi kunda xalq ta'lifi tizimida qator islohotlar olib borilmoqda.

Keyingi yillarda Prezidentimiz tomonidan barcha sohalar qatorini xalq ta'lifi sohasiga ham katta e'tibor qaratilib, maktab va o'qituvchi nufuzini oshirish, o'quvchilarga zamonaviy va sifatlari bilim berish tizimini yaratish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Soha vakillarining obro'-e'tibori va nufuzini oshirish maqsadida moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatishning barcha choralar ko'rilmoxda.

Prezidentimiz nutqida keltirilgandek, dunyo miqyosidagi keskin raqobatga bardosh bera oladigan Milliy ta'lif tizimini yaratish zarurati paydo bo'ldi. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lifni yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarish maqsadida ilg'or milliy va xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlari talablarini inobatga olgan holda o'quv dasturlari, o'qitish metodikasi va ta'lif sifatini baholash tizimini takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan.

Mamlakatimiz tayanchi bo'lgan yosh avlodni har tomonlama bilimli va intellektual salohiyatga ega, o'zining g'oyalari bilan dadil harakat qilishga undaydigan ta'lif dasturlari esa bugun pedagog xodimlarning diqqat markazida turibdi. Ulardagi har

bir yangilik, shubhasiz, o'qituvchilarini qiziqtiradi va ularni o'z ustida yanada ko'proq ishlashga, o'z fanini puxta o'rganishga yo'naltiradi. Avvalgi o'quv dasturlari mazmuni 90 foiz nazariyadan iborat bo'lib, o'qitish metodikasi yodlatishga yo'naltirilgan bo'lsa, yangi Milliy o'quv dasturining mazmuni esa 50 foiz nazariya, 50 foiz amaliyotdan iborat bo'lib, o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Milliy o'quv dasturi 2021-2022-o'quv yilidan respublikamizning barcha hududlarida 1-2-sinf o'quvchilari uchun amaliyotga tatbiq etilib, barcha sinflar kesimidagi haftalik yuklama 314 soat etib belgilandi (2019-yilda – 339 soat edi).

Amaldagi dastur grammatikani tushuntirish va yodlatishga asoslangan bo'lsa, yangi dasturda esa o'quvchi matnni o'qish orqali nafaqat grammatika, balki uni amalda qo'llay olishiga urg'u berilgan. Endi o'quvchilar grammatik bilimlarni nazariy qoidalarni yodlab emas, balki matn va matn asosida berilgan mashqlarni bajarish orqali egallashi belgilangan, shuningdek ayrim qoidalarni kiritib o'tilgan. Ona tilini o'qitish bo'yicha taklif etilayotgan dasturga ko'ra, o'quvchi 4 ta lingistik ko'nikma – eshitib yoki o'qib tushunish, og'zaki va yozma nutq malakasiga ega bo'lishi kerak.

Taklif etilayotgan adabiyotni o'qitish dasturiga ko'ra, darsliklardan badiiy asar tahliliga bag'ishlangan mazkur bo'lim olib tashlangan. Milliy o'quv dasturi asosida ona tili va adabiyot darsliklariga kiritilgan o'zgarishlar yillar davomida shakllangan savod va mustaqil fikrash bilan bog'liq muammoga yechim bo'la olmaydi. Milliy dastur ilk kommunikativ vaziyatga asoslangan o'quv dasturi. Darsliklar ham shunga mos emas. Topshiriqlar berishda dialog tuzish, ssenariy tuzish kabi metodlardan ham faol foydalanish, so'zga hisobdorlikni oshirishga xizmat qiladigan yozma va og'zaki topshiriqlar berilmagan.

Shuningdek, eshitib tushunishni rivojlantirishda mexanik xotirani emas, ko'proq tafakkur qiladigan, javobini internetdan topib bo'lmaydigan topshiriqlar berilmagan. Darslikda berilgan mashqlar faqat yozma nutqni o'stirishga, o'quvchining og'zaki nutqini o'stirish uchun xizmat qilmaydi. Loyihalar orasida O'qish fanining dasturi umuman yo'q. Tushuntirish xatida bu haqida yozilmagan. Xalqaro tajribalar asosida yaratilgan Milliy o'quv dasturidagi bo'limlar 1-4 sind darsliklarida bir xil bo'lib qolgan. Dastur mazmuniga sustkashlik bilan yondashilgan.

Tabiatshunoslik fani O'zbekistonda ham xorij mamlakatlar



tajribasini inobatga olgan holda, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan tabiatshunoslik fanlari mavzulari ham xorij standartlariga moslashtirildi. Jumladan, atrof olamni jonli va jonsiz tabiatga bo'lib o'rganish, dunyo haqidagi bilimlarni kuzatish orqali o'rganish texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. O'simliklar olaming rivojlanish jarayonlari, ularning turlari, qanday shart-sharoitlarda o'sishi va moslashuvchanlik xususiyatlari o'rgatiladi. Shuningdek, o'simliklar olamiga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish qadriyatlari singdiriladi.

Uchinchidan, hayvonot olamiga sayohat qismida quruqlikda hamda suvda yashovchi baliqlar alohida tasniflangan. Hayvonlarning rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, ob-havo va tabiat hodisalari, ularning paydo bo'lishi o'rgatilgan. Oltinchi mavzuda yil fasllari va ularning farqlari, yil fasllarida ob-havoning turlicha bo'lishi tushuntirib o'tilgan. O'quvchilarga o'rmonlar to'g'risida mavzu orqali tabiat landshaftlari tushuntirib o'tilgan. O'rmon, cho'l, cho'l va okeanlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Yer va koinot mavzusi orqali yer, quyosh, oy va uning tasnifi, osmon jismlari harakati o'rganilgan. Issiqlik, yorug'lik va tovush mavzusi orqali esa xonadagi va tabiatdagi yorug'lik, issiqlik va tovush manbalarini farqlay olishni o'rgatadilar.

1-4 sinflar tabiatshunoslik fani tajriba sinov dasturi hamda rivojlangan mamlakatlar tajribasi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tabiatshunoslik darslari fizika, kimyo, biologiya, geografiya fanlarining dastlabki tushunchalar asosida shakllantirilgan. O'zbekistonda yangi tajriba sinov dasturga ham ushbu fanlar kesimidagi dastlabki tushunchalar kiritilgan bo'lsa-da, ammo sinflar kesimida ayrim mavzularning takrorlanishi ko'zga tashlanadi. Ko'proq yangi dastur Rossiya Federatsiyasi tabiatshunoslik dasturiga yaqin bo'lib, Yaponiya va Finlyandiya tajribasida hayoti davomida zarur bo'ladigan bilimlarni berishga alohida ahamiyat qaratiladi. Shuningdek, o'quvchilarga fizika, kimyo, biologiya va geografiya fanlarini kelgusida o'zlashtirish osonlashadi. Boshlang'ich sinf va yuqori sinf fanlar kesimida integratsiya ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limi tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish maqsadida bugungi kunda xalq ta'limi tizimida qator islohotlar olib borilmoqda.

Bu jarayon xorijiy tajibalardan foydalanish, ulardag'i o'qitish mexanizmi, dastur va darsliklarini tahlil qilish va o'rganishdan boshlandi. Yana bir e'tiborli holat – fanlar kesimida fanlararo bog'liqlik hamda sinflararo uzviyliga ta'minlandi. Yana bir muhim jihat shundan iboratki, darslik va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish bo'yicha darsliklar mazmuniga xalqaro baholash dasturi o'quvchilar yoshiga mos tarzda TIMSS, PIRLS talablarini singdirildi. Eng muhim, darsliklar innovatsion yondashuv asosida tayyorlandi. Bunda, o'quvchilarda mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan ta'limiyo'yinlar, mashqlar, masalalar va topshiriqlar amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirildi. Qolaversa, 4-, 5-sinf Texnologiya va 5-, 8-, 9-sinf Informatika darsliklari mazmuni o'quvchilarning texnik qobiliyatini rivojlantirishga oid amaliy, kreativ, mantiqiy yondashuvga asoslangan topshiriqlar bilan boyitildi. 5-sinf "Ona tili", 4-5-sinf "Texnologiya" darsliklari

uchun ilk bor o'qituvchi kitobi va multimedia ilovalari tayyorlandi. Ko'zi ojiz o'quvchilar uchun chop etilayotgan brayl alifbosidagi darsliklarga bo'rtma shakldagi rasmlar va xaritalar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6 iyuldag'i "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son qaroriga asosan "Tarbiya" fani joriy etildi. Yangi darslikning avvalgilaridan farqi nimada? "Tarbiya" darsligi "Odobronoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asosları" hamda "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirdi. 1-9-sinflarda – 2020/2021 o'quv yilidan, 10-11-sinflarda esa 2021/2022 o'quv yilidan boshlab amaliyotga joriy etildi. Darsliklarini tayyorlashda Yaponiyaning "Axloq ta'limi", Singapurning "Fe'l-atvor va fuqarolik ta'limi", Buyuk Britaniyaning "Tafakkur", "Xulq ta'limi" fanlari va darsliklari yaqindan o'rganilgan. Ilk marotaba darsliklarda 21-asr ko'nikmalari deb nom olgan "yumshoq ko'nikmalar" joriy qilingan. Darslik orqali o'quvchida bilim berishdan tashqari ko'nikma shakllantiriladi. Yangi fan darsliklaridagi amaliyotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar va mavzular o'quvchida muvaffaqiyat motivlarini uyg'otadi.

"Tarbiya" darsliklarda «role-model», ya'ni "namuna keltirish" zamонави pedagogik metodidan unumli foydalanilgan. Unda milliy va xalqaro miqyosda yuksak natijaga erishgan insonlar yutuqlari tahlil qilinadi. Insonning kelajakda muvaffaqiyatli inson bo'lishi eng avvalo to'g'ri maqsad qo'yishga bog'liq. "Tarbiya" fanining ahamiyatlari jihatni shuki, u bosqichma-bosqich bolada maqsad qo'yish va unga intilish ko'nikmasini shakllantirib boradi. Darslikda ayrim imloviy va texnik xatolar kuzatidi.

Ma'lumki, o'qituvchini har qanday darsga tayyorlash ushbu darsning arafasida emas, balki undan ancha oldin boshlanadi. Ta'lim mazmuni faqat o'z faol faoliyatini amalga oshirishda o'ziga xos xususiyatga aylanadi. Muayyan usullar asosida amalga oshiriladigan ushbu faoliyat, ma'lum tashkiliy ravishda amalga oshirilishi kerak, uning ichki tuzilishi va tashqi aloqalarini aniqlash uchun jarayon yoki mavzuni tashkil etish usuli mavjud.

Davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri – ma'naviy jihatdan barkamol, jismoniy va ruhiy jihatdan sog'lam, Vatan sarhadlarini himoya qilish uchun jismonan chiniqsan, fidoyi insonni tarbiyalash, ta'lim va maorif tizimini takomillashtirib ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga etkazishga ijtimoiy zarurat tug'ilishi tabiiy bo'lib, uning aksi ta'lim-tarbiya jarayonida aks etmoqda.

Adabiyotlar

1. Uzlusiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzlusiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldag'i "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son qarori

3. Qur'onov M. Milliy tarbiya. Ma'naviyat. 2007.

4. https://t.me/edurtm_uz/

5. <http://tarbiyam.perepost.uz/>